

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX FAKULTETI

“JAHON TARIXI VA ARXELOGIYA” KAFEDRASI

Rahmonov Bobur Ro'ziqul o'g'lining

5220200 – Tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha)
ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun

“Qadimgi So'g'd shaharsozligi tarixi”

mavzusida yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: Egamberdiyev.F.P.

“Himoyaga tavsiya etilsin”

Tarix fakulteti dekani

_____ t.f.n. A.M.Hasanov.

_____ 2014 yil

Qarshi shahri, 2014 yil

MUNDARIJA

Kirish	3
1. Markaziy Osiyo mintaqasida davlatchilik va shaharsozlikning paydo bo'lishida so'g'dlarning roli.	
1.1. Qadimgi So'g'dlar haqidagi ma'lumotlar yozma manbalarda(“Avesto va yunon manbalari”).....	6
1.2. Qadimgi So'g'dlar haqidagi ma'lumotlar arxeologik manbalarda	20
2. So'g'dlar madaniyatini o'rganishda shaharsozlikning o'rni.	
2.1. Markaziy So'g'd shaharlarining o'ziga xos xususiyatlari...	27
2.2. Janubiy va G'arbiy So'g'd shaharlari.....	41
3. So'g'dning buyuk shaharlari haqida manbalar.	
1. Samarqand va Qashqadaryo vohasidagi so'g'diy shahar xarobalarining o'rganilishi.....	52
Xulosa	76
Tavsiyalar.....	78
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	79
Ilova	

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Respublikamizda istiqlolning dastlabki kunlaridanoq ijtimoiy fanlar sohasi olimlari oldida xalqimiz tarixini, shuningdek boshqa xalqlar tarixini haqqoniy va to'laqonli o'rganish masalasi dolzarb vazifa etib qo'yildi. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 2011 yilning avgustida nashdan chiqqan "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" nomli kitobida, respublikamizning yetakchi tarixchi olimlari bilan o'tkazgan uchrashuvida va boshqa mazkur soha bilan bog'liq yig'ilishlarda bir necha marta ta'kidlab o'tgan¹. Shuningdek, bu vazifalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlarida ham o'z aksini topgan.

O'zbekiston hududida yuzaga kelgan qadimgi Baqtriya (mil.av. VII asr), Xorazm (mil. av. VII asr), So'g'd (mil.av. VII asr), Kushon (mil.av. I asr), Turk xoqonligi (VI asr), Amir Temur saltanati (XIV asr oxiri - XV asr boshlari) kabi davlatlar tariximizda alohida o'rin tutadi. Ularda o'ziga xos davlat boshqaruv asoslari yaratilgan bo'lib, o'z davrida davlat, xalq va jamiyatning tinchligi, taraqqiyoti hamda farovonligini ta'minlashga xizmat qilgan.

O'zbekiston tuprog'ida mil. avv. II ming yillikka oid madaniyat bir xilda taraqqiy topgan emas. Bu bosqichda Surxondaryo, Zarafshon va Qashqadaryo vohalari va Xorazmdan iborat uchta o'lkada eng qadimgi madaniyat izlari topilgan. Har qaysi o'lkaning madaniy taraqqiyotida o'ziga xos xususiyatlar bo'lgan. Bu madaniyatlar dehqonchilik, uy chorvachiligi va chorvachilik-dehqonchilik bilan shug'ullangan qabilalarga mansub bo'lishgan. Ular bir-biridan ajralgan holda taraqqiy etgan emas, qabilalar o'rtasida keng madaniy aloqalar o'rnatilgan edi.

Mavzuning dolzarbligi sifatida jahon tamadduni tizimiga Zarafshon va

¹ Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T., "O'zbekiston", 2011; Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q // Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. –T., O'zbekiston, 1999. 7 j. –B. 128-132; Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T., 2008; Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning chora va tadbirlari. – T., 2009; Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizasiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. – T., 2010; Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir // 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. – T., 2010.

Qashqadaryo oralig'idagi hududda yashagan qadimiy aholining o'ziga xos madaniyatni yaratganligi haqida yozma va arxeologik ma'lumotlarni to'plash, o'rganish, ularni tizimga solish va tahlil qilish asos qilib olindi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsad va vazifalari. Markaziy Osiyo sivilizatsiyasida umumso'g'd madaniyatining tutgan o'rni va rolini ochib berish maqsad qilib olindi.

- O'rta Osiyoda ilk shaharsozlik va davlatchilik madaniyatining ildizlarini yozma va arxeologik manbalar asosida tahlil qilish;
- Qadimgi yozma manbalarda So'g'd haqidagi ma'lumotlarning aks etishini manbalar asosida tahlil qilish;
- Qadimgi So'g'd hududida olib borilgan arxeologik izlanishlarni tahlil qilish;
- Markaziy So'g'd shaharsozligi va madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish;
- Janubiy va G'arbiy So'g'dda shaharsozligi va madaniyat taraqqiyotini manbalar asosida tahlil qilish.

Ishning amaliy qiymati va ahamiyati quyidagilardan iborat:

- Markaziy Osiyoda ilk shaharsozlik va davlatchilik madaniyatining ildizlari yozma va arxeologik manbalar asosida tahlil qilindi;
- Qadimgi yozma manbalarda So'g'd haqidagi ma'lumotlarning aks etishi manbalar asosida tahlil qilindi;
- Qadimgi So'g'd hududida olib borilgan arxeologik izlanishlar tahlil qilindi;
- Markaziy So'g'd (Samarqand) madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilindi;
- Janubiy va G'arbiy So'g'dda madaniyat taraqqiyoti manbalar asosida tahlil qilindi.

Ishning aprobatsiyasi. Bitiruv malakaviy ish Qarshi davlat Universiteti Tarix fakulteti Jahon tarixi va arxeologiya kafedrasida qoshidagi "Yosh arxeolog" va "Yosh tarixchi" to'garaklarida hamda 2013-2014-o'quv yilidagi talabalarning "Fan taraqqiyoti va yoshlar" ilmiy-amaliy konferensiyasida maqola chop qilingan.

Ishning hajmi va strukturasi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat.

1. Markaziy Osiyo mintaqasida davlatchilik va shaharsozlikning paydo bo'lishida so'g'dlarning roli.

1.1. Qadimgi So'g'dlar haqidagi malumotlar yozma manbalarda.

Miloddan avvalgi IX - VIII asrlar O'rta Osiyo tarixida bronza davridan ilk temir asriga o'tish davri bo'lgan.

O'rta Osiyoning temir davri tarixini o'rganishda yozma manbalarning kamligi hamda to'liq emasligini e'tiborga olish lozim. Asosiy yozma manbalar ahamoniylar va yunon-rim davriga taalluqli bo'lib, ular O'rta Osiyo hududidan tashqarida tuzilgandir.

O'rta Osiyo va O'zbekistonning qadimiy viloyatlari jamiyati to'g'risida muhim yozma manbalar «Avesto», ahamoniylar davri yozma yodgorliklari va qadimgi yunon tarixshunoslari hikoya qiladilar.

«Avesto» ni eng qadimgi qismlarining barchasi bizning zamonamizgacha yetib kelmagan. Bu to'plam milodning III-VII asrlarida tahrir qilingan.

«Avesto» ning bizgacha yetib kelgan matnlari to'rt kitobni o'z ichiga oladi. Yasna (duolar yoki qurbonlik keltirish), Yashtlar (ma'budalar uchun madhiyalar), Videvdad (devlarga qarshi kurash), Visprat (barcha hukmdorlar). Bu kitoblar yozilgan tilni avesto tili deyiladi, chunki bu til «Avesto» tufayli ma'lum.

«Avesto» ko'p qatlamli, murakkab manba bo'lib, asrlar davomida shakllangan. Uning turli qismlarida Zaratushtra «zaotara» yoki «ataurvon», ya'ni koxin tarzida tilga olinadi. Zardushtiylik dini tarixi bo'yicha yetakchi mutaxassislar mazkur xolatga o'z e'tiborlarini qaratib, Zaratushtra bu dinning yagona asoschisidir, shuning bilan birga u ham koxin, ham payg'ambar edi, deb faraz qiladilar².

«Avesto» ma'lumotlarining tarixiy sanalari ko'p yillardan beri olimlar orasida tortishuvlarga sabab bo'lib kelmoqda. «Avesto»da ko'rsatilgan mamlakatlarning geografik o'rnini va chegaralarini aniqlash, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy tuzumini va «Avesto» tushunchalarini o'rganishga bag'ishlangan katta ilmiy adabiyot mavjud.

² Karimov Sh., Shamsutdinov R. Vatan tarixi. – T., 1997. B. 97-98.

«Avesto»ning eng qadimiy qismlari keng xududda joylashgan jamiyatni tasvirlab, bu jamiyat haqidagi yozuvsiz zamonlarga oid tasavvurlarni saqlaganlar. Bir qator tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, «Avesto» tili qadimda fors tilidan nisbatan ancha oldingi bosqichda paydo bo'lgan. O'rta Osiyo uchun «Avesto» ma'lumotlari arxeologik manbalar bilan solishtirilgan holda keng davriy chegara oralig'ida - bronza davridan tortib qadimgi dunyo - antik davrgacha bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy tarixni yoritishsa foydalaniladi.

Bunday yondashuv hamisha ham o'zini oqlayvermasada, yozma va arxeologik manbalarni bir-biriga solishtirish zaruratidan kelib chiqqan.

«Avesto» Zaratushtra (Zardusht) dinidagi xalqlarning shariat qonunlari majmuidir va zardushtiylik dinining muqaddas kitobidir. Zaratushtra (yunoncha Zoroastr) ismi bilan atalgan zardushtiylik (zaratushtrizm, zoroastrizm) O'rta Osiyoda islom dini joriy etilgandan oldin keng tarqalgan. «Avesto» O'rta Osiyo viloyatlarining qadimgi tarixi, ijtimoiy tuzumi, iqtisodiy hayoti va ma'naviy madaniyatini o'rganishda muhim manbadir.

O'rta Osiyoda Zaratushtra e'tiqodini birinchi bo'lib podsho Kavi Vishtasp qabul qilgan. Miloddan avvalgi VII-VI asrlarda O'rta Osiyo xududidagi xalqlar zardushtiylikka e'tikod qilgan. Shu davrdan boshlab yangi din milodiy VIII asrgacha O'rta Osiyoda diniy e'tiqod sifatida keng yoyildi.

«Avesto»ning qadimgi qismlari ahamoniyalar davridan oldinroq zamonlarga oid bo'lgan. «Avesto» ma'lumotlariga ko'ra, ushbu davr kabilalari birlashmasi viloyat - «daxsho» bo'lgan, urug' jamoasi - «vis», ayrim oilalar - «nmana»dan tashkil topgan, qabila esa «zantu» deb atalgan. Aholi kohinlar, jangchilar, dehqonlar va chorvadorlar toifasiga bo'lingan. «Avesto» to'g'risida chorvachilik va dehqonchilik hayotiga oid ma'lumotlar juda ham ko'p saqlangan³.

«Avesto»ning eng qadimgi hududiy geografik nomlari O'rta Osiyo viloyatlari bilan bog'langan (Yasht, 10 bob). Ro'yxatdagi birinchi mamlakat - «Arenam Vaychax» yoki «Aryoshayyona», «Arenam Vay-jo». U yurtda ko'pdan-ko'p yaylovlarga ega baland tog'lar, keng daryolar va chuqur ko'llar bo'lgan.

³ Karimov Sh., Shamsutdinov R. Vatan tarixi. – T., 1997. B. 99.

Yasht kitobida tilga olingan boshqa mamlakatlar - Iskata, Porutu, Mouru, Gava So'g'da (So'g'd makoni) va Xorazm.

«Avesto» Videvdat kitobining birinchi bobida sanab o'tilgan viloyatlar Yasht mamlakatlari ro'yxatidan ancha farq qiladi: Arenam Vayjo, Gava, Mouru, Baxdi, Nisayya, Aryo, Vaekereta, Urva, Xnanta, Xaytumant, Raga, Chaxro va Varna.

«Avesto»ning qadimgi geografik tushunchalari va manbada ko'rsatilgan mamlakatlarning ro'yxati asosida zardushtiylikning ilk vatani va Zaratushara tug'ilgan yurti haqida hikoya qilish mumkin. Olimlar o'rtasida «Avesto» vatani - Xorazm, zardushtiylikning yoyilish markazlari esa O'rta Osiyoning boshqa viloyatlari bilan bog'lanadi. Bu nazariyaning tarafdorlari «Avesto»ning yirik mamlakatlari Xorazm, Marg'iyona, So'g'd, Baqtriya O'rta Osiyoda joylashganligiga e'tibor beradilar. Shuning bilan birga Arenam Vayjoni ham bu keng o'lka deb tushunish mumkin. U yerda baland tog'lar - Pomir, Hisor, Tangritog', chuqur ko'llar - Kaspiy, Orol, Issiqko'l, Kesh daryolar - Amudaryo va Sirdaryo joylashgan deb faraz qilinadi⁴.

«Avesto» da keltirilgan qadimgi ma'lumotlar O'rta Osiyoda harbiy siyosiy birlashma tashkil topgan davrlarga (mil.avv. IX-VIII asrlar) mansubdir. Bu birlashma - Aryoshayyona yoki Arenam Vayjo, juda katta harbiy ahamiyatga ega bo'lgan. Shu davr aholisining bir qismi o'troq dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan, boshqa bir guruhi esa ko'chib yuradigan chorvachilik shakliga o'tgan. Ular o'rtasidagi siyosiy qarama-qarshiliklar, kurash va tinimsiz bosqinlar «xonadonlarga, qishloq, viloyat va mamlakatga qashshoqlik va vayronlik keltirdilar». «Avesto»da shu davr hukm surgan podsholar sulolasi - kaviylar («Shoxnoma»la - kayyoniyalar) ro'yxati quyidagicha: Xaosh'yonx («Shoxdoma»da - Xushang), Yima (Jamshid), S'yovarshon (Siyovush), Kavi Xaosrov (Kay-Xisrov), Kavi Vishtasp, Kavi Kavay (Kay-Qubot), Kavi Pian (Kaykovus), Kavi Pishin (Kay-Pishin), Kavi Arshan (Key-Aresh). Kavi Vishtaspdan boshlab so'ngilari Zaratushtra ta'limotining tarafdorlari bo'lgan.

⁴ Rtveladze E.V. O'zbekistonning tarixiy o'tmishi. – T., 2009. B. 23.

Kavi Xaosrav ariylar mamlakatlarini birlashtiruvchi podsho bo'lib, «tur» - chorvador qabilalarning yo'l boshchisi Frangrasyon («Shohnoma»da Afrosiyob) bilan jang qilgan. «Avesto»da yoritilgan qadimgi qabilalarning tillari bir-biriga yaqin edi, ularning etnik qiyofasida ham ancha o'xshashliklar mavjud bo'lgan. O'troq va ko'chmanchi kabilalar o'rtasidagi asosiy farqlar e'tiqod. Ma'naviy va moddiy madaniyati hamda ho'jaliklarida bo'lib, ularni bir-biridan ajratib turgan. «Avesto»ning Mouru, So'g'da, Baxdi, Xorazm aholisi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan, «tur» qabilalarining (va keyin sak-massaget kabilalarining) iqtisodiy hayotida chorvachilik ustunlik qilgan. O'rta Osiyoning dashtlari va tog'lari chorvachilik rivojlanishiga qulay sharoit yaratib bergan.

«Avesto»da tilga olingan kabilalarning dastlabki vatani Aryoshayyona (Arenam Vayjo) ham yaylovlarga serob yerlar bilan boy bo'lgan. Yasht kitobining o'ninchi bobida bunday xabar qilinadi: «U mamlakatning jasur sardorlari ko'pdan-ko'p harbiy yurishlar qiladi, u yerda o'tloqlar va suvga serob baland tog'lar chorvachilik hayotiga asos solgan». Shuning uchun ham Arenam Vayjo tangri Axuramazda ifodasi bilan yashash uchun eng yaxshi joy deb hisoblangan va «Avestoshing ro'yxatlarida bu o'lka birinchi navbatda tilga olinadi.

«Avesto»ning geografik tushunchalari qadimgi fors tilida yoritilgan ahamoniylar yozma manbalarida va qadimgi tarixshunoslar asarlarida takror etilgan. Miloddan avvalgi II ming yillikning oxiri va I ming yillikning boshlarida O'rta Osiyoda yashab o'tgan kabilalar yangi etnik jarayonlarga asos solib, shu xududda so'g'dlar, baqtriyaliklar, xorazmliklar, marg'iyonaliklar va sak-massagetlar paydo bo'lishlariga sababchi bo'lgan. Ushbu elatlarning tarixi o'zaro keng madaniy ta'sirlar va aloqalar asosida rivojlanib, bir-biriga yaqin bo'lgan.

Ahamoniylar mixsimon yozuvlari (miloddan avvalgi VI-IV asrlar) Behustun va Naqshi Rostam qoyatoshlari, Suza, Xamadan va Persepol shaharlarida toshib tekshirilgan. Ular qadimgi fors tilidagi turli ijtimoiy, siyosiy va diniy masalalarga doir podsho buyruqlaridan va nutqlaridan iborat. Ahamoniylar davri yozuvlarida O'rta Osiyo xalqlari va viloyatlari to'g'risida ayrim ma'lumotlar bor.

Miloddan avvalgi VI asrning ikkinchi yarmida (540-530-522 yillar

davomida) O'rta Osiyo viloyatlari ahamoniylar hukmronligi ostida tushib qoladi. Ular O'rta Osiyoda ikki yuz yilcha hukmronlik qilganlar. Erondaga qadimgi Persepol shahri saroyining devorlarida baqtriyaliklar, xorazmliklar, so'g'dlar va saklarning o'sib ishlangan bo'rtma rasmlari topilgan (Doro I va Kserks podsholar saroy devorlaridagi bo'rtma rasmlarida turli xalqlarning xiroj keltirish manzarasi tasvirlangan). Bu rasmlar O'rta Osiyoda yashagan xalqlarning o'ziga xos qurollari, kiyim-boshlari va qiyofasini ko'rsatib turadi. Persepol saroylari devorlariga solingan bo'rtma rasmda Xorazm, So'g'd, Baqtriya va saklar viloyatlaridan xiroj to'lovchilar shohga turli xil idishlar, kiyim-kechaklar, gazmollar, zeb-ziynatlar, harbiy qurollar yoki ot, tuya hamda qo'y olib kelayotganligi ko'satilgan.

Qadimgi yunon tarixchilari Gekatey, Gerodot va Ktesiy asarlari O'rta Osiyo xalqlarining tarixiy va geografik qiyofasini ko'rsatib beradi⁵.

Ko'chmanchi qabilalarni yunon tarixchilari skiflar va sarmatlar, saklar va massagetlar deb ataganlar. Ahamoniylar davri yozuvlarida esa ular «shak»-saklar deb yoritilgan va to'rt katta guruhga bo'lingan: saka-xaumovarka, saka-tigraxauda, saka-tiay-para so'g'dam va saka-tiay-darayyo.

Ahamoniy podsholariga tegishli bo'lgan eng muhim yozuvlar-Behustun yozuvlari bo'lib, ular Doro I buyrushga ko'ra, qoyaga o'yib yozilgan (bu g'oya Karmoy-Xamadon yo'lida joylashgan).

Nakshi Rustom, Suza, Xamadon yozuvlari hamda Doro I haykalidagi yozuvlar shu podshoh hukmronlik qilgan yillarga mansubdir. Bu yozuvlarning barchasi qadimgi fors, elom va akkad tillarida bitilgan. «Devlarga qarshi» Kserks davri yozuvlari (mil. avv. 486-465 i.) hamda Artakserks III (mil. avv. 359-358 i.) yozuvlari bir muncha keyingi davrga taalluqlidir. Shuningdek, Ur va Urukdan topilgan, akkad tilida bitilgan Kir II (mil. avv. 559-530 yy.) qisqa matnlari, Quddusdagi ibodatxonaning tiklanishi to'g'risidagi qadimgi yahudiy va oromiy tillarida bitilgan.

Qadimgi fors yozuvlari turli xildagi tarixiy tadqiqotlar uchun katta ahamiyatga ega bo'lib, bu sohada ko'plab tadqiqotchilar asarlari mavjud.

⁵ Qadimgi tarixchilar O'rta Osiyo haqida. – T., 2007. B. 14-15.

Soliq to'lovchilar viloyatlarning umumiy ro'yxatini hisobga olmagan holda (Doro I va Kserks hukmronligi davrlari) bu yozuvlar, asosan O'rta Osiyo o'lkalari to'g'risida juda ham kam ma'lumot beradi⁶.

Miloddan avvalgi V-IV asrlar O'rta Osiyo xalqlari tarixi, qadimga yunon tarixshunoslarining diqqat markazida tushib qolgan. Bu borada O'rta Osiyo xalqlari to'g'risida ma'lumotlar beruvchi Gerodotning «Tarix» kitobi ayniqsa qimmatlidir. Bu muhim va dunyoda mashhur asarda Gerodot Baqtriya, Baqtra, baqtriyaliklar, sak-massagetlar, so'g'dlar, xorazmliklarni tilga olib, ularni moddiy madaniyati, urf-odatlarini, dini va tarixi haqida hikoya qilgan.

Gerodotning O'rta Osiyo to'g'risida ma'lumotlari turli masalalar bilan birga bevosita yunon-fors urushlariga borib taqaladi. Forslarning sak-massagetlarga qarshi yurishlari hamda Akes-Amudaryo daryosining suvlaridan foydalanish to'g'risidagi manbalar bundan mustasnodir.

Boshqa bir yunon tarixshunosi Ktesiy Kichik Osiyodagi Knid shahridan bo'lib, miloddan avvalgi 414 yildan boshlab, ahamoniylar podshosi Artakserks II saroyida tabib vazifasini bajargan. Ktesiy qadimgi Sharq tarixi juda qiziqtirgan, shuning uchun ham u qadimgi viloyatlar va shaharlar to'g'risida ancha ma'lumotlar to'plagan. Ayniqsa yunon tarixshunosini Hindiston va Baqtriya qiziqtirgan. Shuning uchun ham Ktesiy o'zining «Persika» deb nomlangan asarining katga bir qismini baqtriyaliklar tarixiga bag'ishlagan.

Ktesiy Baqtriyaning shaharlari, uning mustahkam mudofaa devorlari bilan o'ralgan poytaxti haqida, shu shaharni qamal qilgan Ossuriya podshosi Nin to'g'risida hikoya qiladi: «...Nin baqtriyaliklarga qarshi harbiy yurish qilgan. U Baqtriyaning mustahkam qal'alari, adolisining ko'p sonligi va jasurligi haqida xabardor bo'lib, o'ziga bo'ysundirgan xalqlardan ko'p sonli qo'shinlarni yig'ib olgan. Ularga sardor bo'lib, Nin Baqtriya yurtiga bostirib kirgan, ammo viloyatdagi xilma-xil tor tog'-daralaridan o'tish uchun u o'z qo'shinlarini bir necha qismlarga bo'lishga majbur bo'lgan. Baqtriyadagi yirik shaharlar orasida, mashhur Baqtra nomli shahar bo'lgan. Bu shahar mamlakat poytaxti bo'lib, mustahkam

⁶ Rtveladze E.V. O'zbekistonning tarixiy o'tmishi. – T., 2009. B. 32-33.

mudofaa devorlari bilan o'ralgan, unda ichki qal'a - podsho saroyi alohida ajralib turgan».

Baqtraning ossuriyaliklar tomonidan qamal qilinishi to'g'risida yana bir yunon tarixshunosi Ksenofont ham ma'lumot beradi. O'rta Osiyoning boshqa shahar va manzilgohlari to'g'risida qadimga yunon mualliflari asarlarida ma'lumotlar uchramaydi. Mavjud shaharlar ularga noma'lum bo'lgan bo'lsa kerak.

«Avesto» ning eng qadimgi qismlari, ahamoniylar yozuvlari, Gerodot, Kteyesiy va Ksenofont asarlari O'rta Osiyo to'g'risidagi yozma manbalarning ilk turlari hisoblanib, o'lkamizdagi aholi, viloyatlar, alohida joylar va daryolar nomlarini, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tuzum to'g'risidagi ma'lumotlarni, ahamoniylar podsholarining O'rta Osiyoga yurishlari, qadimgi xalqlar turmushi, dini, madaniyati va boshqa yorituvchi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

O'rta Osiyo ilk temir davriga oid moddiy madaniyat yodgorliklariga nihoyatda boydir. O'lkada keng ko'lamda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida topib tekshirilgan qishloq va shahar harobalari qadimiy madaniy o'choqlar bo'lib hisoblanadi. Quyi Murg'ob, Zarafshon, Qashqadaryo va Surxondaryo vohalarida, Xorazm va Fargona vodiylarida ilk temir davriga oid juda ko'p yodgorliklar borligi ma'lum bo'ldi.

Eng qadimgi temir buyumlar O'rta Osiyodagi 22 ta yodgorliklardan topilgan bo'lib, ular asosan O'zbekiston, Turkmaniston va Tojikistonning janubidagi topilmalar - temir pichoq, o'roq, harbiy va ro'zg'or buyumlaridan iborat bo'lib, O'rta Osiyoda temirchilik kashf etilishi haqidagi tasavvurlarimizni ancha kengaytiradi.

Miloddan avvalgi I ming yillikning boshlariga oid yodgorliklaridan Janubiy Turkmanistonda Yoztepa, Arvalitepa, Uchtana, Surxondaryoda Kuchuktepa, Bandixon va Qiziltepa, Qashqadaryoda Sangirtepa, Uzunqir va Yerqo'rg'on, Zarafshon vohasida - Afrosiyob va Ko'ktepa, Farg'ona vodiysida Dalvarzin, Chust, Boztepa va boshqalar hisoblanadi⁷. Shu davrga oid hom g'ishtdan va

⁷ Rtveladze E.V. O'zbekistonning tarixiy o'tmishi. – T., 2009; Matboboev B.X. Qadimgi Farg'onada ilk davlatchilik ildizlari // O'zbekiston tarixi, 2002, 1-son. B. 3-11; Исамиддинов М.Х. Истоки городской культуры Самаркандского Согда. – Т., 2002; Сулейманов Р.Х. Древний Нахшаб. – Ташкент-Самарканд, 2000.

paxsadan qurilgan binolar, mehnat qurollari, xunarmandchilik buyumlari va boshqa topilmanar O'rta Osiyoda moddiy madaniyat yuksak darajada bo'lganligi haqida dalolat beradi.

Miloddan avvalgi VII-IV asrlarga mansub Baqtriya, Marg'iyona va So'g'diyona yerlarida toshib tekshirilgan arxeologik yodgorliklarning o'zi 350 ta dir, qadimgi Xorazm yerlarida 200 dan ortiq ilk temir davri qishloq va shahar xarobalari topib tekshirilgan. Ular sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullangan aholi madaniyatidan dalolat beradi.

Qadimgi ko'chmanchilar tarixini o'rganishda Quyi Sirdaryoda joylashgan Tagisken maqbaralariga e'tibor berish lozim (miloddan avvalgi IX-VII asrlar). Ular xom g'ishtdan bino qilingan to'rtburchak, xalqasimon maqbaralardir.

Saklarning yodgorliklari quyi Zarafshon, Amudaryo, Orol dengizi atrofida, Pomir va Tangritog' hududlaridan topilgan. Ular asosan mozor-qo'rg'onlardan iboratdir. Topilmalar orasida bronza va temirdan ishlangan harbiy qurollar, zebziynat buyumlari, mehnat qurollari va sopol idishlar uchraydi. Pomirdaga Okbeit Tomdi va Alichur, Farg'onadagi Dashti Asht, Quyi Sirdaryo Uygarak yodgorliklari qadimgi ko'chmanchilardan qolgan mozor-qo'rg'onlar yoki katta jamoa qabristonlaridir.

Moddiy madaniyat yodgorliklari O'rta Osiyoda hunarmandchilik, qurilish va me'morchilik qay darajada taraqqiy qilganligini, xo'jalik hayotining turli tomonlari, turmush va ijtimoiy munosabatlarini o'rganishga imkon beradi. Topilgan arxeologik yodgorliklar muhim tarixiy ahamiyatga ega. Moddiy madaniyat manbalari orasida mehnat qurollari (pichoq, o'roq, bolta), kulolchilik buyumlari va turli xil idishlar, yarog' aslahalar (qilich, o'q va nayza uchi, dubulg'a, xanjar) va boshqa buyumlarni ko'rsatib o'tish mumkin. Ilk temir davri moddiy manbalari ishlab chiqarish va iqtisodiy jarayonlarning rivojlanganligi to'g'risida aniq ravishda ma'lumot beradi.

O'rta Osiyo yodgorliklari (Afrosiyob, qadimgi Marv, Qiziltepa, Yerqo'rg'on, Uzunqir, Qo'zaliqir) da o'tkazilgan qazishlar natijasida topilgan moddiy manbalar marg'iyonaliklar, baqtriyaliklar, xorazmliklar va so'g'dlar

tarixini chuqur o'rganishga imkon berib, qo'shni mamlakatlarning xalqlari bilan o'zaro munosabatlarini aniqlash imkonini yaratadi.

Arxeologik qiziqishlar natajasida madaniy, iqtisodiy va harbiy jihatdan katta ahamiyatga ega bo'lgan eng qadimgi shaharlarning harobalari topildi. Savdo yo'llari yoqasida joylashgan Afrosiyob (Marokanda), Uzunqir, Ko'ktepa, Qiziltepa, Yerqal'a va boshqalar qalin mudofaa devorlari bilan o'ralgan bo'lib, shahar ichkarisidan turli qurilishlar topilgan.

Ahamoniylar davriga mansub "Amudaryo xazinasini" haqida ham alohida aytib o'tish kerak. Bu xazina 1877 yilda Janubiy Tojikistondagi Kubadiyon bekligi yerlarida topilgan (hozir Londondagi Britaniya muzeyida saqlanmoqda) va 180 ta zargarlik zeb-ziynat buyumlaridan iborat bo'lgan. Ular yuksak darajada ishlangan san'at buyumlaridir. Amudaryo xazinasida Eron va qadimgi Yunoniston shaharlarida zarb etilgan kumushdan va oltindan ishlangan tanga pullar ham bor.

Qadimgi yunon va rim mualliflari O'rta Osiyo viloyatlari (Baqtriya, So'g'diyona) chegaralari to'g'risida yozib ko'rsatganda, tarixshunoslar mahalliy elatlarning aralash joylashuvi vaziyatini hisobga olmaganlari kabi, turli viloyatlarning o'ziga xos geografik xususiyatlari hamda xalqlarning hududiy yoyilishi turlarini aniq belgilab berolmaganlar. Gerodot ma'lumotlarida «Baqtriya xalqi» tushunchasi ma'lum bir etnik birlikni birlashtirgan bo'lishi mumkin. Ammo bu birlik yagona etnos-xalqni birlashtirganmi yoki bir necha elatlarni birlashtirganmi, bu narsa noaniq.

O'rta Osiyoda eng qadimgi xalqlarning alohida shakllanishi va etnik xududlarning ajrala boshlash masalasi juda murakkab ilmiy muammo hisoblanadi. Buning sababi, yozma manbalarda qadimgi xalqlarning ajrala borish jarayoni aniq ko'rsatilmaganidir.

«Xalq» ma'nosini beruvchi «etnos» so'zi Gerodotning «Tarixi»da juda ko'p uchraydi (tadqiqotchilar hisobiga ko'ra, tarixchi bu so'zni 145 marta ishlatgan va faqat ikki joydagina bu so'z Baqtriyaga nisbatan ishlatiladi). Baqtriya, baqtriyaliklar (yoki So'g'diyona, so'g'diylar) nomlari yozma manbalarda bosqinchilarga (Kir II, Iskandar) qarshi turgan xalqlar yoki davlatning bir qismi

bo'lib nazarda tutilgan.

O'rta Osiyoda aholi joylashgan viloyatlarning nomlari turli davrlarga oid yozma manbalarda saqlanib qolgan. Biz ko'rib chiqayotgan hududlar yunon-rim mualliflari asarlarida Marg'iyona, Baqtriyona, Xorasmiya, So'g'diyona bo'lsa, shunga mos ravishda qadimgi fors yozuvlarida Marg'ush, Baqtrish, Xvarazmi, So'g'da «Avesto» ning eng qadimgi qismlarida tilga olingan Mouru, Baxdi, Xvarizam va So'g'dadir.

Qadimgi fors yozuvlarini o'rganish asosida O'rta Osiyoning siyosiy tarixi to'laroq tadqiq qilindi. Qadimgi fors yozuvlarida O'rta Osiyo o'lkalari satrapliklarining sanab o'tilishi, ularni ahamoniylar tomonidan bosib olinishi aniq ko'rsatib beriladi, lekin ushbu o'lkalarning chegaralari va tarixiy geografiyasi to'g'risida yetarli darajada ma'lumotlar yo'q.

Yozma manbalarda O'rta Osiyo viloyatlarining nomlarini keltirilishi ma'lum izchillikka ega bo'lsada, ularning tartib sanalari turlichadir:

Mamlakatlar	Yasht	Videvdat	Ahamoniylar yozuvlari		
			Behustun	Suza	Naqshi Rustam
Marg'iyona	3	3	Yo'q	Yo'q	Yo'q
Baqtriya	Yo'q	4	16	6	5
So'g'diyona	5	2	17	7	6
Xorazm	6	Yo'q	15	11	7

Ahamoniylar yozuvlarida (Gerodotning «Tarix» asarida ham) Marg'iyona mustaqil viloyat sifatida ajratilmagan. So'g'd esa shu manbalarda chekka viloyat sifatida ko'rsatiladi. «Avesto»ning Videvdat kitobidagi ro'yxatda Baqtriyaning So'g'ddan keyin tilga olinishi qadimgi fors yozuvlarida So'g'dning har doim Baqtriyadan so'ng sanab o'tilishi, ular orasida hududiy chegara bo'lgan bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Lekin, Gerodot, Ksenofont va Ktesiy bu vaqtga kelib, nafaqat O'rta Osiyodagi xalqlarning aniq joylashuvi, balki ularning umumiy

xududiy chegaralaridan ham bexabar bo'lgan bo'lsalar kerak⁸.

Makedoniyalik Aleksandrning yurishlari tarixiy geografiyaning dolzarb muammolarini hal qilishdasa asos bo'ldi. Manbalar shu nuqtai nazardan hozirgi tarixiy adabiyotlarda yetarli darajada yoritilgan.

Yunon davri yozma manbalarida, Marokandaga yurish qilayotgan Aleksandr qo'shinlari yo'lida Amudaryo Baqtriya va So'g'd o'rtasidagi chegara sifatida ko'rsatilgan. Oks-Amudaryodan shimolroqda so'g'diylar yerlarining joylashganligi to'g'risida dalillar uchramaydi. Strabon «Oke daryosi Baqtriya yerlarini So'g'diyonadan ajratadi» deb hisoblagan. Uning fikriga ko'ra, Baqtriya Areya chegarasi bo'ylab, shimol yo'nalishida Marg'iyona va So'g'diyona oralig'ida bo'lib, Oks-Amudaryodan janub tomonda joylashgan.

Bu manbalar ahamoniylar davri ma'lumotlari bilan to'g'ri keladi. Chunki bu yozuvlarda Baqtriya, So'g'd bilan Areya yoki So'g'd bilan Parfiya oralig'ida joylashgan deb ta'kidlanadi. Ammo qadimda fors manbalarida O'rta Osiyo viloyatlarining chegaralari haqida aniq ma'lumotlar yo'q.

Qadimgi yunon tarixshunosi Arrianning yozishiga ko'ra, Oks daryosidan o'tish bilan So'g'diyona yerlari boshlangan. Strabon ma'lumotlarida So'g'diyona chegaralari ancha keng bo'lib, muallif So'g'diyonani «Baqtriyadan yuqorida, sharqiy yo'nalishda» Oks va Yaksart oralig'iga joylashtiradi. U holda So'g'd tarkibiga Almudaryoning o'ng qirg'og'ida joylashgan, manbalarda tilga olinmagan va nomsiz qolayotgan Vaxsh, Kofirnixon va Surxon vodiylarini kiritish mumkin. Ammo ushbu daryolar vohalari tarixiy va geografik jihatdan Baqtriyaning tarkibida bo'lib, uning shimoliy qismida joylashganlar.

Qadimgi mualliflarning O'rta Osiyo janubidagi xalqlarning joylashuvi hamda tarixiy viloyatlarning hududiy chegaralari to'g'risidagi tasavvurlari bir muncha umumiy bo'lgan. Rimlik tarixchi Kursiy Rufning bitta gapi bunga misol bo'ladi: «Tanais (Sirdaryo) baqtriyaliklarni skiflardan ajratib turadi», yoki tarixchi yana shu narsani ta'kidlaydiki, baqtriyaliklar «urushqoq skif qabilalaridan ancha uzoq bo'lmagan joylarda yashaydi».

⁸ Eshov B. Qadimgi O'rta Osiyo shaharlari tarixi. – T., 2006. B. 36.

«Avesto»ning eng qadimgi qismlari So'g'diyonaga ta'rif berib, mamlakatni ikkita nomda ajratib ko'rsatadi – So'g'dda va Gava So'g'dda. Bu dalil So'g'dda «mamlakati» yana Gava singari alohida viloyatlarga bo'linishidan dalolat bermasmikan yoki Gava, So'g'ddaning eng qadimgi nomini tashkil etganmi?

«Avesto»ning mamlakatlar ro'yxatida birinchi navbatda tilga olinayotgan Aryoshayyona, Aryonam Vayjoni - bu keng hududda joylashgan o'lka deb tushunish mumkin. Videvdat kitobning maxsus bobida Arenam Vayjo Vanxvi Daiti daryosi atrofida joylashgan deb e'lon qilingan. «Qish u yerda o'n oy davom etadi, yoz ikki oy, qish oylarining suvlari sovuq, yerlari sovuq, o'simliklari sovuq, qishning oxirida u yerda katta toshqin suv paydo bo'ladi».

Vanxvi Daiti daryosi bizga noma'lum bo'lib, u haqida - bu yirik sersuv daryo deb faraz qilish mumkin. Aryonam Vayjo iqlimi baland torli viloyatlar tabiatiga yaqin bo'lib ko'rinadi. Ammo Arenam Vayjoning geografik chegaralari to'g'risida «Avesto»da aniq ma'lumotlar yo'q.

Xuddi shunday vaziyat O'rta Osiyo ko'chmanchi elatlarining tarixiy geografiyaini o'rganishda takrorlanadi. Gerodot massagetlarning hududiy joylashuvi haqida bunday yozadi: «Bu massagetlar jasur va behisob qabiladir. Ular sharqda, quyosh chiqishi yo'nalishida, Araks daryosining narigi yog'ida joylashganlar... Araks daryosi Marg'iyona tog'laridan boshlab oqadi». Araks - bu Amudaryo, Matiyona tog'lari Gerodotning tushunishicha, Pomir yoki Xindiqush tizmalaridir, chunki tarixchining aytishicha, Marg'iyona tog'laridan Hind daryosi ham boshlanadi.

Ahamoniylar yozuvlari saklarning yashash joylarini dengiz va daryolar bilan bog'laydi. Katta sersuv daryo yonida (Amudaryo) «cho'qqi qalpoq kiyib yurgan» ko'chmanchilar, «dengizdan narigi yog'dagi saklar» to'g'risida ham manbalarda ma'lumot bor.

So'nggi yillar ilmiy adabiyotlarida O'rta Osiyo qadimgi viloyatlarining hududiy chegaralari to'g'risidagi bahs-munozaralar yana jonlanib ketdi⁹.

⁹ Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. – T., 2001; Афрасиаб. Вып. 1. – Т., 1969; Афрасиаб. Вып. 2. – Т., 1973; Афрасиаб. Вып. 3. – Т., 1974; Афрасиаб. Вып. 4. – Т., 1975; Древнейшие государства Кавказа и Средней Азии // Отв. Ред. Г.А. Кошеленко. – М., 1985

Ayniqsa, Baqtriya va So'g'diyona chegaralari to'g'risidagi mavzu eng dolzarb masala bo'lib, bu muammoni hal qilish uchun olimlar maxsus tadqiqotlar olib boriimoqda.

Yunon-rim tarixchilari xududiy chegaralarni O'rta Osiyodagi yirik daryolar bo'yicha ko'rsatib berishlari an'anasiga aniq fikr bildirish mumkin. Bunday an'ana mahalliy aholining yashash yerlari va viloyatlarning chegaralari to'g'risida qadimgi tarixshunoslar aniq va to'la tasavvurga ega bo'lmaganlari haqida dalolat beradi. Shuning uchun ham yunon-rim tarixchilari hududiy chegaralarni daryolar bo'yicha ajratganlar.

Araks, Oks yoki Amudaryoni chegara sifatida ko'rsatganda, «daryo madaniy chegara» va «daryo ma'muriy yoki siyosiy chegara» sifatida ta'kidlash mumkin. Ba'zi bir olimlar fikricha, Amudaryo ko'p hollarda hududiy-siyosiy chegara vazifasini bajargan bo'lsada, viloyatlar o'rtasida hech qachon madaniy chegara bo'lmagan. Bu fikr bilan to'la qo'shilib bo'lmaydi, chunki turli davrlarda, ahamoniylar davri yoki antik davrda Amudaryo davlatlar o'rtasidagi chegara vazifasini bajarmagan.

Qadimgi zamonlarda Amudaryo bo'yidagi zamonaviy Karki shahri atrofidan boshlab hech kim yashamaydigan yoki juda kam aholi yashaydigan «hech kimga qarashli» bo'lmagan bepoyon dashtlar va cho'llar boshlangan. Bunday «chegaralar» - xududlar yuzlab kilometrlarga cho'zilgan. Shuning uchun ham bu yerlar yozma manbalarda bevosita so'g'diylarga qarashli deb ko'rsatilgan.

So'g'diyona hududi ahamoniylar davrida va bundan qadimroq zamonlarda Amudaryodan o'tish bilan boshlanmagan, chunki Qashqadaryo vohasida topib tekshirilgan o'troq so'g'diy aholining qishloq xarobalari Amudaryodan ancha olis masofada joylashgan. Shuning uchun ham So'g'diyona bilan Baqtriya o'rtasidagi xududiy chegaralar Amudaryodan (ayniqsa, hozirgi Termizdan Karkigacha bo'lgan yerlarda) o'tmagan bo'lishi kerak.

O'troq aholi yashovchi viloyatlar o'rtasida chegara vazifasini tabiiy geografik omil sifatida cho'llar va tog'lar bajargan. Ko'p xollarda cho'l va tog'lar etnik chegaralarda aralash joylashuv yerlarga aylanib qolganligi tasodif bo'lmasa

kerak. Hisor, Boysun va Ko'hi tog' tizmalari Baqtriya va So'g'd o'rtasidagi tabiiy chegara bo'lgan.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, qadimgi Xorazm hududi o'rta Amudaryo oqimidan boshlab Orol dengizigacha yerlarni o'z ichiga olgan, Baqtriya yerlari - bu Afg'onistonning shimoli-sharqi (Balxob, Qunduz, Panj, Badaxshon vohalari), Janubiy Tojikiston (Kofirnihon, Vaxsh, Panj vohalari), Surxondaryo viloyati.

Baqtriyaning hududiy chegaralari: janubda - Hindiqush tizmasi, shimolda - Hisor tog'lari, sharqda - Pomir, g'arbda - Amudaryoning o'rta oqimi hisoblanadi. «Baqtriya» nomi Baqtra daryosidan olingan (hozirgi Balxob).

So'g'diyona - hozirgi Qashqadaryo va Zarafshon vohalaridir. So'g'diyonaning geografik chegaralari: g'arbda Buxoro vohasidan sharqda Hisor tog'lari bo'ylab, janubda Qashqadaryo va Ko'xitog' oraligida, shimolda esa Nurota tizmalariga borib taqalgan.

Marg'iyona - Turkmaniston janubidaga Murg'ob vohasi, Parfiya – Turkmanistonning janubi-g'arbi, Eronning shimoli-sharqi. O'rta Osiyo o'troq viloyatlarining qo'shni yerlarida ko'chmanchi sak-massagetlar qabilalari yashagan (Pomir, Tang'ritog', Janubiy Qozog'iston, Toshkent, Sirdaryo viloyati, Quyi Zarafshon, Quyi Amudaryo va Sirdaryo, Orol dengizi atroflari)¹⁰.

¹⁰ Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi. – T., 2001; Древнейшие государства Кавказа и Средней Азии // Отв. Ред. Г.А. Кошеленко. – М., 1985; Rtveldaze E.V. O'zbekistonning tarixiy o'tmishi. – T., 2009.

1.2. Qadimgi So'g'dlar haqidagi ma'lumotlar arxeologik manbalarda

Qadimgi So'g'd hududida katta-kichik shaharlar, qo'rg'onlar ko'p bo'lgan. Ularning har birining o'z husn-tarovati, go'zalligi, jozibasi bo'lgan. Ular orasida eng qadimiysi Samarqand shahri bo'lib, bu shaharning nomi tilga olinganda ko'z o'ngimizda doimo uning o'tmishi, buguni va kelajagini ifodalaydigan osori-atiqalari namoyon bo'ladi. Tarixchilarning fikricha, Samarqand shahar sifatida juda erta mashhur bo'lgan. Bunga sabab, avvalo uning sahovatli tabiati, dunyoning to'rt tarafini bog'lab turgan savdo yo'llari kesishgan chorrahada joylashganligi, aholisining tadbirkorligi, hunarmandchilik va savdoda tengi yo'qligi va afsonalarga aylanib ketgan boyligi bo'lgan.

Boy tarixi, betakror ma'naviyati va ma'rifati, madaniyati bilan dunyo ahli diqqatini o'ziga tortgan Samarqand – jahonning eng qadimiy shaharlarining oldingi qatorlaridadir. Olimlar uni qadimda Rim, Vavilon, Afina va dunyoning boshqa shu kabi ko'hna shaharlari bilan teng yoshda, deb hisoblaydilar. Yevropa sivilizatsiyasining shakllanishida Rim qanday rol o'ynagan bo'lsa, Markaziy Osiyo tamaddunida, ma'naviyat va ma'rifat tarixida Samarqand shunday yuksak o'rin tutadi. Shu bois o'rta asrlardan Sharqda ommalashib ketgan maqollardan birida “G'arbda Rim, Sharqda Samarqand” deyiladi. Samarqand va Rim insoniyat taqdiridagi buyuk xizmatlarini nazarda tutib “Boqiy shaharlar” nomini olganlar. Xalq iborasi “Samarqand sayqali ro'yi zaminast” (Samarqand er yuzining sayqali) behuda aytilmagan¹¹.

“Samarqand” so'zining kelib chiqishi to'g'risida bir qancha taxmin va gipotezalar mavjud. Haqiqatga yaqinrog'i esa Marokanda - Samarqandning yunoncha nomi. Aslida Samarqandning qadimiy nomi So'g'd yozma manbalarida “Smarakansa” (Smarakansa) bo'lib, uni yunon tarixchilari Marokanda deb yunonchaga ag'darib olganlar. Samarqandning Marokanda nomi XVII asrdan so'ng Yevropa tarixchilarining asarlari orqali kirib kelgan. Yunon mualliflari Arrian, Strabon va Kvint Kursiy Ruflarning ma'lumotlariga ko'ra, miloddan avvalgi 329 yilda Aleksandr Makedonskiy qo'shinlari Hindikushdan oshib o'tib, Marokandani

¹¹ Самарканд 2750. – Т., 2007.

zabt etib, vayron qilgan.

Kvint Kursiy Ruf jumladan, bunday yozadi: “Tog'li qabiladan shikast egan Iskandar to'rtinchi kuni Marokand (Samarqand) shahriga etdi. Shahar devori etmish stadiy uzunlikda bo'lib, Shahriston (ichki qal'a) boshqa devor bilan o'ralgan edi. U shahar mudofaasi uchun ming nafar jangchini qoldirib, atrof-tevarakdagi qishloqlarga hujum qildi: ularni taladi va yondirdi. So'ng u Tanais daryosi sari yurdi va to'rt kun o'tib Marokandga qaytdi... U go'zal shahar bo'lib, atrofdan aylanib oqadigan daryo tufayli yaxshi muhofaza etilgan edi...” Diadorning yozishicha, Iskandar 120 ming so'g'diyonalikni qatl etgan. Bu yerda behisob boylik to'plab, yurtiga jo'natib turgan. Masalan, bir galgi talangan boylikni yuklash uchun o'n ming juft qo'tos va uch ming tuya kerak bo'lgan. So'g'diylar ibodatxonasidan bir olishda 50 ming talant tillani qo'lga kiritgan...

Marokanda miloddan avvalgi VIII asrdan to milodning IX asrigacha so'g'diycha Smarakansa, so'ng forsiycha Samarqand, IX asrdan turkiycha Semizkent nomi bilan manbalarda uchraydi. Keyinroq Samarqand nomi shaharning mutloq nomiga aylandi. Uning Afrosiyob nomi esa shaharning qadimiy Qal'ai Hisor – Ko'hna qal'a qismiga nisbatan XVII asrdan boshlab mahalliy aholi tomonidan ishlatila boshlangan.

Samarqandni arxeologik jihatdan o'rganish ishlari XIX asrning oxirlarida boshlangan. 1895 yilda sharqshunos olim V.V.Bartoldning tashabbusi bilan tuzilgan “Turkiston arxeologiya havaskorlari to'garagi” a'zolari Samarqanddagi Afrosiyobni ko'p asrlar xazinasi deb qarab, unda keng ko'lamdagi arxeologik qazilma ishlarini olib bordilar. V.L.Vyatkin, N.I.Veselovskiylar o'tkazgan arxeologik qazilmalar natijasida turli holdagi qadimiy buyumlar topilib, muzeyga berildi. 1908 yilda V.L.Vyatkin Samarqand chekkasida joylashgan Ulug'bek rasadxonasining o'rnini aniqladi va qazish ishlarini o'tkazdi. Natijada rasadxona xarobasi hamda uning er ostidagi butun qolgan qismi qazib ochildi¹².

Ikkinchi jahon urushidan keyin O'zbekiston FA ning Tarix va arxeologiya instituti olimlaridan A.I. Teryonjkin tomonidan Afrosiyobda jiddiy dala tadqiqot-

¹² Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi. – T., 2001; Афрасиаб. Вып. 1. – Т., 1969; Афрасиаб. Вып. 2. – Т., 1973; Афрасиаб. Вып. 3. – Т., 1974; Афрасиаб. Вып. 4. – Т., 1975.

lari o'tkazildi. Natijada uning eng pastki qatlamidan miloddan avvalgi VI-V asrlarga taalluqli buyumlar, uy-joy xarobalari topildi. V.A.Shishkin va Ya.G'. G'ulomovlar rahbarligida olib borilgan keng ko'lamli arxeologik qazishlar natijasida qadimiy madaniy qatlam material- lari Afrosiyobning boshqa joylaridan ham topildi. 1966 yil 13 iyulda Afrosiyobni arxeologik jihatdan kompleks o'rganishni tashkil etish maqsadida Respublika hukumatining maxsus qarori qabul qilindi. Unga ko'ra, Afrosiyob "arxeologik qo'riqxonasi" deb e'lon qilinib, uni o'rganish ishiga Toshkent (hozirgi O'zMU) va Samarqand davlat universitetlari hamda San'atshunoslik instituti ham safarbar etildi. Aniq ilmiy rejalar asosida boshlangan arxeologik tadqiqotlar tufayli nafaqat shaharning ko'p asrlik yoshi, balki uning turli davrlardagi tarixiy topografiyasi, shahar tarkibi, shahar hayotining rivojlanish bosqichlari, bosqinlar tufayli yuz bergan bo'ronlar davri aniqlandi. Samarqand ixshidlarining shohona saroyi ochildi.

1970 yilda Samarqandda O'zbekiston FAning mustaqil Arxeologiya instituti tashkil etildi. Arxeologik qazishmalar natijasida Samarqandning yoshi aniqlandi va 1970 yilda shaharning 2500 yillik yubileyi keng nishonlandi.

Mustaqillik yillarida arxeologik qazish va ilmiy tadqiqot ishlarining samaradorligini oshirish maqsadida fransiyalik akademik, sharqshunos arxeologlar Pol Bernar va Frans Grene, o'zbek arxeolog olimlari professor M.Isomiddinov, A.Anorboyev va tadqiqotchi A.Otaxo'jaevlar bilan hamkorlikda ishladilar. Natijada, Afrosiyobdagi eng quyi madaniy qatlamlarni o'rganish jarayonida ersathidan 10-15 m. chuqurlikda miloddan avvalgi IX-VII asr o'rtalariga oid ashyolar topildi. Bular qo'lda yasab rangli naqsh berilgan sopol idishlarning parchalari, 7 metr qalinlikdagi guvaladan tiklangan mudofaa devori qoldiqlari va boshqalar. Topilgan ushbu namunalar Fransiyada radiokarbon tadqiqot usulida o'rganildi va ular miloddan avvalgi VIII asrga, ya'ni 2750 yoshga taalluqliligi isbotlandi¹³.

Qashqadaryo vohasi uzoq o'tmishga ega. Arxeologlar tomonidan olib borilgan izlanishlar natijasida tosh davriga oid makonlar topilgan. XX asrning 50-yillaridayoq vohada qadimgi odamlar yashaganligi V.Lev va S.K. Kabanov

¹³ Исамиддинов М.Х. Истоки городской культуры Самаркандского Согда. – Т., 2002.

tomonidan taxmin etilgan edi. 2001-2004 yillarda professor R.H. Sulaymonov boshchiligidagi O'zMU arxeologiya kafedrası va Kolorado Universiteti Antropologiya Departamenti (AQSh) a'zolari tomonidan Kitob tumani tog'li va tog' oldi hududlaridagi kuzatuv ishlari jarayonida paleolit davrining muste bosqichiga taalluqli Oyoqchisoy vohsida joylashgan Angillak, Quruqsoy vohasida joylashgan Qorakamar g'orlari va ibtidoiy surat aks etgan Siypantosh yodgorligi topildi. Angillak va Qorakamar g'orlaridagi qazuv ishlarida topilgan tosh qurollarining ishlov berish texnologiyasi qo'shni Samarqand viloyatida joylashgan Omonqo'tondagi tosh qurollariga o'xshash hamda olimlarning fikriga ko'ra xom ashyo ham o'sha yerdan olib kelingan bo'lishi mumkin.

Mezolit va bronza davrlari oralig'ida chizilgan Siypantoshdagi suratlar asosan markazda buqa tasviri va turli geometrik shakllardan iborat.

So'nggi eneolit va bronza davriga oid yodgorliklar asosan Poykent majmuasi (Buxoro bilan chegradosh hududlarda, Qashqadaryoning qurib qolgan o'zanlarida XX asrning 60-yillarida Ya.G'ulomov rahbarligidagi Mohandaryo arxeologik ekspedisiyasi tomonidan topilgan) va To'rtko'ltepa (Yuqori Qashqadaryo, M.Isomiddinov) topib o'rganilgan.

Ilk temir davrida urbanizasiya jarayoni kuchayib, So'g'dning janubiy qismi hisoblangan Qashqadaryo vohasida ham ilk shaharsozlik madaniyati vujudga keladi. Buni Podayotoqtepa, Sangirtepa, Uzunqir va Yerqo'rg'on misolida ko'rish mumkin. Podayotoqtepa, Sangirtepa va Uzunqir yodgorliklari XX asrning 80-yillaridan boshlab hozirgi O'zMU arxeologiya kafedrası bazasida tashkil etilgan Kesh arxeologik-topografik ekspedisiyasining A.Sagdullayev boshchiligidagi otryad tomonidan o'rganila boshlangan.

XX asrning 20-yillaridan turli tadqiqotchilar nazariga tusha boshlagan Yerqo'rg'on yodgorligida tadqiqot ishlari asosan Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda S.K. Kabanov va M.Y. Massonlar tomonidan olib borilgan bo'lsa, 1973 yildan O'zR FA Arxeologiya institutining R.H.Sulaymonov rahbarligi ostida tuzilgan Qashqadaryo ekspedisiyasi tomonidan deyarli 30 yil davomida o'rganildi. Natijada vohada shaharsozlik madaniyati bundan 2700 yil avval paydo bo'lganligi

aniqlandi¹⁴.

Buxoro – butun Sharqning ma'naviy va diniy markazi sifatida ming yillardan buyon dunyoga mashhur qadimiy shaharlardan biridir. O'tmishda savdo-sotiq va madaniy markaz sifatida Turon – Turkistonda Balx, Hirot, Marv (Mari), Samarqand, Termiz, Nasaf (Qarshi), Choch-Shosh (Toshkent) va Xorazm-Xiva va Urganch kabi shaharlar orasida o'z o'rniga ega.

Ilk o'rta asrlar Xitoy manbalarida turlicha (An, Ansi, Ango, Buxo, Buku, Buxe, Buxaer, Buxuaer, Buxala, Buxuala, Fuxo, Puxuala va b.) atalgan. Bu atamalarning avvalgi uchitasi Buxoroning xitoycha nomlari bo'lib, qolgani “Buxoro” so'zining xitoy tilidagi talaffuzidir. O'rta asr arab manbalarida esa Buxoro Numijkat, Navmichkat, Bumichkat (Yangi qo'rg'on), al-Madina as-sufriyya (Mis shahar), Madinat at-tujjor (Savdogarlar shahri), Foxira (Faxrli shahar), kabi nomlar bilan tilga olingan. Buxoro atamasi sanskritcha “vixara” so'zining turkmo'g'ulcha shakli – “buxor” (“ibodatxona”) dan kelib chiqqan deb taxmin qilinadi. Keyingi tadqiqotlar natijalariga ko'ra bu atama so'g'diycha “bug” yoki “bag” (“tangri”) hamda oro (“jamol”) so'zlaridan iborat bo'lib, “tangri jamoli” degan ma'noni bildiradi, degan fikr ilgari surilmoqda. O'rta asrlarda Buxoro Movarounnahrdagi yirik savdo, hunarmandchilik va ma'muriy markazlaridan bo'lgan. Aynan shu shahardan Yaqin va O'rta Sharqni Hindiston va Xitoy bilan bog'lovchi xalqaro karvon yo'li o'tgan¹⁵.

Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov e'tirof etganidek: “Bizning qadimiy va go'zal diyorimiz nafaqat Sharq, balki jahon sivilizasiyasi beshiklaridan biri bo'lganini xalqaro jamoatchilik tan olmoqda va e'tirof etmoqda...

Bu ko'hna tuproqda milodgacha bo'lgan davrda va undan keyin qurilgan murakkab suv inshootlari, hali-hanuz o'zining ko'rku tarovatini saqlab kelayotgan osori atiqalarimiz qadim-qadimdan o'lkamizda dehqonchilik va hunarmandchilik madaniyati, me'morchilik va shaharsozlik san'ati yuksak darajada rivojlanganidan

¹⁴ Исамиддинов М.Х., Сулейманов Р.Х. Еркурган (стратиграфия и периодизация). – Т., 1984; Кабанов С.К. Нахшаб на рубеже древности и средневековья. – Т., 1977; Кабанов С.К. Культура сельских поселений Южного Согда III-VI вв. – Т., 1981; Массон М.Е. Столичные города в области низовьев Кашкадарьи с древнейших времен. – Т., 1973.

¹⁵ Muhammadjonov A. Qadimgi Buxoro. – Т., 2002.

dalolat beradi”¹⁶.

Buxoro vohasini arxeologik jihatdan o'rganish XX asrning 30-yillaridan boshlagan. Uni turli yillarda yirik arxeolog olimlar o'rganishgan: Ya.G'. G'ulomov, A.R. Muhammadjonov, V.A. Shishkin, V.A. Nilsen, A.A. Asqarov, O'.Islomov, M.R. Qosimov, M.Bulatova, X.Muhammedov, R.H. Suleymanov, I.Axrоров, T.Mirsoatov, O.V. Obelchenko, S.K. Kabanov, G.V. Shishkina, J.K. Mirzaahmedov, N.B. Nemseva, Sh.Odilov va boshqalar. Buxoro va uning atrofida olib borilgan ko'p yillik arxeologik tadqiqotlar natijasida vohaning qadimgi tosh, bronza davriga o'z yodgorliklar tadqiq etilib, bu erda yashagan aholining o'troqlashishi, chorvachilik va dehqonchilik xo'jaligining tarkib topishi, katta va kichik shaharlarning paydo bo'lishi, shuningdek Zarafshon daryosining quyi oqimida shaharsozlik va davlatchilik tarixi bilan bog'liq urbanizatsiya jarayonining rivojlanishiga doir ko'plab ma'lumotlar to'plandi.

Buxoro vohasida mil. avv. birinchi ming yillikda sun'iy sug'orish tarmoqlari v mustahkamlangan qishloq manzilgohlari vujudga kela boshlagan. Zarafshon daryosining qadimgi tarmog'i – Shohrud bo'ylaridagi dastlabki qishloqlarning, jumladan hozirgi Buxoro o'rnida bo'lgan qishloqning barpo bo'lishi aynan shu davrga to'g'ri keladi.

XX asrning 70-yillarida Buxoroning eski shahar qismida olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida Buxoroni arxeologik jihatdan o'rganish tarixida birinchi marta materik qatlama qadar etib borishga va madaniy qatlamlanish chuqurligi 20 m dan ortiq ekanligini aniqlashga muvaffaq bo'lindi. Mir Arab madrasasi yaqinida olib borilgan qazuv ishlari jarayonida materik qatlam ustida to'q jigarrang torf qatlami (40-70 sm) borligi, uning ichida esa yovvoyi va xonaki hayvonlar suyaklari qoldiqlari hamda sopol idish va buyumlar parchalari ko'p ekanligi aniq bo'ldi. Torf qatlami madrasa tomon tobora qalinlashib borib, bino ostiga kelganda qalinligi 7,5 m ga etgan. Bu esa qadimda Buxoro hududidan Zarafshon daryosi tarmoqlaridan biri – ilk o'rta asr manbalarida qayd etilgan “Rudizar” (“Oltin irmoq”) ning o'tganligini tasdiqlaydi. Arxeologik tadqiqotlar

¹⁶ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – T., 2008. – B. 30.

keyinchalik qurib qolgan mazkur tarmoqning haar ikki qirg'og'i bo'ylab bir qancha mustahkamlangan qishloqlarning vujudga kelgani va ular Buxoroning eng qadimgi shahar o'zagini tashkil qilganini tasdiqlaydi. Shahar o'zagi 3 qism – “Oltin irmoq” ning o'ng qirg'og'ida joylashgan ark, ya'ni qal'a hamda uning o'ng va so'l qirg'oqlaridagi qishloqlaridan iborat bo'lgan. Bu erdan topilgan ko'plab ashyoviy dalillar, xususan sopol idishlar va buyumlar Buxoro tarixning turli davrlari (mil. avv. 1-ming yillikning 3-choragidan XX asr boshlariga qadar) ga oid bo'lib, ulardan ikkitasi mil. avv. V asrga taalluqli ekanligi aniqlandi.

XX asrning 80-90-yillarida shaharning tarixini aniqlash borsida keng ko'lmli arxeologik tadqiqot ishlari yirik yodgorliklarda – Poykend, Qo'rhoni Vardonze, Romitan, Varaxsha, Xoja Bo'ston, Qo'zimontepa, Oqsochtepa va boshqa shahar xarobalarida olib borildi. Natijada 1997 yilning oktyabr oyida Buxoro shahrining 2500 yilligi keng nishonlandi¹⁷.

Mustaqillik yillarida ham Buxoroda arxeologik tadqiqot ishlari davom ettirilib, bugungi kunda asosan o'zbek arxeologlari Davlat Ermitaji arxeologlari bilan birga qazuv ishlarini olib borishmoqdaki, voha tarixiga oid juda qiziqarli ma'lumotlar topilib, keng jamoatchilikka yetkazilmoqda.

¹⁷ Muhammadjonov A.R. Qadimgi Buxoro. – T., 1990; Temur va temuriylar saltanati. – T., 1994; Беленицкий А.М., Бентович И.Б., Большаков О.Б. Средневековый город Средней Азии. – Л., 1973; История Бухары. – Т., 1976; Булатова М. Мавзолей Саманидов - жемчужина архитектуры Средней Азии. – Т., 1978; Культура древнебухарского оазиса III-VI вв. н.э. – Т., Фан, 1983; Пугаченкова Г.А. Шедевры Средней Азии. – М., 1989; Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Очерки искусства Средней Азии. Т., 1989; Аскарлов А., Ширинов Т. Ранняя городская культура эпохи бронзы Средней Азии. – Самарканд, 1993; Бухара – жемчужина Востока. – Т., 1997.

2. So'g'dlar madaniyatini o'rganishda shaharsozlikning o'rni.

2.1. Markaziy So'g'd shaharlarining o'ziga xos xususiyatlari

Tarixiy-huququy va arxeologik tadqiqotlar sug'orma ziroatchilik, metallurgiya, hunarmandchilik, dastlab ayirboshlash, so'ngra pul, quyma shaklidagi savdoda o'z aksini topgan yetarlicha rivojlangan iqtisodiyot paydo bo'lganda, tegishli ijtimoiy guruhlar va sinflar ajralib chiqqan holda mulkiy tabaqalashuv yuzaga kelganda, monarx boshchiligida jamiyatning murakkab iyerarxiyasi, meros qilib qoldirish huquqi qaror topgach va davlatni boshqarish uchun har xil huquqiy hujjatlar tuzishga ko'maklashuvchi yozuv paydo bo'lgachgina davlatchilikning birlamchi shakllari paydo bo'lishi to'g'risida so'z yuritish mumkinligini ko'rsatadi.

Quyi Mesopotamiya (Shumer va Akkad), Misr va Sharqiy O'rta dengizning miloddan avvalgi IV mingyillik oxiri - miloddan avvalgi IV mingyillik boshlarida paydo bo'lgan eng ilk davlat tuzilmalarini tavsiflovchi uncha to'liq bo'lmagan asosiy belgilar mana shulardan iborat¹⁸.

Eng qadimgi shahar davlat birlashmalarining birlamchi namunalari hisoblanadi. Egallab turgan xududiga ko'ra juda oz joyga joylashgan shahar-davlatlar ho'jalik, siyosiy va diniy markazlar hisoblangan. Masalan: Quyi Mesopotamiyada atigi 1000 kv.km maydonda bir nechta shahar-davlatlar: Uruk, Larsa, Lagash, Ur joylashgan. Uruk bilan Lagash o'rtasidagi masofa atigi 24 kilometrni tashkil etgan. Keyinchalik bosqinchilik urushlari natijasida ushbu shahar-davlatlarning despotik hokimiyat tizimi o'rnatilgan, bir necha yuz kv.kilometrga yoyilgan yagona, nisbatan katta podshohliklarga birlashtirilishi yuz bergan. Ushbu ilk podshohliklar so'ngra qo'shni podshohliklarning zo'rlik bilan bosib olishi natijasida juda katta hududni egallagan monarhiyalarga aylangan.

Davlat taraqqiyoti mantig'i va muayyan sharoitlar ularning ba'zilarini bir necha qit'alar hududiga yoyilgan ulkan jahon imperiyalarga aylantirgan. Buning

¹⁸ Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi. – T., 2001; Афрасиаб. Вып. 1. – Т., 1969; Афрасиаб. Вып. 2. – Т., 1973; Афрасиаб. Вып. 3. – Т., 1974; Афрасиаб. Вып. 4. – Т., 1975; Бёрнс А. Путешествие в Бухару. – М., 1850; Древнейшие государства Кавказа и Средней Азии // Отв. Ред. Г.А. Кошеленко. – М., 1985;

yorqin misoli Ahamoniylar imperiyasidir. Ushbu imperiya tarkibiga Osiyo, Yevropa va Afrika mamlakatlari kirgan. Yaqin va O'rta Sharqda kelib chiqqan davlat birlashmalari evolyusiyasining asosiy yo'li mana shundan iborat.

O'rta Osiyodagi ikki dars oralig'idagi davlat birlashmalari genezisi va evolyusiyasi jarayoni garchi muayyan tarixiy sabablarga ko'ra yuqorida aytib o'tilgan hududlar ayni bir davlatlar tarkibiga kirgan bo'lsa ham (Ahamoniylar imperiyasi, Salavkiylar podsholigi) ulardan farq qiladi.

O'rta Osiyodagi ikki daryo oralig'i - alohida tarixiy-geografik va tarixiy-madaniy xududdir, uning sivilizatsiyasi ikki buyuk daryo: Amudaryo (qadimgi Oks) va Sirdaryo (qadimgi Yaksart) tufayli ko'plab ming yilliklar mobaynida mavjud bo'ldi. Bu joyda yuzaga kelgan davlatlar qadimgi davrlarda ham, o'rta asrlarda ham umumiy belgilar bo'lishiga qaramay, o'rta Osiyoning boshqa qismlaridagi davlatlardan ko'plab belgilariga ko'ra ajralib turgan O'rta Osiyodagi ikki daryo oralig'i hududi doirasining o'zida shimoliy viloyatlar (Xorazm) va janubiy viloyatlar (Baqtriya) ayniqsa qadimgi davrlarda etnik va madaniy, til va yozuv, davlat qurilishi tizimi jihatidan bir-biridan farq qilgan. Bu har bir viloyatga xos bo'lgan madaniy-genetik tiplar, darajasi har bir viloyatda turlicha bo'lgan o'troq va ko'chmanchi xalqlarning rag'batlashuvi bilan belgilangan.

Butun qadimgi davr mobaynida O'rta Osiyodagi ikki daryo oralig'ida davlat birlashmalarining har xil tiplari mavjud bo'lgan.

Genetik belgisiga ko'ra ular orasida avtohton, ya'ni maxalliy substrat asosida paydo bo'lgan va izchil rivojlangan davlat birlashmalari (Qang', Xorazm) va yot, ya'ni O'rta Osiyodagi ikki daryo oralig'i to'g'idan-to'g'ri harbiy bosqin natijasida tarkibiga kiritilgan va keyinchalik bo'ysundirilgan davlatlar (Ahamoniylar imperiyasi, Baqtriyaning Yunon davlati) ajralib turadi¹⁹.

Ushbu o'rinda mustahkam va uzoq vaqt o'rnashib qolgan va muayyan darajada substrat aholi bilan aralashib ketgan kelgindi bosqinchilar simbiozi natijasida paydo bo'lgan davlat birlashmalarini ajratib ko'rsatish mumkin. O'rta

¹⁹ Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. – T., 2001; Афрасиаб. Вып. 1. – Т., 1969; Афрасиаб. Вып. 2. – Т., 1973; Афрасиаб. Вып. 3. – Т., 1974; Афрасиаб. Вып. 4. – Т., 1975; Бёрнс А. Путешествие в Бухару. – М., 1850; Древнейшие государства Кавказа и Средней Азии // Отв. Ред. Г.А. Кошеленко. – М., 1985; Исамиддинов М.Х. Истоки городской культуры Самаркандского Согда. – Т., 2002.

Osiyodan chiqqan yuechjilar tomonidan milodiy II asr oxirida - milodiy I asr boshida So'g'd va Shimoliy Baqtriyada barpo etilgan davlat birlashmalari mana shunday aralash tipdagi davlatlarga tegishlidir. «Shimoliy qasrlar - Beyshilar tarixi (VII asr)»ga muvofiq Buxoro va Samarqand So'g'di bilan aynan deb qaraladigan An hukmdorlarining Chjaovu xonadoni, ya'ni dastlab O'rta Osiyodagi hozirgi Gansu muzofoti hududidagi Silanshan qoyasining shimoliy tomonida istiqomat qilgan yuechjilar bilan umumiy kelib chiqishga ega edilar. Biroq So'g'dga kelib chiqishi yuechji bo'lgan barcha sulolalarning ko'chib kelishi, bu yerda, shu jumladan Samarqand va Buxoroda o'rtnashishi bilan ular «Chjaovu laqabini saqlab qoldilar». Ushbu sulolalar bu yerda VII-VIII asrlargacha hukmronlik qilgan. Jumladan, buxorolik hukmdor Alinga 627 yilda tan imperatori Txatszunga yozgan xatida bunday degan: ««Uning xonadoni yigirma ikkinchi tirsakda avloddan-avlodga podsholik» qilgan. Agar har bir podsholikka o'rtacha 20-30 yil ajratiladigan bo'lsa, Aminganing yuechji xonadoni taxminan 400-600 yil, ya'ni milodiy I asr boshidan boshlab podsholik qilgan.

Kelib chiqishi Chjaou xonadoni bilan bog'lanadigan Xorazm hukmdorlari sulolasi barqaror tusga ega edi.

Ushbu sulola, numizmatik ma'lumotlarga ko'ra, Xorazmda milodiy I asrdan boshlab milodiy VIII asrning o'zini ham ichiga olgan davrgacha hukmronlik qilgan. Davlat ramzlari bundan dalolat beradi: qadimgi va o'rta asrlar Xorazm tangalarining barchasida ular zarb qilingandan boshlab tugallangunga qadar otliq suvoriy va o'zgartirilgan tamg'a tasviri bor. Bu nafaqat O'rta Osiyoda, balki Sharqning boshqa davlatlarida hukmronlik qilgan barcha sulolalar uchun o'ziga xos hodisadir.

Demak, musulmonchilikkacha O'rta Osiyoda hukmronlik qilgan sulolalarning genetik tabiatini tipologik aniqlash bilan chegaralandik xoloSamarqand Endi bevosita davlat birlashmalari tipologiyasi va shaklini ko'rib chiqamiz.

1. Davlat tipi - podsholik. Boshqaruv shakli - mutlaq monarxiya. O'zbekistonning qadimgi tarixida u bunday tipdagi va boshqaruv shaklidagi davlat

tarkibiga kirgan bir necha davrlar bo'lgan.

Miloddan avvalgi 539 yildan boshlab miloddan avvalgi 330 yilgacha Ikki daryo oralig'idagi deyarli butun hudud, Farg'ona va Chochdan tashqari, Ahamoniylar sulolasidan bo'lgan Eron shohlari humkronligiga bo'ysungan. Xorazm, So'g'd, Baqtriya, shuningdek saklar muayyan ma'muriy birliklar-satrapliklarni tashkil etgan. Ularga Ahamoniylar podsholari tomonidan tayinlanadigan satraplar boshchilik qilgan va ular davlat raznasiga ma'lum miqdorda o'lpon to'lagan²⁰.

Yunon-Baqtriya podsholigi muayyan mustaqillikdan foydalanuvchi tizimli mutlaq monarxiya edi. U miloddan avvalgi III asr o'rtasida barpo etilgan bo'lib, miloddan avvalgi II asrning ikkinchi yarmi boshigacha mavjud bo'lgan. Butun ushbu davr mobaynida Shimoliy Baqtriya va muayyan bosqichlarda – So'g'd uning tarkibiga kirgan. Biroq podsholar hokimiyati ushbu davlatda hamma vaqt ham meros qilib qoldirilmagan: uning birinchi shohlari -Diodot I va Diodot II ni hokimiyat zo'rlik bilan egallab olinishi natijasida ular bilan qarindoshlik rishtalari bilan bog'lanmagan Yevtid almashtirdi.

Shimoliy Baqtriya va So'g'd ham miloddan avvalgi IV asr oxiridan miloddan avvalgi III asr o'rtasigacha boshqa yunon ellinistik podsholigi - Salavkiylar tarkibiga kirgan. Ushbu sulolaning ikkinchi humkdori Antikox I (miloddan avvalgi 280-261 yillar) Salavka bilan so'g'dlar yo'lboshchisining qizi Apam o'rtasidagi nikohdan tug'ilgan yarim so'g'diy edi. Binobarin, miloddan avvalgi I asr o'rtasigacha mavjud bo'lgan ushbu sulolaning barcha vakillarida so'd koni bor edi.

Milodiy I asr dan boshlab milodiy III asr o'rtasigacha mavjud bo'lgan Kushon podsholigi mutlaq, yorqin ifodalangan teokratik monarxiya edi.

Butun shu davr mobaynida, birinchi shoh Kudzula Kadfiz hukmronligi davridan tashqari, Ikki daryo oralig'ining janubiy viloyatlari ushbu davlat tarkibiga kirgan. Ushbu davlat ham muayyan satrapliklarga bo'lingan bo'lib, ularning hukmdorlari Kushon shohlariga to'liq qaram edi. Bundan tashqari, Kushon

²⁰ Eshov B. Qadimgi O'rta Osiyo shaharlari tarixi. – T., 2006.

podsholigida markazlikka o'xshash alohida chegara viloyatlari mavjud edi. Ularning tepasida Baqtriya qarang deb ataladigan kanaralar - harbiy sarkardalar turgan. O'zbekistonning hozirgi Surxondaryo viloyati, ehtimolki, mana shunday viloyat edi.

Ehtimolki, davlatning bunday tipiga Ahamoniylar imperiyasi parchalanib ketgandan keyin miloddan avvalgi IV asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lgan Xorazm podsholigi ham tegishlidir.

Milodiy I asrdan boshlab ushbu podsholikda markazlashtirilgan tartibda tanga zarb qilinadigan meros qilib qoldiriladigan yangi sulola qaror topgan. Shimoliy Baqtriya milodiy III asr o'rtasidan boshlab milodiy IV asr oxirigacha Sosoniylar podsholigi yurisdiksiyasi ostida bo'lgan. Uning tarkibiga kirgan Baqtriya maxsus huquqlardan foydalangan. Uning tepasida kelib chiqishi Sosoniylar sulolasining har xil shoxobchalariga tegishli bo'lgan, kushonlar unvoniga hamda oltin, kumush va mis tangalar zarb qilish huquqiga ega bo'lgan sosoniy shahzodalar turgan. Ularning ayrimlari keyinchalik butun davlatining podshosi bo'lgan edilar.

2. Davlat tipi - konfederate podsholik. Boshqaruv shakli — cheklangan monarxiya. Davlatlarning ushbu tipiga Qang' va Yuechji davlatlarini yoki Katta yuechji davlatining kushonlargacha mavjud bo'lgan birinchi davrini kiritish mumkin.

Ular odatda qabila boshliqlari yoki o'z tangasini zarb qo'shuvchi urug' boshliqlari tomonidan boshqariladigan bir nechta mustaqil o'lkalardan iborat bo'lgan²¹.

Misol uchun Kang' davlati xududida kamida beshta mana shunday o'lka bo'lgan. Bular: Buxoro va uning atrofi. Uning hukmdorlari Yevtidem tangalariga taqlid qilib o'z nomlari va unvonlari bitilgan tangalar chiqargan, Buxoroning janubi-sharqi va Samarqand So'g'dining shimoli-g'arbi. Bu yerda Girkod sulolasidan chiqqan dohiylar hukmdorlik qilgan, har xil shohlarning nomlari bitilgan o'z tangalarini chiqargan Samarqand So'g'di hamda o'zi mustaqil tanga

²¹ Eshov B. Qadimgi O'rta Osiyo shaharlari tarixi. – T., 2006.

zarb etgan Janubiy So'g'd o'lkalaridir.

Xorazm mutlaq mustaqil podsholik bo'lgan. Uning hukmdorlari eng yuqori unvonga - MK'Y MLK' (davlat-podsho)ga ega bo'lganlar.

Ayni vaqtda ushbu o'lkalar uchun umumiy bo'lgan Qang'ning zarb qilingan tangasi mavjud bo'lmagan.

Yuechjilar tomonidan barpo etilgan, birinchi Kushonlar davrigacha mavjud bo'lgan Yuechjilar davlati ham xuddi shunday tipda bo'lgan.

Ushbu davlat Qang' singari beshta o'lkadan iborat bo'lgan. Ularga turli yuechji urug'larining vakillari boshchilik qilgan. Ushbu Xyumi, Shuanmi, Go'yshuan, Xisi, Xuanmi o'lkalar Baqtriyaning turli qismlarida joylashgan bo'lib, nomigagina yuechjilarning oliy hukmdorlariga bo'ysungan.

Ushbu davr uchun tanga zarb qilishning besh turini ajratib ko'rsatish mumkin. Ular: Sapadbiz, Fseygarxaris, Kushon (Geraya), Geliokl va Yevkratid tangalariga taqlid qilishdir. Bu ularni zarb etgan turli yuechji urug'lari yo'lboshchilarining amalda mustaqil bo'lganligidan dalolat beradi.

Ulardan biri - Kushonning avlodlari birmuncha vaqtdan keyin buyuk Kushon podsholigini barpo etgan. Mohiyat e'tibori bilan bu Katta yoki Buyuk yuzchjilar davlatining o'zi edi. Qadimgi Xitoy yozma manbalarida ular mana shunday nomlangan.

3. Davlat tipi - egalik qilish. Boshqaruv shakli qabila dohiylari yoki urug' boshliqlarining meros qilib qoldiriladigan hokimiyati.

Davlat birlashmasining ushbu tipi kichikroq o'lka bo'lgan. Yunon-Baqtriya podsholigi qulagach Baqtriyaga kelgan Chjan-Szyan tomonidan miloddan avvalgi 128 yilda yoki miloddan avvalgi 126 yilda qayd etilgan. Unga muvofiq Baqtriya ko'plab mayda mustaqil o'lkalardan iborat bo'lgan. «Bu yerda deyarli har bir shahar o'z hukmdorini yetishtirgan». Xitoy manbalarida O'rta Osiyo ikki daryo oralig'i hududida 55 ta o'lka mavjudligi ko'rsatiladi²². Ular muayyan mustaqillikdan foydalangan va o'z tashqi siyosatini yuritishgan, jumladan Xitoy bilan diplomatik munosabatlar o'rnatgan.

²² Eshov B. Qadimgi O'rta Osiyo shaharlari tarixi. – T., 2006.

O'rta Osiyodagi ikki daryo oralig'ida qadimgi davrda davlatchilik evolyusiyasining miloddan avvalgi II ming-yillikning ikkinchi yarmi, miloddan avvalgi III asrgachadan - yangi eraning IV asri oralaridagi vaqtni qamrab olgan bir necha davrlarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Davlatchilikning ilk shakli qaror topishi O'zbekiston janubida tarqalgan so'nggi bronza davrining o'troq-dehqonchilik madaniyatida yuz berdi. Uning yakunlanishi O'rta Osiyo xududida yangi eraning III asri birinchi yarmida mavjud bo'lgan Kushon va Parfiya imperiyalari halokati bilan deyarli bir vaqtga to'g'ri keladi. Qang' davlati taxminan o'sha paytda inqirozga uchraydi.

Birinchi davr - miloddan avvalgi II mingyillikning ikkinchi yarmi – O'zbekiston janubida embrional shaklda davlatga o'xshash tuzilmaning qaror topishi. Davlatning bunday namunasi Jarqo'tonda o'z aksini topgan deyish mumkin.

Ikkinchi davr - miloddan oldingi I mingyillikning boshi - miloddan avvalgi 539 yil - Baqtriya, So'g'd, Xorazm tarixiy-madaniy viloyatlarining shakllanishi. Ularda siyosiy hokimiyat tizimining shaxobchali tizimiga ega bo'lgan davlatning ilk shakllarini ko'rish mumkin. Jumladan, «Avesto»dan o'rin olgan ma'lumotlar ham bundan dalolat beradi. «Avesto»da: nyman (uy-oila), vis (urug', urug' manzilgohi), zantu (qabila), daxyu (viloyat, mamlakat), shuningdek har xil oliy hukmron shaxslar, mamlakat, viloyat egalari (daxyu-patlar), Hukmdorlar, (sastrlar) va boshqalar eslatiladi.

Qadimgi Baqtriya va «Katta Xorazm» podsholiklariga o'xshash yirik hududiy yoki saklarda bo'lgani singari (Zarina, To'maris) ayol podsho boshchiligidagi qabilalar konfederatsiyasi ham xuddi shu paytda kelib chiqqanligi ham ehtimoldan yiroq emas Samarqand

Uchinchi davr - miloddan avvalgi 539 yil - miloddan avvalgi 330 yil - Ahamoniylar bosqini va O'rta Osiyoning Ahamoniylar davlati tarkibiga kirishi tufayli kelib chiqqan mahalliy davlatchilik rivojlanishidagi tanaffus.

Ikki yuz yil davomida O'rta Osiyo janubi Ahamoniylar saltanati tarkibiga kirgan. Uning butun hududi satraplarga bo'lingan. Satraplar Ahamoniylar

podsholari raznasiga kumush hisobidan talan to'lab turishgan. O'rta Osiyodagi satraplikdan uchtasi - Baqtriya, So'g'd, Xorazm to'liq yoki qisman hozirgi O'zbekiston hududida joylashgan edi.

Saltanatning halokatga uchrashi Aleksandr Makedonskiy kelishi bilan yuz berdi. Aleksandr Makedonskiy miloddan avvalgi 330 yilda Axamoniylarning asosiy kuchlarini tor-mor etib, O'rta Osiyo hududiga Ahamoniylar taxtiga oxirgi talabgor - Baqtriya satrapi Bessning izidan quvib kirdi. Aleksandr Makedonskiy O'rta Osiyoni bosib olishga uch yil (miloddan avvalgi 330-327 yillar) sarflagan. O'rta Osiyo xalqlari, ayniqsa Spitamen boshchiligidagi so'g'dlar uning qo'shinlariga qattiq qarshilik ko'rsatgan.

To'rtinchi davr - miloddan avvalgi IV asr oxiri miloddan avvalgi II asrning ikkinchi yarmi boshi -Aleksandr Makedonskiy bosib olgandan boshlab ellinlar siyosiy hukmronligi oxirigacha (Yunon-Baqtriya podsholigining qulashi). Bir vaqtning o'zida mahalliy davlatchilikning tiklanishi jarayoni yuz bergan: miloddan avvalgi IV asrning oxirgi choragada Xorazmda podsholik paydo bo'ladi. Arrian asarlaridan ma'lumki, miloddan avvalgi 329 yilda Marokandda Aleksandr Makedonskiy ittifoqchilik munosabatlari o'rnatish uchun kelgan Xorazm shohi Farasmanni qabul qiladi.

Miloddan avvalgi III asr oxirida - miloddan avvalgi II asrda Buxoroda, Dovon (Farg'ona)da, So'g'dda alohida mulklar shakllanadi. Ehtimolki, ayni shu davrda keyinchalik tarkibiga deyarli butun O'rta Osiyodagi ikki daryo oralig'i kirgan Qang' davlati qaror topishi yuz bergan.

Aleksandr vafotidan keyin diadoxlarning shiddatli urushlaridan so'ng O'rta Osiyo janubi Salavkiylar saltanati (miloddan avvalgi 310-250 yillar) tarkibiga kirgan. Biroq miloddan avvalgi III asrning o'rtalaridayoq Salavkiylarning Baqtriyadagi satrapi Diodot metropoliyaga qarshi qo'zg'olon ko'taradi va fanda Yunon-Baqtriya deb nom olgan mustaqil davlat tashkil etadi²³.

Yunon-Baqtriya podsholigi sak qabilalari (asiylar, pasinlar, sakaravllar), so'ngra xunlarning zug'umi bilan Baqtriyaga kelgan yueji-toxarlarning zarbalari

²³ Rtveladze E.V. O'zbekistonning tarixiy o'tmishi. – T., 2009.

ostida qulaydi. Yueji-toxarlar dastlab Shimoliy Baqtriyaga (O'zbekistonning hozirgi Surxondaryo viloyati va Shimoliy Tojikiston) joylashadilar, so'ngra esa Baqtrada (hozirgi Shimoliy Afg'onistondagi Balx) poytaxtga asos solib butun Baqtriyani bosib oladilar. Ular alohida mustaqil mulklardan iborat bo'lgan o'ziga xos konfederativ tipdagi davlat barpo etadilar.

Miloddan avvalgi II asrda O'rta Osiyodagi ikki daryo oralig'ida xuddi shunga o'xshash Qang' davlati shakllanadi. Ushbu davlat, Xouxanshuning ma'lumotlariga kura, beshta mulkdan iborat bo'lgan. Ularning har biri o'z tangasini zarb etgan. Bu ularning mustaqilligidan dalolat berardi. Beshinchi davr - miloddan avvalgi II asrning ikkinchi yarmi - yangi eraning I asri boshi - mahalliy davlatlar: Qanr, Xorazm podsholigi, Buxoro, So'g'd, Dovon mustahkamlanishi va yanada rivojlanishi, Yuechji davlatining qaror topishi va uning hokimiyatining Gandxariga qadar yoyilishi. Ushbu mulklarning deyarli har birida kumush yoki misdan yasalgan tanga zarb qilingan (Dovon bundan mustasno). Mahalliy so'g'd, xorazm yozuvlarining paydo bo'lishi tanga zarb qilish bilan birgalikda rivojlangan davlatchilikning asosiy belgisi hisoblanar edi.

Oltinchi davr - yangi miloddan avvalgi I asrning boshi - milodning III asri birinchi yarmi - antik davrda mahalliy davlatchilikning ravnaq topishi. O'zbekiston janubining konfederativ Yuechji davlati asosida paydo bo'lgan qudratli Kushon imperiyasi tarkibiga kirishi. Ikki daryo oralig'ida davlat tuzilmalarining mustahkamlanishi va yanada rivojlanishi. Balkim Chochda yangi mulkchilik paydo bo'lishi va o'z mis tangasining zarb qilishi. Xorazmda Afrigidlar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi, bu yerda sulolaviy boshqaruvning an'anaviyligi. Bu, jumladan, davlat ramzi bo'lgan tanganing orqa tomonida otliq suvoriy tasviri berilishida ifodalangan.

O'rta Osiyo davlatlarida zarb qilingan davlat ramzi bo'lgan – tamg'a va sulola belgilarining keng yoyilishi harbiy o'lka, Sharqiy O'rta yer mamlakatlari va Parfiya bilan diplomatik aloqalarning keng avj olishi bilan birgalikda davlat hokimiyatining barqaror va an'analarga ega bo'lgan xususiyatidan dalolat beradi.

Miloddan avvalgi II asrning ikkinchi yarmida Xan Xitoyi Chjai-Szyanning

tashrifi tufayli o'zi uchun harbiy o'lkani, ya'ni O'rta Osiyoni kashf etadi, miloddan avvalgi II asr oxiridan boshlab esa O'rta Osiyo bilan Xitoy o'rtasida muntazam diplomatik va savdo munosabatlari amalga oshiriladi. Sivilizatsiya tarixida birinchi marta G'arb va Sharq mamlakatlarini birlashtirgan qit'alararo Buyuk Ipak yo'lining qaror topishi ushbu munosabatlarning buyuk yakuni bo'ldi.

Mahalliy antik davrda (milodiy I asrda - milodiy II asrning birinchi yarmi) Shimoliy Baqtriya milodiy I asrning birinchi yarmida yuechji urug'laridan birining dohiysi Kudzula Kadfiz tomonidan asos solingan qudratli Kushon imperiyasi tarkibiga kirdi. Bu davrda o'zida mustaqil davlatni ifodalagan So'g'd (O'zbekistonning Qashqadaryo va Samarqand viloyatlari) ehtimolki, u ham yuechjilardan kelib chiqqan Girkod sulolasi tomonidan boshqarilar edi²⁴.

Xorazmda Afrigidlar hokimiyat tepasiga kelgan va 700-800 yil davomida xukmronlik qilgan. Buxoro va Dovon (Farg'ona), shuningdek, ehtimolki, Choch mustaqil davlatlar edi. Chochda (U-shu tipdagi xitoy tanglaridan foydalanuvchi Dovondan tashqari) o'z tangalari zarb qilinganligi ham shundan dalolat beradi. Transoksionning ushbu barcha mulklari Kang' tarkibiga kirganligi ham istisno emas Samarqand

Milodiy III- asrlar O'rta Osiyo tarixida qadimgi buyuk imperiyalar - Kushon va Parfiya imperiyalarining halokatga uchrashi, ko'plab mayda mustaqil davlatlarning paydo bo'lishi, xionit va kidarit ko'chmanchi qabilarning bostirib kirishi, qadimgi ijtimoiy formasianing yemirilishi, iqtisodiyot, moddiy va ma'naviy madaniyatning muayyan darajada tushkunlikka yuz tutishi bilan tavsiflanadi.

Samarqand bunyod bo'lganidan beri u O'rta Osiyoning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida katta mavqega ega bo'lib keldi. Shaharning Buyuk ipak yo'li chorrahasida joylashganligi, bu yerda qadimdan hunarmandchilikning shoyi to'qish, mashhur Samarqand qog'ozi ishlab chiqarish, kulolchilik, temirchilik, novvoylik, qandolatchilik, badiiy kashtachilik va boshqa turlari hamda savdo-sotiq ishlarining rivojiga turtki bo'ldi. Samarqandda qadimdan ravnaq topgan

²⁴ Matboboev B.X. Qadimgi Farg'onada ilk davlatchilik ildizlari // O'zbekiston tarixi, 2002, 1-son. B. 3-11; Сулейманов Р.Х. Древний Нахшаб. – Ташкент-Самарканд, 2000.

hunarmandchilik turlari mahalla-guzarlarning nomlarida saqlanib qolgan. Masalan “So'zangaron” (igna tayyorlovchilar), “Kamongaron” (o'q-yoy tayyorlovchilar) va boshqa- lar hozirgi kungacha etib kelgan.

Samarqand zaminida mashhur donishmandlar, allomalar voyaga etgan, jumladan Mirzo Ulug'bek Samarqandda munajjimlar maktabiga asos soldi, madrasa va rasadxonalar qurdi. Uning atrofida butun bir ilmiy maskan – Ulug'bek akademiyasi tarkib topdi. Bu akademiyada G'iyosiddin Jamshid Koshiy, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi kabi mashhur olimlar etishib chiqdi. Ulug'bek akademiyasida amalga oshirilgan ishlar jahon fan olamida tan olindi.

Samarqand qadimiy tarixiy va me'moriy yodgorliklari tufayli butun dunyo tan olgan haqiqiy muzey shahriga aylandi. Shu bois respublika hukumati qarori bilan 1982 yilda Samarqandning Afrosiyob shahristoni, o'rta asrlarda bunyod etilgan me'moriy yodgorliklar va XIX-XX asrlarda qurilgan “Yangi shahar”dagi binolar, tarix va o'lkashunoslik muzeylari asosida “Samarqand davlat birlashgan tarixiy-me'moriy muzey qo'riqxonasi” tuzildi. O'sha yili shaharning tarixiy qismini muhofazalash chegaralari belgilandi.

Samarqandda 73 ta yirik tarixiy-me'moriy yodgorliklar mavjud bo'lib, bulardan: Registon ansambli, Shohi Zinda ansambli, Amir Temur maqbarasi, Ulug'bek rasadxonasi, Bibixonim jome masjidi, Ruhobod maqbarasi, Abdidarun majmuasi, Hoja Ahror masjidi, Hazrati Xizr masjidi va boshqalar saqlangan. Sho'rolar davrida shaharning yevropaliklar yashaydigan qismi obod qilindi, aholisi ham ko'chib keluvchilar hisobiga ortib bordi. Eski shahar qismi esa o'z holicha tashlab qo'yildi, ko'p me'moriy yodgorliklar qarovsiz qolib, xaroba holiga kelib qoldi.

O'zbekiston Prezidenti I.A. Karimov tashabbusi bilan Abu Mansur al-Moturidiy as-Samarqandiy dafn etilgan Chokardiza qabriston hududida Moturidiy yodgorlik majmui mozoriga maqbara qurildi, qabriston obod etildi. Ko'hna va navqiron zaminda joylashgan va ikkinchi Ka'ba nomini olgan Xartang qishlog'idagi Xoja Ismoil al-Buxoriy manzilgohi etti iqlimdan kelayotgan odamlar uchun ziyoratgoh bo'lib qoldi.

Shahardagi tarixiy obidalar Xitoy, Hindiston, Yunoniston (Afina), Italiya (Rim) yodgorliklari kabi o'zining go'zalligi, betakrorligi bilan e'tiborni o'ziga tortadi. Bugun Samarqandga kelgan har qanday mehmon ayniqsa, xorijlik sayyoh, eng avvalo Go'ri Amir maqbarasi ni ziyorat qiladi. Bibixonim, Hazrati Xizr tarixiy obidalariga tashrif buyuradi. Ulug'bek, Tillaqori, Sherdor madrasalari qarshisida qanchalik lol qolsa, Shohi Zinda yodgorlik majmuasi ziyoratida shunchalik hayratga tushadi. Dunyo donishlari tomonidan "Insoniyat tafakkurining shoh asari" deya baholangan Shohi Zinda ansambli o'tgan davrlarda necha bor toptalmadi, necha bor himoyaga olinmadi. Mustaqillik yillarida Shohi Zinda gumbazlarida qayta nur jilolana boshladi. 2004 yilda Vazirlar Mahkamasining "Shohi Zinda yodgorlik majmuasida qayta tiklash va obodonlashtirish ishlarini tashkil etish to'g'risida"gi qarori qabul qilingach esa uning umrboqiyligiga yana zamin yaratildi. Majmuadagi qadimiy obidalarni tiklash, qayta ta'mirlash, asl holatiga qaytarish ishlariga respublikamizning barcha hududlaridagi tajribali me'morlar jalb etildi.

Tarixiy yozma manbalarda Samarqandning yoshi qadimiyligi to'g'risida ma'lumotlar bor. Muha.mmad sh-Nasafiy «al-Qand fiy zikri ulamoi Samarqand», Haydar as-Samarqandiy (12-a.) «Qandiyai Xurd», Abu Tohirxoja Samarqandiy «Samariya», Xitoy tarixchisi Chjan Syan, yunon va rimlik tarixchilar Arrian, Kursiy Ruf va b. ko'plab mualliflarning asarlarida bu hakda yozib o'tilgan. Shu bois o'rta asrlardan Sharqda ommalashib ketgan maqollardan birida «G'arbda Rim, Sharqda Samarqand» deyilgan. Samarqand va Rim insoniyat taqdiridagi buyuk xizmatlarini nazarda tutib «Boqiy shaharlar» nomini olganlar. Xalq iborasi «Samarqand sayqali ro'yi zaminast» [Samarqand yer yuzining sayqali (jilosi)] behuda aytilmagan. Amir Temur Samarqandni o'zgacha mehr b-n qadrladi, obod qildi, dunyoning sayqaliga aylantirdi.

«Samarqand» so'zining kelib chiqishi to'g'risida bir qancha taxmin va gipotezalar mavjud. Sharq mualliflari «Samarqand» so'zining birinchi qismi, ya'ni «Samar» so'zi shu shaharga asos solgan yoki shaharni bosib olgan kishining nomi deb hisoblab, bir qancha sun'iy ta'riflarni taklif etdilar. Biroq tarixda bunday ismli kishi to'g'risida ma'lumotlar aniqlanmagan. So'zning ikkinchi qismi «kent» (qand)

- qishloq, shahar degan ma'noni bildiradi. Ba'zi yevropalik olimlar, bu nom qadimdan qolgan, sanskritcha «Samarya»ga yaqin, ya'ni «yig'ilish, yig'in» so'zidan kelib chiqqan deb izohlaydilar. Antik mualliflarning asarlarida shahar Marokandadeb atalgan. Bu haqiqatga ancha yaqin bo'lib, Marokanda - Samarqand atamasining yunoncha aytilishidir. 11-a. olimlaridan Abu Rayxrn Beruiiy na Mahmud Koshg'ariy shahar nomining kelib chiqishini «Semizkent», ya'ni «semiz qishloq» so'zining buzib talaffuz qilinishi deb tushuntiradilar²⁵.

Samarqand jahonning eng qadimiy shaharlaridan biri - 2700 yildan ortiq tarixga ega. Samarqand mil. avv. IV asrdan milodiy VI asrgacha So'g'd davlatining poytaxti bo'lgan. Arxeologik qazishmalardan ma'lum bo'lishicha, yuqori paleolit davrida ham Samarqand hududida odamlar yashagan (Samarqand makoni). Rim tarixchisi Kvint Kursiy Rufning (mil. avv. I asr oxiri - milodiy I asr) yozishicha, Samarqand qal'asi devorining aylanasi taxminan 10,5 km bo'lgan. Mil. avv. 329 m. makedoniyalik Aleksandr qo'shinlari Samarqandni vayron qilgan. Samarqand VI asrda Turk xoqonligi tarkibiga kirgan va mahalliy hokimlar tomonidan boshqarilgan. VII asr boshidan Zarafshon vodiysi Samarqand hokimlari qo'l ostiga o'tgan. Bu davrda Samarqand Hindiston, Eron, Misr va Vizantiya davlatlari b-n savdo-sotiq qilgan. Qutayba ibn Muslim boshchiligidagi arab qo'shinlari 712 yilda Samarqandni egallagan. Qo'zgolon ko'targan shahar aholisining bir qismini qirib tashlagan. At-Tabariy keltirgan ma'lumotga ko'ra, samarqandliklar shahriston (ichki shahar)ni arablarga bo'shatib berishga majbur bo'lganlar. Arablar shahristonda masjid va minbar qurganlar. Mahalliy aholidan tortib olingan qimmatbaho buyumlar va oltin, kumush bilan bezatilgan sanamlar (xilat ul-as-nom) ni eritib 10 ming misqol qimmatbaho metall olingan. 776-783 y.larda arablarga qarshi Muqanna boshchiligida qo'zg'olon ko'tarilgan. Arablarga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olonlarni bostirishga faol qatnashgan mahalliy zamindor aholi vakillari IX asrning 20-yillaridan Movarounnahr va viloyatlarini boshqarishga tortildi, jumladan, Samarqandni boshqarish Somoniylar qo'liga o'tdi. O'sha vaqtdan Samarqand - Somoniylar davlatining poytaxti bo'ldi. 887 yildan

²⁵ Самарканд 2750. – Т., 2007.

birinchi marta somoniylar kumush tangalari Samarqandda zarb qilina boshladi. Somoniylar poytaxti Buxoroga ko'chirilganiga (889) qaramay Samarqand Movarounnahrning eng yirik hunarmandchilik va savdo markazlaridan biri bo'lib qoldi.

2.2. Janubiy va G'arbiy So'g'd shaharlari.

Yuzlab mingyilliklarni o'z ichiga olgan insoniyat tarixida dastlabki davlatlar va shaharlarning tashkil topishi, hunarmandchilik va savdoning rivojlanishi, yozuvning kelib chiqishi - nisbatan keyinroq sodir bo'lgan xodisalardir. Davlatchilik jahon tarixida miloddan avvalgi IV ming yillikning oxirlarida vujudga kelib, insoniyat rivojining so'nggi 5 ming yili bilan bog'lanadi.

Qadimgi davlatlar rivojining turli bosqichlariga, turli xususiyatlar va tarixiy qonuniyatlar xos bo'lgan. Dastavval, ilk davlatlar ho'jalikning ishlab chiqaruvchi shakllari - dehqonchilik va chorvachilik qayerda oldin rivoj topgan bo'lsa, o'sha yerda vujudga keldi.

Ibtidoiy tarixda aholining joylashuvi qarindosh-qarindoshlik aloqalari bilan belgalangan. U yoki bu hududda faqat bitta urug' a'zolari yashagan. Xo'jalikning ishlab chiqaruvchi shakllari taraqqiyoti aholi joylashuvi xududlarining kengayishiga, tashqi aloqalarning uzluksiz rivojlanishiga olib kelgan. Ishlab chiqarish zarurati va boshqa iqtisodiy omillar shuni taqozo etgan. Shu tariqa aholining aralash joylashuvi tarixi boshlanadi. Bunda bir hududda turli urug' namoyondalari yashaydigan bo'lgan. Jamiyatning yangi hududiy tashkiloti vujudga kelib, qon-qarindosh urug'chilik jamoasi o'rniga hududiy qo'shnichilik jamoasi keladi²⁶.

Bu jamoalarning vakillari alohida qishloqlar, ekinzorlar va sug'orish tarmoqlari bilan chegaralangan, ya'ni to'la o'zlashtirilgan va muttasil ho'jalik va ishlab chiqarish maqsadlarida foydalanib kelingan voqa-tumanlarda hayot kechirib, ichki va tashqi munosabatlarining vazifalarini hal qilishda, birlashishga harakat qilganlar. Ishlab chiqarish va ijtimoiy mehnat taqsimoti, tashqi harbiy bosqinlardan himoyalash, jamoadagi diniy urf-odatlarini bajarish kabi masalalar ijtimoiy mansablar va boshqaruvning paydo bo'lishga asos soldi.

O'zbek xalqi, O'rta Osiyo xalqlari va ularning ajdodlari tarixida ilk

²⁶ Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. – T., 2001; Древнейшие государства Кавказа и Средней Азии // Отв. Ред. Г.А. Кошеленко. – М., 1985; Insoniyatning ilmiy va madaniy merosi – uchinchi ming yillikda // Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligiga bag'ishlangan Xalqaro simpozium tezlari. - T., 1997; Исаков А.И. Саразм (к вопросу становления раннеземледельческой культуры Зарафшанской долины. Раскопки 1977-1983 гг.). – Душанбе, 1991; Исамидинов М.Х., Сулейманов Р.Х. Еркурган (стратиграфия и периодизация). – Т., 1984

davlatchilikning vujudga kelishi masalasini o'rganish dolzarb vazifadir. Bu muammoni o'rganishda yozma va arxeologik manbalar ko'p jihatdan yordam beradi. Davlat tuzumi vujudga kelishini yoritib beradigan asosiy yozma manba «Avesto» va qadimgi dunyo mualliflari qoldirgan ma'lumotlardir. O'rta Osiyoda ilk davlatchilik tuzumiga zamin yaratgan bronza davrida sug'orma dehqonchilik rivojlanishi va ixtisoslashgan xunarmandchilikdir. O'rta Osiyoda davlatchilik tuzumiga o'tish jarayoni faqat ichki sabablarga bog'liq bo'lmay, Sharqdagi yuqori darajada rivojlangan an'anaviy tarixiy madaniy aloqalarga ham bog'liq edi. Baqtriyadan topilgan yuqori sifatli oltin, kumush va bronza buyumlari tashqi savdo va o'zaro aloqalarning rivojlanishidan dalolat beradi.

Qadimgi Sharq davlat markazlari bilan madaniy munosabatlari muammosi dolzarb mavzu bo'lib, arxeologik ma'lumotlar o'zaro aloqalardagi mavjud texnologik va iqtisodiy ta'sirni ko'rsatadi. Yaqingacha Old Osiyo davlatlarining O'rta Osiyoga siyosiy yurishlarining boshlanishi ahamoniylar bilan bog'lanib kelinardi. Ossuriyaning Baqtriyaga harbiy yurishlari haqida ma'lumotlar ayrim tarixshunoslar tomonidan umuman rad etilgan. Xorazm, Baqtriya va Midiyaning siyosiy aloqalari hali oxirigacha isbotlalmagan bo'lsa-da, bunday aloqalar bo'lishi mumkin, deb hisoblanmoqda.

Hozirgi paytda ossuriyaliklar bilan qalay konlari mavjud bo'lgan O'rta Osiyo viloyatlari o'rtasidagi savdo aloqalari tadqiqotchilarni shubhalantirmayapti va nihoyat Panj havzasidagi miloddan avvalgi IV-III ming yilliklarga oid Xarappa madaniyati savdo makonlarining ochilishi yoki Surxon va Balxob vohalaridagi miloddan avvalgi XI ming yillikka mansub o'troq manzilgohlarning tarqalishi turli jamoalarning yangi yerlarni o'zlashtirish faoli-yati bilan bog'langan.

Arxeologik va yozma manbalarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, ilk temir davri Xorazm, Baqtriya, Marg'iyona va So'g'd jamoalaridagi asosiy ishlab chiqaruvchi kuchlarni bir necha kichik oilalardan iborat uy jamoalari (katta oila vakillari) tashkil etgan. Uy-qo'rg'onlar joylashuvining tashqi belgilariyoq, uy-jamoalari aftidan ancha yirik xududiy qo'shni jamoalarni tashkil qilganidan dalolat beradi. Boshqaruv tartibida katta oilalar (uy jamoasi) boshliqlari yoki uy egalari,

shuningdek, alohida qishloq qo'rg'onlarini boshqaruvchi jamoalar katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Alohida uylar o'rtasidagi qarindoshchilik munosabatlari kabi belgilar aftidan, ikkinchi darajali bo'lib borgan. Bu shunda ko'rinadiki, har bir katta oila mumkin bo'lgan qarindoshchilik aloqalariga qaramasdan, alohida uy-joyga, ishlab chiqarish qurollariga ega bo'lishgan, o'zining qishloq ho'jaligi mahsulotlari va chorvalari bo'lgan yoki o'zini iqtisod jihatidan ta'minlay oladigan ho'jalikni aks ettirgan. Katta oilali jamoalar shakli jamoa ishlab chiqarishi va ho'jalik harakatiga muvofiq edi. Ma'lumki, u jamoani iqtisodiy jihatdan mustahkamlanishiga olib keldi.

G'arb ilmiy adabiyotlarida «yo'l boshchi-boshliqlar jamiyati» degan tushuncha qo'llaniladi va davlat tizimiga o'tish bosqichlaridan biri «chifdom» deb ataladi. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, «chifdom» tushunchasi davlat darajasiga ko'tarilmagan jamiyat tashkilotini aks ettiradi. Bu bosqichda yo'l boshchilar jamoani o'z qo'llari ostida birlashtirib, ishlab chiqarishni nazorat qilganlar.

Ijtimoiy mansablarni egallash, jamoa ishlab chiqarish ishlari va ijtimoiy mehnat taqsimoti bilan bog'liq bo'lgan. Boshqaruv faoliyat zarurati ishlab chiqarishni tashkillashtirishda, ishlab chiqarish jarayonini nazorat qilish va jamoa mahsulotini taqsimlashda, shu ishlar bilan maxsus shug'ullanuvchi ayrim shaxslarni yuzaga chiqardi.

Shu tarzda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar taraqqiyoti jamiyatda o'z obro'-e'tiboriga ega va ijtimoiy ishlab chiqarish bilan doimiy shug'ullanmaydigan ijtimoiy va ho'jalik hayotini nazorat qiladigan va boshqaradigan shaxslarning saralanishiga olib kelgan. Ammo bu kishilar na quldor, na ezuvchi ham bo'lmaganlar. Bunday odamlarning saralanishiga ularning shaxsiy ahloqiy hislatlari, bilim va nufuzlari sabab bo'lgan. Shu asosda» ishlab chiqarish faoliyatidan tashkiliy - boshqaruv faoliyati ajralib chiqqan.

Rahbar-yo'l boshchining nufuzi yuqori bo'lsada, jamiyatdagi ishlab chiqarish jarayoni boshqaruv yutuqlariga asoslangan ijtimoiy hokimiyat hali siyosiy davlat maqomi darajasiga yetamagan ijtimoiy tashkilot turini o'zida ifoda etgan. Bunday tashkilot boshqaruvchisi lavozimini bajaruvchi shaxslar bu lavozim evaziga

moddiy rag'batlantirilganlar. Moddiy boyliklarni taqsimlash va jamoa mahsulotidan olinadigan ulush bunday kishilarning jamiyatdagi o'rni va amaliga bog'liq bo'lgan. Shunday qilib, yo'lboshchi rahbarning dastlabki ijtimoiy foydali faoliyati kasbiy boshqaruvchilikka aylandi.

Shu tariqa ilk davlatchilikka o'tish jarayoni boshlangan. Ikkinchi bosqich jamoaning o'zini-o'zi boshqaruv muassasalarini yo'lboshchi hokimiyatiga to'la bo'ysundirilishi bilan bog'lanadi va shunda jamoa a'zolarining ichki va tashqi, o'zaro aloqalarining huquqiy tartibotining zarurati yanada rivoj topib, takomillashadi. Bu holat davlatning turli vazifalarini huquqiy tartibga solib, hokimiyatni huquqiy jihatdan rasmiylashtiradi.

Aytilganlardan shunday xulosaga kelindiki, qadimgi Sharqning ilk davlatlari tarixi dastlab jamiyatning qullar va quldorlarga bo'linishidan boshlanmagan. Ushbu jarayonning muhim omillaridan biri mulkiy tabaqalanish bo'lmasdan, sinfiy qarama-qarshilikning aloqasi bo'lmagan jamiyatning ijtimoiy-amaliy vazifalar jihatidan bo'linishidir. Bu xol, eng avvalo, iqtisodiy, harbiy va diniy omillarga bog'liq bo'lgan. Davlatchilikning asoslari siyosiy institutlar shakllangandan keyingi chuqur ijtimoiy tabaqalanish jarayoni boshlangani bilan bog'lanadi.

Ilk davlatlarning ishlab chiqaruvchilik hayotida ozod jamoa a'zolarining mehnati muhim o'rin tutadi. Aholi sonining o'sishi hamda yangi aholi joylasha oladigan xududlarga, bo'z yerlar va chorva uchun yaylov, ma'danlarga boy manbalarga ega bo'lish ehtiyoji katta yo kichik urushlarga sabab bo'lgan. Doimiy harbiy to'qnashuvlar sharoitida ba'zi davlatlar tor-mor keltirilib, boshqalari kuchaygan. Sanoqsiz asirlar va xonavayron bo'lgan jamoa a'zolari qullikka tushganlar. Ular mehnatidan ishlab chiqarish maqsadlarida keng foydalanilgan. Shu tarzda tarixda qadimgi Misr, Ossuriyadek o'rtamiyona xududga ega davlatlar va keyinchalik yirik, dunyoviy miqyosdagi Ahamoniylar saltanatidek davlatlar vujudga kelgan. Shuning uchun ham ilk davlatlarning tarixi - bu dastlabki bosqinchilik urushlari tarixidir, bu quldorlik deb ataluvchi qadimgi davlatlar tarixidir, chunki ularning hukmdorlari ko'pdan ko'p viloyatlar va xalqlarni o'ziga bo'ysundirishni maqsad qilib, kuchsiz va himoyaga muxtojlarini talab, qulga

aylantirar edilar.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, ilk temir davrida O'rta Osiyo janubidagi jamoalarda «uy egasi», «qishloq oqsoqoli», «oqsoqollar kengashi», «tuman hokimi» kabi mansablar mavjud edi. Ijtimoiy tuzumning bu pog'onasi ilk davlatchilikning eng yuqori darajasi bo'lib, u jamoalarning ijtimoiy hayotida obro'-e'tiborini, o'z ahamiyatini saqlab qoldi. Uy-qo'rg'on egasi o'z avlodlariga ham ta'sirini o'tkazgan. Keyinchalik ular o'z haq-huquqlarini mustahkamlashga harakat qilganlar. Jamoa uchun tashkiliy boshqaruv keng ko'lamdagi qurilish, sug'orish va dehqonchilik ishlarini tashkil etish paytida zarur edi. Yo'l boshchi-hokimlarning boshqalardan ajralib turishiga qadimgi shaharlarning ichki qal'asida ularning alohida joylashgan saroy qo'rg'onlari ham guvoh bo'ladi. Bu hokimiyat tashqi harbiy bosqinlardan himoyalaniish, shahar va qishloqlar xududini muhofaza qilish, ijtimoiy hayotni, shuningdek, qurilish, hunarmandchilik va sug'orish ishlarini tashkil etib, jamoaning ichki va tashqi munosabatlarini boshqarib turgan. Qadimgi tuman va viloyatlar, shahar markazlarining ahamiyati ayniqsa harbiy to'qnashuvlar paytida oshib, shahar xududidan tuman aholisi uchun boshpana, ijtimoiy mulkning asosini tashkil etuvchi chorva podalari uchun pana joy sifatida foydalanilgan. Hokimiyatga shahar jamoasi va uning atrofidagi uy-qo'rg'onlar jamoalarining vakillari ham bo'ysunishi lozim edi.

Uy-qo'rg'on egalari oiladaga va jamoadaga ish yurituvchilar sifatida an'anaviy qishloq xo'jalik shakllarini rivojlantirish, oziq-ovqat mahsulotlarini ko'paytirish maqsadida turli munosabatlarni boshqarib turganlar hamda uning haq-huquqlari ancha yuqori bo'lgan.

Bu ijtimoiy tuzumda ayrim guruhlar dehqonchilik ho'jaligi bilan mashg'ul bo'lganlar. Shuningdek, uy chorvachiliga bilan shug'ullanuvchilar, ixtisoslashgan hunarmandchilik, qurilish ishlari, umuman, ishlab chiqaruvchilar bor edi. Undan tashqari, ishlab chiqarish jarayonida band bo'lmagan yoki ho'jalik ishlari bilan kamdan-kam shug'ullangan shaxslar mavjud bo'lgan. Bu toifaga uy-qo'rg'on egalari, jamoa oqsoqollari, diniy arboblari, tuman va viloyat hokimi kabilar kiradi. Ularning barchasi jamiyat ishlab chiqarish tartibi va hayotidagi tutgan o'rni bilan

farqlanganlar.

O'rta Osiyo va O'zbekistonda ilk davlatlar dehqonchilik iqtisodi, ixtisoslangan hunarmandchilik ajralib chiqishi tufayli shakllangan shahar markazlari asosida paydo bo'lgan. Arxeologik ma'lumotlar masalaning muhim ijtimoiy-siyosiy muammolarini yoritishga imkoniyat yaratadi²⁷.

O'tgan asr oxiri va asrimiz boshlarida «Avesto»dagi ma'lumotlar O'rta Osiyo viloyatlarining Aryoshayyona bo'yicha birlashmasi, Gekatey va Gerodot asarlaridan kelib chiqqan «Katta Xorazm» masalasi, shuningdek Ktesiyning qadimgi Baqtriya podsholigiga haqidagi ma'lumotlari O'rta Osiyo va O'zbekiston xududidagi ilk davlatlar tarixini o'rganish uchun asos bo'lib hizmat qildi.

O'zbek xalqi va uning ajdodlari davlatchilik tarixi turli o'troq dehqonchilik viloyatlari tarixi bilan boshanadi. Qadimga Xorazm davlati shular jumlasidadir. Ahamoniylardan oldingi davrda Xorazmda kuchli davlat vujudga kelgan.

Xorazmda miloddan avvalgi VII-VI asrga mansub katta-katta sug'orish inshootlarining izlari topib tekshirilgan. Amudaryoning o'rta va quyi oqimi yerlarida joylashgan Xorazm davlati hududidan miloddan avvalgi VII asrning oxiri V asrga oid ko'pdan-ko'p uy-qo'rg'onlar, qishloq va shahar harobalari topib tekshirilgan. Qadimgi Xorazm shahar markazlaridan biri Ko'zaliqir mudofaa devorlarining tuzilishi bilan Baqtriyadagi Qiziltepa shahar devorlarining tuzilishida ancha o'xshashliklar topildi. Topib tekshirilgan moddiy manbalar ilktemir davridagi Xorazm, Marshyona, So'g'diyona va Baqtriyada bir-biriga yaqin madaniyatlar rivoj topgani haqida dalolat beradi.

Baqtriya davlatning rivoj topishi sanasini miloddan avvalgi 700-540 yillar bilan bog'lash mumkin. Yanada qadimgiroq ma'lumotlar, ya'ni miloddan avvalgi IX-VIII asrlarga oid arxeologik manbalar yirik Baqtriya davlati haqidagi ma'lumotlarni tasdiqlamaydi. Bu davrga oid qadimgi Baqtriyaning eng katta manzilgohlari egallagan maydoni 2 gektardan ziyod emas, ularning mudofaa

²⁷ Древнейшие государства Кавказа и Средней Азии // Отв. Ред. Г.А. Кошеленко. – М., 1985; Insoniyatning ilmiy va madaniy merosi – uchinchi ming yillikda // Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligiga bag'ishlangan Xalqaro simpozium tezislari. - T., 1997; Исаков А.И. Саразм (к вопросу становления раннеземледельческой культуры Зарафшанской долины. Раскопки 1977-1983 гг.). – Душанбе, 1991; Исамиддинов М.Х., Сулейманов Р.Х. Еркурган (стратиграфия и периодизация). – Т., 1984.

devorlari yoki hunarmandchilik ishlab chiqarish qoldiqlari topilmagan. Shu davrga oid Baqtriya hududida mustahkamlangan yirik qal'alar bo'lmagan. Miloddan avvalgi IX-VIII asrlarda O'rta Osiyo tuprog'ida dastlabki kichik davlatlar va harbiy siyosiy birlashmalar paydo bo'lgan.

Ktesiyning «Persika» asarida qadimgi Baqtriya davlati haqida, turli-tuman istehkomlar va qal'alar to'g'risida, davlatning axolisi ko'p sonli bo'lganligi haqida, Ossuriya podshosi Nin va Baqtriya podshosi Oksiart urushlari haqida va boshqa ma'lumotlar keltirilgan.

Keyinga yillarda Baqtriya tuprog'ida o'tkazilgan arxeologik qazishlar natijasida topib tekshirilgan dastlabki shahar va qal'alarning moddiy manbalari uzoq o'tmish tarixiy voqealaridan dalolat beradi. Miloddan avvalgi VII-VI asrlarda Baqtriyada dehqonchilik ho'jaligi, hunarmandchilik va savdo yuksak darajada rivojlangan. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishi xususiy mulkchilik va ayirboshlashni keltirib chiqargan, homashyo va hunarmandchilik buyumlari savdo mahsulotiga aylangan. Baqtriya yeridagi Badaxshonda qazib chiqarilgan lojuvard Eron va Mesopotamiya mamlakatlariga olib borilgan. Baqtriyadan oltin, qo'rg'oshin hamda qalayi Ossuriyaga olib borilgan bo'lishi mumkin. Ahamoniylar davrining yozuvlari O'rta Osiyodan Eronga oltin, feruza, lojuvard, ot va tuyalar, hunarmandchilik buyumlari ko'plab olib borilganidan xabar beradi. Savdo-sotiq rivojlanishi asosida madaniy munosabatlar tez taraqqiy etadi.

Yozma va arxeologik manbalar qadimgi Baqtriyada dastlabki shaharlar rivojlanishi jarayonini aniqlash imkonini beradi. Ktesiyning ta'kidlashicha, Baqtriyaning markazi Baqtra shahri bo'lgan. Baqtriyaning boshqa markazlari Qiziltepa, Oltindilyortepa, Boytudasht, asosan ayrim viloyatlarda harbiy ahamiyatga, hunarmandchilik va savdo-sotiq ahamiyatiga ega bo'lgan. Bu davrda Baqtriya hududida qadimgi o'troq aholining oltidan kam bo'lmagan - Balxob, Surxon, Qunduz, Kofirnihon, Vaxsh va Panj viloyatlari bo'lib, ular o'zida 30 ta vohani birlashtirgan.

Bu viloyatlar aholisining madaniy munosabatlari, ho'jaliklar rivojlanishining bir-biriga o'xshashligi, ishlab chiqaruvchi kuchlarning va ijtimoiy-iqtisodiy

munosabatlarining yaqin darajasi, umumiy joylashuv xududi siyosiy vaziyatga bog'liq bo'lgan xududiy uyushmalar, viloyatga qaraganda kengroq, masalan, yozma manbalardan «mamlakat»ga to'g'ri kelishi taxmin qilinadi. Ammo bunday uyushmalarga uncha katta bo'lmagan ma'muriy hududiy tashkilotlar poydevor bo'lar edi.

Aholi aralash xududlarda joylashgan o'troq viloyatlar siyosiy uyushmalarining shakllanishini kuchaytirgan omillaridan biri tashqi hujum xavfi bo'lib, u ayniqsa dashtlardagi ko'chmanchi qabilalar tomonidan kuchayib borgan. Miloddan avvalgi VII-VI asrlarda O'rta Osiyo va Qozog'istonning ko'pgina tog'lik va dasht viloyatlaridagi ko'chmanchilar qurol-yarog' rivojlantirish sohasida katta yutuqlarga erishib mahalliy o'troq dehqonchilik aholi uchun juda havfli harbiy kuchga aylanganlar.

Miloddan avvalgi VII-VI asrlar O'rta Osiyo shaharlarida mudofaa tizimi birinchi darajali ahamiyatga ega bo'ladi. Mustahkam devorlar, mudofaa burjlari, xandaqlar himoyalaniish va hujum qurollari - nayzalar, o'qlar, hanjarlar, jangovar boltalar va o'q sifatida ishlatigan tosh yadrolar paydo bo'ladi. Bu ma'lumotlar doimiy harbiy to'qnashuvlar va siyosiy qarama-qarshiliklardan dalolat beradi.

O'rta Osiyoning o'troq dehqonchilik viloyatlarida davlatchilik tizimiga o'tish jarayoni juda erta, miloddan avvalgi II ming yillikning o'rtalarida boshlandi. Miloddan avvalgi IX-VIII asrlarda «Avesto»da «Aryoshayyona» yoki «Arenam Vayjo» nomi bilan mashhur bo'lgan qadimga siyosiy birlashma tarkib topgan. Bu birlashma harbiy ahamiyatga ega bo'lgan. Shu bilan birga Zarafshon, Qashkadaryo, Surxon va Murg'ob vohalarida mayda davlat tashkilotlari rivojlangan. Miloddan avvalgi VII-VI asrlarda qadimgi Xorazm va qadimgi Baqtriya misolidagi yirik davlat uyushmalarining vujudga kelishi haqida ta'kidlash lozim.

Ushbu uchta davr o'zbek xalki ajdodlari tarixida ham davlatchilik tizimiga o'tish bosqichi va O'zbekiston hududida ilk davlatchilikning shakllanishi va rivojlanishi bosqichlari bo'lib hisoblanadi²⁸.

²⁸ Древнейшие государства Кавказа и Средней Азии // Отв. Ред. Г.А. Кошеленко. – М., 1985; Исамиддинов

Miloddan avvalgi II mingyillik oxiri va I ming yillik boshlari O'rta Osiyoda qabila va xalqlarning keng ko'lamli ko'chishi, ilk temir davrining boshlanish davri bo'lgani bilan e'tiborlidir.

Bu davrda O'rta Osiyoning asosiy tarixiy-madaniy hududlari - Baqtriya, Marg'iyona, So'g'd, Xorazm shakllangan. Bu davrda ushbu mintaqada dastlabki shaharlar - dehqonchilik vohalarining markazlari paydo bo'ladi, ilk davlatlar tashkil topadi. Shu davrdan boshlab O'rta Osiyoda shahar madaniyati uzluksiz, jadal sur'atlar bilan rivojlanib boradi.

Sirdaryo va Amudaryo oralig'ida, Zarafshon va Qashqadaryo vohalarida qadimgi so'g'd elati va o'troq dehqonchilik madaniyati shakllanadi. Qashqadaryoda miloddan avvalgi birinchi asrning boshidan ikkita asosiy voha - Qarshi va Shahrisabz vohalari shakllanadi. Aleksandr Makedonskiy bilan birga yurtimizga kelgan yunon tarixchilari milodning IV asri oxirida Qashqadaryo vodiysidagi ikkita tarixiy-madaniy viloyat - Nautaka va Nikshapani eslab o'tishadi.

Qarshi vohasining qadimiy poytaxti - Yerqo'rg'on shahristoni hozirgi Qarshi shahri Shayxali mahallasidan 2 kilometr shimolda joylashgan tuproq qal'a bo'lgan. Yerqo'rg'on 50-60-yillarda dastavval S.Kabanov va M.Masson tomonidan o'rganilgan. XX asrning 70-80-yillarida esa O'zbekiston Fanlar akademiyasi Arxeologiya institutining ekspeditsiyasi tomonidan bu erda ilmiy arxeologik tadqiqotlar olib borilgan. Yerqo'rg'on hududi turli hajmdagi tepaliklar bilan qoplangan bo'lib, ular sobiq shahar vayronalaridir. Eng yirik tepalik hukmdor saroyi ekani aniqlangan. Shuningdek, qazuv ishlari davomida shahar butxonasi, maqbara, zardushtiylik dahmasi, hunarmandlar mahallalari topilgan. Yerqo'rg'ondagi shahar taxminan VI asrning ikkinchi yarmida Turk xokonligi va Sosoniylarning birlashgan kuchlari tomonidan eftalitlar davlatini yakson qilish paytida vayron qilingan²⁹.

Miloddan avvalgi birinchi ming yillikning o'rtalarida shahar kengayib

М.Х. Истоки городской культуры Самаркандского Согда. – Т., 2002; Сулейманов Р.Х. Древний Нахшаб. – Ташкент-Самарканд, 2000

²⁹ Кabanov С.К. Нахшаб на рубеже древности и средневековья. – Т., 1977; Кabanov С.К. Культура сельских поселений Южного Согда III-VI вв. – Т., 1981; Массон М.Е. Столичные города в области низовьев Кашкадарьи с древнейших времен. – Т., 1973; Сулейманов Р.Х. Древний Нахшаб. – Ташкент-Самарканд, 2000.

boradi. U 35 gektarlik maydonni egallaydi. Taxminan miloddan avvalgi VI asrda qurilgan yangi mudofaa devorining balandligi 8 metr, poydevori 3 metr kenglikda bo'lgan. U shaharni sak chavandozlaridan himoya qilgan. Vaqt o'tishi bilan u bir necha marta ta'mirlangan va kengaytirilgan, IV asrning o'rtalariga kelib, uning qalinligi 20 metrga yetgan.

Miloddan avvalgi III-II asrlarda Yerqo'rg'on o'rnidagi shahar rivojlanib borgan, buni arxeologik topilmalar tasdiklaydi. Jumladan, sopol buyumlarning shakli o'zgara boshlagan. Bular nafis jomlar, ovqat solinadigan idishlar, laganlardir, ayni paytda bu davrda vohada koroplastika san'ati vujudga kela boshlaydi. Bu davrdagi noyob terrakota rasmlar va bezaklar ellincha usulda yasalgan. Qazilmalar mobaynida topilgan momaqaldiraq xudosi Zevs tasviri tushirilgan miloddan avvalgi V-IV asrlarga mansub etruskcha gemmaintaliya ham shu davrga oiddir. Soqolli yalang'och mavjudot yarim burilgan holda chap qo'lida Zevsning hamrohi - burgut qo'ngan asoni ushlab turgan tarzda tasvirlangan.

Qarshi vohasi qadimgi va o'rta asrlarda nahshab nomi bilan mashhur bo'lib, u Qashqadaryo daryosining kontinental deltasi zonasida joylashgan edi. Bu joy qadimiy sharqona dehqonchilik bilan shug'ullanish uchun juda qulay hudud hisoblangan. Shunga qaramay, eneolit va bronza davrlariga oid bo'lgan ilk dehqonchilik madaniyati bilan bog'liq yodgorliklar haligacha ma'lum emas. Aksincha, qo'shni mintaqalarda, baqtriya, marv va zarafshonning yuqori oqimida eneolit va bronza davriga oid madaniyat o'choqlari ma'lum. Nahshabda bu davrga oid madaniyat o'choqlari o'z vaqtida mavjud bo'lgan, biroq ular Qashqadaryo daryosining agrar-sug'orish ishlari natijasida katta qatlam bilan ko'milib ketgan. Yerqo'rg'on, muddintepa va boshqa shu kabi hududlardagi arxeologik qazishmalar shuni ko'rsatmoqdaki, eramizgacha bo'lgan madaniy qatlamlar hozirgi kundagi qatlamdan bir necha metr chuqurda joylashgan. Binobarin, eneolit va bronza davriga oid qatlamlar ushbu vohada mavjud bo'lgan va ular yanada chuqurroqda joylashgan degan ilmiy taxminlar mavjud.

Bizga ma'lum bo'lgan Qarshi vohasining tarixi ilk temir asrlaridan boshlanadi. Bu davrda mil. avv. II asr oxiri va I asr boshlarida O'rta Osiyo tarix

sahnasida yangi etnomadaniy jarayon boshlanadi. Cho'l hududlarida qorasuq qabilasining madaniy an'alariga rioya etuvchilar tarqaladi, Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon, Qashqadaryo daryolarining yuqori va quyi hududlarida qadimgi va o'rta asrlardan ma'lum bo'lgan o'rta osiyoning asosiy tarixiy-madaniy jarayonlari shakllandi. Bu davrda Baqtriya, Marv, So'g'd, Xorazm va Markaziy Osiyoning boshqa qadimgi etnomadaniy toponimlari shakllandi. Yirik dehqonchilik vohalari rivojlandi va ularning markaziy hududlari himoya devorlari bilan o'raldi.

Mil. avv. I ming yillikka oid sopol buyumlari janubdan shimolgacha keng tarqalgan edi. Qashqadaryo vohasi kulolchilik buyumlari baqtriya uslubi bajarilgan. Samarqanddagi Afrosiyob va Ko'ktepa so'nggi yillarda olib borilgan arxeologik qazishmalar davomida esa, bu erda burg'uliy uslubidagi sirdaryoning o'ng qirg'og'i madaniyatiga yaqin kulolchilik buyumlari kompleksi topildi. Ilk temir asrlariga oid Naxshab va Qarshi vohasida topilgan qadimgi buyumlar erqo'rg'on shahrining ichki qatlamidan topildi. Bu davrga oid oz miqdorda topilgan idishlar orasida qizil fonga qo'l bilan yozilgan va idishlarni suvda yuvsa yuvilib ketadigan yorqin fonga qizil bo'yoq bilan yozilgan bezaklar mavjud³⁰. Shunday qilib, so'g'dning ilk temir madaniyati kelib chiqishi, Aleksandr Makedonskiy davrida Amudaryodan Sirdaryogacha meridional yo'nalishda tarqalgan bo'lib, geterogen rivojlanish xususiyatiga ega. So'g'dning ilk voha va shaharlari barpo etilishi davrida aleksandargacha yarim ming yil avval zarafshon vohasidagi shahar tipidagi qadimgi madaniyat o'choqlari sirdaryoning o'rta oqimi bilan bog'liq edi. Bu esa Qashqadaryo vohasining moddiy madaniyati o'rta va yuqori oqimdagi Baqtriya va Marvning ilk shahar madaniyatlari bilan genetik bog'langanligidan dalolat beradi.

³⁰ Кабанов С.К. Нахшаб на рубеже древности и средневековья. – Т., 1977; Кабанов С.К. Культура сельских поселений Южного Согда III-VI вв. – Т., 1981; Массон М.Е. Столичные города в области низовьев Кашкадарьи с древнейших времен. – Т., 1973; Сулейманов Р.Х. Древний Нахшаб. – Ташкент-Самарканд, 2000.

3. So'g'dning buyuk shaharlari haqida manbalar.

1. Samarqand va Qashqadaryo vohasidagi so'g'diy shahar xarobalarining o'rganilishi

Ko'plab horijiy olimlar tomonidan «Markaziy Osiyoning yuragi» deb atalgan Sug'd – Sug'diyona o'lkasining qadimiy tarixiga e'tibor mustaqillik yillarida yanada kuchaydi. Markaziy Osiyoning qadimiy shaharsozlik madaniyati beshiklaridan hisoblangan bu yurtida bir vaqtda to'rtta shahar paydo bo'lgan va gullab yashnagan. Aynan mana shu shaharlar tarixi yurtimizning shaharsozlik madaniyati va davlatchiligi tarixining shonli bosqichini namoyon etadilar. Bular **Marakanda, Basileya, Nikshapaya va Kish** shaharlaridir. Bu maqola ushbu shaharlar to'g'risida, ularning xarobalari bizning kunlargacha qaysi arxeologik yodgorliklar ko'rinishida yetib kelganlar va ularning tarixi qay darajada o'rganilganligii xususida.

Bu jarangdor nomlar hozirgi zamon tillari va tovushlari nuqtai - nazaridan qaralganda yevropacha atamalarga o'xshab ketsada, ular bizning o'lkamizda bir paytlar muomilada bo'lgan qadimiy mahalliy tillarda nomlanganlar. Bu shaharlar nomlari etimologiyasi butunlay noma'lum.

Marakanda. Samarqandning qadimiy nomi bo'lib keyinchalik Smarakanda, Samarkand, Samarqand atamalari bilan yuritilgan. Marakanda nomi yurtimizni bosib olgan Aleksandr Makedonskiy – Iskandar Zulqarnayn armiyasi bilan birga bu tuproqqa qadam bosgan yunon tarixchilari asarlarida, bu yurtida kechgan turli-tuman voqealarni hikoya qilinishi jarayonida ko'plab marta tilga olinadi. Bu shaharning bizning kunlargacha yetib kelgan xarobalari bo'lmish Afrosiyobda salkam bir asrdan beri arxeologik qazishmalar olib boriladi va mana shu tadqiqotlar natijalari bois o'tgan asrning 70-yillarida Samarqand shahrining 2500 yilligi sanasi nishonlangan. Shahar xarobalarida o'sha davrgacha qo'lga kiritilgan arxeologik moddiy manbalar va tarixiy ma'lumotlar mana shunday ilmiy xulosa chiqarishga asos bo'lganlar. Uzoq yillar davomida tarixshunoslik va arxeologiya fanlarida «O'rta Osiyoda qadimda shaharlar qurilmagan va shaharsozlik madaniyati bizning yurtimizga Ahmoniylar imperiyasi hukmronligi davrida

Yaqin Sharq va Eron tomonidan kirib kelgan degan» g'oya hukmronlik qilib kelgan. 2500 yillik sana ham mana shu g'oyani tasdig'idek edi.

O'tgan asrning 80–yillarda O'zbekiston Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti olimlari tomonidan Surxondaryo viloyati Sherobod tumani hududida ilk shahar xususiyatlarini o'zida aks ettirgan va yoshi deyarli uch yarim ming yilga teng bo'lgan shaharmonand Jarqo'ton yodgorligi topildi va bir necha o'n yil davomida bu yodgorlikda arxeologik qazishma ishlari olib borildi. Bu ulkan qamrovdagi arxeologik tadqiqotlar O'rta Osiyoda qadimiy shaharsozlik madaniyatining shakllanishi Ahmoniyar kelishidan ming yillar avvalroq boshlanganligini ilmiy isbotlab berdi. Keyingi yillardagi tadqiqotlar esa bu kashfiyotning to'g'riligini yanada mustahkamladi.

O'tgan asrning 90-yillarida Samarqandning qadimiy o'rne bo'lmish Afrosiyobda, shahar arkining janubiy-sharqiy qismida, Ahmoniyar davrida bundan 2500 yil avval qurilgan devorlar ostidan bulkasimon shaklga ega bo'lgan yirik xom g'ishtlardan qurilgan yanada qadimgiroq shahar mudofaa devorlari qoldiqlari, ularning ostidan esa loydan ko'tarilgan devorsimon inshoot (rus tilida – val) topildi. Xom g'ishtli g'oyat ulkan bu devorning qalinligi 7 – 10 metrni tashkil etgan. Bu devorlar bunyod etilgandan keyin ma'lum muddat o'tgach ta'mirlanganlar va yana 3 - 4 m qalinlashganlar. Mana shu asosda Samarqand Rim tengdoshi ekanligi va uning yoshi 2750 yildan kam emasligi ilmiy isbotini topdi.

Ahmoniyar hukmronligi davriga kelib esa ushbu qadimgi shahar devorlari qaytadan ta'mirlangan va bu davrda butunlay yangi xususiyatga ega, ichida koridori bo'lgan devorlar ham bunyod etilgan.

Eramizdan avvalgi 329 yilda Marakandaning mudofaa devorlari ostida Aleksandr Makedonskiy boshliq yunonlar armiyasi paydo bo'ldi. Aleksandr shaharni ishg'ol etish uchun dastlab lashkarboshi Menedem boshchiligidagi qo'shinni yuborgan. Bu qo'shin sug'diylar tomonidan tamomila qirib tashlangan. Qudratli Ahmoniyar imperiyasining asosiy harbiy kuchlarini qisqa muddatlarda tamomila tor-mor qilgan iste'dodli sarkarda Aleksandr, bu saltanat tarkibiga kirgan uzoq bir viloyatda bu qadar kuchli va jangavor xalqlarga ro'para kelishini

xayoliga ham keltirmagan edi. Kursiy Rufning yozishicha bu magʻlubiyat Aleksandrning sharqqa yurishidagi dastlabki hamda eng katta magʻlubiyati edi.

Sugʻdiylar va ular bilan Oʻrta Osiyoda birgalikda yashayotgan mahalliy qadimiy xalqlar, yonma-yon umr kechirayotgan yarim koʻchmanchi va koʻchmanchi qabilalar Iskandar qoʻshinlariga qarshi Spitamen va nomlari bizgacha yetib kelmagan boshqa sarkardalar boshchiligida bir necha yillar davomida matonat bilan kurashganliklari tarixdan maʼlum. Lekin biz bu oʻrinda ushbu jangavor voqealar tafsilotlariga toʻxtalib oʻtirmaymiz.

Marakanda ishgʻol etilgandan keyin Iskandar tomonidan bu shaharda katta qurilish ishlari amalga oshiriladi, koʻplab inshootlar yunon meʼmorchiligi asosida bunyod etiladi, koʻplab shaharlarda ahmoniyalar va undan oldin bunyod etilgan mudofaa devorlari tubdan taʼmirlanadi, koʻplab shaharlar atrofida yangi mudofaa devorlari paydo boʻladi. Shu davrda Oʻrta Osiyoda sof ellinistik koʻrinishdagi bir qator shaharlar ham bunyod etilgan. Bunday qurilishlarga sabab, birinchidan, Iskandarning sharqqa yoʻnaltirilgan istilochilik yurishlaridagi bosh maqsadlaridan biri mana shu oʻlkalarga ellin madaniyatini joriy etish boʻlsa, ikkinchidan, bu devorlar Iskandarning hujumlari paytida oʻz shaharlari va qishloqlarini tashlab ketgan mahalliy aholi va ularga ittifoqchi boʻlgan jangavor va jasur qabilalarning hujumlaridan bu shaharlarga joylashtirilgan yunon qoʻshinlarini himoya etishlari lozim edi.

Marakandaning keyingi davrlarga oid boy tarixiga toʻxtalib oʻtirmaymiz va bu maqolaning maqsadi emas. Eramizdan avvalgi VIII asrning oʻrtalarida paydo boʻlgan Marakanda (Samarqand) shahri Sugʻdning asosiy poytaxti sifatida deyarli ikki ming yil davomida bir joyda faoliyat koʻrsatgan va 1220 yilda Chingizxon boshliq moʻgʻullar qoʻshinlari tomonidan tamomila vayron qilingan. Uning xarobalari bizning kunlargaacha Samarqand shahri hududi joylashgan mashhur arxeologik obida - Afrosiyob yodgorligi koʻrinishida yetib kelgan.

Vayronaga aylangan Samarqand tez orada qadimiy shaharning janubida joylashgan oʻrta asr rabodi oʻrnida qaytadan tiklangan. Amir Temur davrida esa tamomila qaytadan qurilib sohibqiron tomonidan bunyod etilgan ulkan saltanatning

poytaxtiga aylangan.

Shu tariqa o'z o'rnini o'zgartirgan Samarqand Sharqning eng go'zal shaharlaridan biri sifatida hozirgi kunlarda ham faoliyat ko'rsatmoqda.

BasileY. Jahon tarixshunosligi va arxeologiyasi fanlarida uzoq yillar davomida yunon tarixchilari tomonidan Aleksandr Makedonskiyning Sug'ddagi istilochilik yurishlari davrida bu mamlakatning ikkinchi poytaxti sifatida tilga olingan Basileya shahrining qayerda joylashganligi masalasi katta muammo bo'lib keldi. Ba'zi tarixchilar uni Buxoro tomonda, ba'zilari Qarshi yaqinidagi Yerqo'rg'onda (Nikshapaya), ba'zilari hatto Afg'oniston hududida joylashganligi to'g'risida fikrlarni o'rta tashladilar.

Aleksandr o'zining O'rta Osiyodagi istilochilik yurishlari davrida Sirdaryo bo'ylarini zabt etish uchun jang qilayotgan paytida mahalliy xalqlar Spitamen boshchiligida yunon armiyasi qo'shinlari joylashgan Marakandaga hujum uyushtirib bu shaharni qamal qiladilar. Aleksandr Marakandaga katta qo'shin yuboradi. Qamal oxiriga yetmaganligi sababli, ham ichkaridagi qo'shinning qarshiligi, hamda unga yordamga yetib kelgan qo'shinga kuchi yetmasligini tushungan Spitamen (yunon tarixchisi Arrianning yozishicha) «*Marakanda arkidan qamalni tushirib shimolga Sug'diyona Basileyasi (poytaxti)ga ketdi*». Sug'dning ikkinchi poytaxti ham mavjud bo'lganligini juda ko'plab tarixchilar hamisha e'tirof etganlar.

O'tgan asrning 90-yillari o'rtalaridan boshlab o'zbek va fransuz arxeologlarining birgalikda olib borgan tadqiqotlari natijasida Samarqanddan 30 km shimolda, Chelak shahri yaqinida joylashgan Ko'ktepa yodgorligida eramizdan avvalgi X - IX asrlarda paydo bo'lgan qadimiy shahar xarobalarining topilishi fandagi ko'plab ilmiy muammolarni, jumladan Basileya shahrining joylashgan o'rnini xususidagi taxminlarni oydinlashtirishga olib keldi.

Ko'ktepa yodgorligining ochilishi o'zbek arxeologiya fanining mustaqillik yillaridagi eng katta kashfiyotlaridan biridir. O'n yildan beri tinimsiz davom etayotgan arxeologik qazishmalar davomida shahar arki va mudofaa devorlari, shahar aholisining turar-joylari, shahar markazida qad ko'targan va maydoni 1 gektar bo'lgan mahobatli saroy, uning yonida esa xuddi shuncha maydonni

egallagan ulkan zardushtiylik ibodatxonasi xarobalari ochildi. Siyosiy va diniy xarakterga ega bu ulkan inshootlarning mavjudligi mana shu paytda bu hududda kuchli davlat apparati faoliyat yuritganligini ko'rsatuvchi ilmiy dalillardir. Ko'ktepa O'rta Osiyoda ilk paydo bo'lgan qadimiy shaharning barcha me'moriy xususiyatlarini to'la namoyon etgan tom ma'nodagi etalon yodgorlik bo'lib jahon arxeologiyasi va tarixshunosligi fanlarida o'z o'rnini topdi. Ko'ktepa yunon tarixchilari tomonidan tilga olingan Sug'dning dastlabki poytaxti - Basileyaning bizgacha yetib kelgan xarobalari ekanligi ilmiy jihatdan tamoman isbotlandi va fanda to'la e'tirof etildi.

Marakanda (Samarqand), Nikshapaya (Naxshab, Nasaf, Qarshi) va Kish (Kesh, Shahrisabz) shaharlarining paydo bo'lish davrlari arxeologik tadqiqotlar natijasida to'la isbotini topgan bo'lsada, bu shaharlar ichida eramizdan avvalgi IX - VIII asrlarga oid saroy, ibodatxona va boshqa jamoat binolari hozircha ochilgani yo'q. Ko'ktepaga tadqiqotlar bu shaharlarda ham saroylar, ibodatxonalar va boshqa me'moriy inshootlar mavjud bo'lganligini ko'rsatadi, ularning me'moriy xususiyatlarini, qolaversa Sug'dning eng qadimiy shaharlarining ichki qiyofasini to'la tasavvur qilish imkonini beradi.

Aleksandr Makedonskiy bu shaharni ishg'ol etgan paytda u ichki va tashqi shahardan iborat bo'lgan va umumiy maydoni taxminan 100 gektarni tashkil etgan. Aleksandr davrida uning 23 ga maydonni egallagan ichki shahrining mudofaa devorlari ta'mirlangan. Hozirgi kunlarda uning ichki shahrining xarobalari to'laligicha va 1 km uzunlikda tashqi shahrining mudofaa devorlari qoldiqlari saqlanib qolgan.

Eramizdan avvalgi X - IX asrlarda shakllangan Basileya shahri bu yerda olti yuz yildan ortiqroq vaqt davomida faoliyat ko'rsatgan. Eramizdan avvalgi III-asrda esa bizga noma'lum bo'lgan sababga ko'ra o'z faoliyatini to'xtatadi va 4 km shimoliy - g'arbda, hozirgi Chelak shahri o'rnida qayta bunyod etiladi.

Arxeologik tadqiqotlardan ma'lumki, Qadimgi Sharqning, jumladan O'rta Osiyoning ham bir qator qadimiy shaharlari tarixiy rivojlanish bosqichlarida o'zlarining dastlabki o'rinlarini bir necha marta marta o'zgartirib ma'lum masofa

narida qayta qad rostlaganlar. Qarshi va Shahrisabz shaharlari o'z joylarini ikki marta o'zgartirganlar, Samarqand, Termiz va Toshkent shaharlari bir marta, va Buxoro shahri esa o'z joyini deyarli o'zgartirmasdan bitta joyda muqim faoliyat ko'rsatgan. Shu asnoda Basileya ham o'z joyini bir marta o'zgartirib hozirgi Chelak o'rniga ko'chgan.

Chelak shahri xarobalari ilk bora 1940 yilda arxeologlar I.A.Suxarev va P.F.Liferenkolar tomonidan tadqiq etilgan va shaharchaning topoplani qog'ozga tushirilgan. Shaharcha shimoliy va janubiy qismlardan iborat, ularning o'rtasida maydoni 100 X 70 m, balandligi 18 m bo'lgan ulkan ark joylashgan. Hozirgi kunlarda arkning xarobalari juda kichik maydondagina saqlanib qolgan. Shaharning janubiy qismining maydoni 20 ga bo'lib hozirda bu joylar zamonaviy turar-joylar tagida qolib ketgan va bir necha joyda tashqi mudofaa devorining xarobalari saqlangan. Yodgorlikning shimoliy-sharqiy qismida uning qadimiy mudofaa devorlari taxminan 200 m atrofida juda yaxshi saqlangan. Shimoliy qismining maydoni esa kichikroq, taxminan 15 gektar atrofida. Arkning atrofida esa keng maydondagi sayhonlik mavjud bo'lib, shaharning umumiy maydoni esa 50 gektardan ortiqroq bo'lgan.

1961 yilda bu yerdan tasodifan qadimiy oltin uzuk va to'rt dona juda noyob kumush kosalar topilgan. Eftalitlar davriga oid misgarlik san'atining bu yuksak namunalari «Chelak kosalari» nomi bilan arxeologiya fanida juda mashhur bo'lib Sug'd san'ati tarixi bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlarda hozirgi kunlarda ham ularga doimiy ravishda murojaat qilinadi. Bu topilmalar topilgan joyda 1963 yilda Ermitajning B.I.Marshak boshliq arxeologik ekspeditsiyasi keng qamrovli qazishma ishlari olib borgan va natijada eramizning VIII – asrida sug'diy aslzoda yashagan uyning bir qismi ochib o'rganilgan. Bu yerda o'rganilgan yuqori qatlamlar XI-XII asrlarga, quyi qatlamlar esa eramizning boshlarga oid.

Shahar xarobalari ustida eramizdan avvalgi III-II – asrlardan to XIX-XX – asrlargacha bo'lgan davrlarga oid sopol buyumlarning parchalar ko'plab uchraydi va bu topilmalar bu yerda shahar paydo bo'lgandan to hozirgi kunlarga shahar hayoti tinimsiz davom etganligini tasdiqlaydi.

Hozirgi kundagi muammolardan biri - Chelak shahrining oʻrta asrlarda qanday nom bilan atalganligi masalasi. «Chelak» atamasi esa etnonim boʻlib, XV-XVI asrlarda bu hududga kelib oʻrnashgan qipchoq qabilalaridan birining nomidir. Oʻrta asrlarga (X-XII asrlar) oid yozma manbalarda Samarqanddan 4 - 5 farsax shimolda joylashgan Vedar shahri tilga olinadi. Mashhur sharqshunos olim V.V.Bartoldning yozishicha, Vedar shahrida paxtadan toʻqilgan «vedariy gazlamasi» oʻzining nafisligi, pishiqligi bilan mashhur boʻlgan. Xurosonda vedariy matosidan amirlar, vazirlar, qozilar va boylargina libos tiktirganlar. Arab tarixchisi al-Muqaddasiyning yozishicha vedariy gazlamasini Bogʻdod sultonlari ham yuksak qadrlaganlar.

Bizning fikrimizga, Chelak hududida hozir taʼriflangan, 50 ga maydonni egallagan yirik shahar xarobalari shubhasiz Vedar shahrining bizning kunlarga yetib kelgan qoldiqlaridir. Chunki shaharning joylashgan oʻrni Samarqandga nisbatan olingan masofaga ham tamoman mos keladi, qolaversa shahar xarobalari boʻlishi mumkin boʻlgan bunday yirik arxeologik yodgorlik bu atrofda boshqa mavjud emas.

Keyingi oʻrta asrlarga oid yana bir xujjatlar namunalari borki, bu hujjatlar ham bizning fikrimizni qoʻllab - quvvatlashga xizmat qiladi. Shunisi qiziqki, XIV-XVI asrlarga oid vaqf xujjatlarida Koʻktepa – Chelak hududlari «Sugʻudi kalon», yaʼni «Katta Sugʻd» nomi bilan yuritilgan. Nima uchun Sugʻdning poytaxt boʻlgan Samarqand shahri atroflari emas, balki Koʻktepa-Chelak hududlari bu nom bilan atalganligini eʼtibordan qochirmaslik lozim. Bu holat bizga Koʻktepa – Chelak hududlarining qadimiy mavqeini yana bir bor eslatadi.

Xulosa qilib shuni qayd etish lozimki, eramizdan avvalgi X - IX – asrlarda Koʻktepa oʻrnida shakllangan qadimiy Basileya shahri oʻz oʻrnini bir marta, nomini esa bir necha marta oʻzgartirgan holda hozirgi Chelak shahri koʻrinishida bizning kunlarga yashab kelmoqda.

NikshapaY. Oʻzbekistonning qadimiy shaharsozlik madaniyati tarixi va rivojida Kashqadaryo vohasida joylashgan Qarshi shahri juda muhim oʻrin egallaydi. Nikshapaya, Naxshab va Nasaf hozirgi Qarshi shahrining qadimiy

nomlaridir.

Qashqadaryoning vodiyydan dashtga bir necha o'zanga ajralib chiqish yeriga yaqin joyda, uning Ro'daksoy o'zani bo'yida, miloddan avvalgi VIII-VII asrlarda aholi zich joylashgan dehqonchilik qishlog'i paydo bo'ladi. Ma'lum vaqtdan keyin qishloq kengayib uning atrofi mahobatli mudofaa devori bilan o'rab olinadi va bu yerda ilk shahar shakllanadi..

Eramizdan avvalgi VI asrda, ya'ni Ahmoniyalar hukmronligi davrida Marakanda shahridagi kabi bu shahar devorlari ham tubdan ta'mirlanadi.

Eramizdan avvalgi IV asrda shahar Aleksandr Makedonskiy armiyasi tomonidan ishg'ol qilinadi. Aleksandr kelgan paytda Qashqadaryo vohasida ikkita shahar mavjud bo'lgan. Bu shaharlarning qadimiy nomlari to'g'risida, ularning xarobalari bizning kunlarga qaysi yodgorliklar misolida yetib kelganligi xususida fanda uzoq yillar davomida turlicha qarama-qarshi fikrlar, taxminlar, farazlar hukm surdi. Bu shaharlar olimlar tomonidan qadimgi Yunon va Xitoy manbalariga tayaniga Ksenippa, Nautaka, Nashebo, Nashebolo, Bolo va hokazo nomlar bilan ataldi. Yaqinda Afg'onistonning shimoliy hududlaridan topilgan qadimiy bir hujjat mana shu tortishuvlarga nuqta qo'ydi.

Bu hujjat qadimgi oromiy tilda eramizdan avvalgi 330 - 320 yillarda mol terisiga bitilgan maktub bo'lib, u Ahmoniyalar saltanati tasarrufidagi Baqtr satrapi (hokimi) tomonidan uning o'z qo'li ostidagi Xulm (*Baqtr (Balx)dan 50 km masofada joylashgan Toshqo'rg'on*) degan shaharcha boshqaruvchisi Bagavanta nomiga yuborilgan. Xatda Nikshapaya va Kish shaharlari atroflaridagi mudofaa inshootlari qurilishini nazorat qilish uchun askar yuborish lozimligi buyurilgan. Bu xatda Nikshapaya (Naxshab) va Kish (Kesh) shaharlari nazarda tutilganligi tarixchi va manbashunos olimlar tomonidan to'la e'tirof etildi.

Eramizning III asridan Nikshapayada shahar qurilishining yangi yuksalish davri boshlanadi. Shahar markazida zardushtiylik ibodatxonasining ulug'vor binosi barpo etiladi, hokim saroyi quriladi, ichki va tashqi mudofaa devorlari tubdan ta'mirlanadi, kulollar va temirchilar mahallalari kengayadi. Bu

davrda Nikshapaya Markaziy Osiyoning yirik va gullab yashnagan shahriga aylanadi.

VI asrda shahar halokatga uchraydi. Turk hoqonligi va Sosoniylar Eroni harbiy ittifoqining Eftalitlar bilan 562-564 yillarda olib borgan urushi Eftalitlar imperiyasining tarix sahnasidan ketishiga va bu davlatining markaziy shaharlaridan biri Nikshapaya (Naxshab)ning tamomila vayron etilishiga sabab bo'ldi.

Eftalitlar imperiyasi tarix sahnasidan ketgandan keyin qaror topgan Turk hoqonligi davrida Nikshapaya (Naxshab) boshqa tiklanmaydi va bu shaharning xarobalari bizning kunlarga hozirgi Qarshi shahridan 10 km shimoliy-g'arbda joylashgan Yerqo'rg'on yodgorligi ko'rinishida yetib kelgan.

Turk hoqonligi davrda Qarshi vohasining yangi markaziga asos solinadi. Qashqadaryoning chap sohilida, Nikshapayadan 3,5-4 km masofada joylashgan, eramizning III - IV asrlarida bunyod etilgan kichikroq qal'a VI - VII asrlarga kelib kengayib vohadagi eng yirik shaharga aylana boradi va tez orada vohaning poytaxti maqomini oladi.

Bu shahar Nikshapaya (keyingi asrlarda uning nomi Nikshapa yoki Nikshap deb ozgina o'zgargan bo'lishi ham mumkin) nomining sal o'zgargan formasi nomi bilan Naxshab, arablar istilosidan keyin esa Nasaf deb yuritilgan. Lekin Naxshab nomi ham Nasaf nomi bilan bir necha asr davomida birga ishlatilib kelingan.

Bu shahar arablar istilosiga qarshi ko'tarilgan Muqanna boshchiligidagi "oq kiyimlilar qo'zg'aloni"ning markaziga aylangan. Qo'zg'alon bostirilgandan keyin shaharda va butun vohada katta qirg'in o'tkazilgan.

Somoniylar va Qoraxoniylar sulolalari davrida Naxshab-Nasaf Movarounnahrning eng yirik eng yirik iqtisodiy va madaniy markazlaridan biri sifatida gullab yashnadi.

Nasafda va Qashqa vohasining boshqa shaharlari va qishloqlarida fanlarning turli yo'nalishlarida ijod qilgan mashhur allomalar riyoziyot, tibbiyot, falakiyot, fikxshunoslik, dinshunoslik, dunyoviy va islom falsafasi, hadisshunoslik, tarix ilmlari bilan mashg'ul bo'lganlar. Manbalarda Nasaf, Samarqand, Balx,

Marv, Bog‘dod kabi shaharlarda yashagan va ijod qilgan yuzlab nasaflik mashhur allomalarning nomlari ma’lum.

1219-1220 yillardagi Chingizxon boshchiligidagi mo‘g‘ullar istilosi davrida Nasaf ham Markaziy Osiyoning o‘nlab shaharlari qatorida tamomila vayron qilindi, bir necha asrlar davomida tarkib topgan jahonshumul madaniyat tamomila tanazzulga uchradi.

Mo‘g‘ullar hukmronligi davrida O‘rta Osiyoda tashkil topgan Chig‘atoy ulusi xonlari Qashqadaryo vohasiga e’tibor bilan qaraganlar. 1318-1326 yillarda ulus xoni Kapakxon qadimgi Nasaf xarobalaridan 4,5 – 5 km janubiy-sharqda Qashqadaryoning chap sohiliga yaqin joyda xon qarorgohi sifatida Qarshi qal’asini bunyod ettirgan. Kebakxon Qarshi qal’asi ichidagi saroyga ulus oliy hokimiyati - xon o‘rdasini joylashtirdi.

Qarshi qal’asining bunyod etilishi bu vohadagi shaharsozlik madaniyatining uchinchi bosqichini boshlab berdi va bu bosqich ayni kunlarda ham davom etmoqda. Bu holat Qarshi shahri o‘zining 2700 yillik tarixiy faoliyati davrida ikki marotaba joyini o‘zgartirganligini ko‘rsatadi.

Kish (Kesh, Shahrisabz). O‘zbekiston hududida shakllangan qadimiy shaharsozlik madaniyati tarixida bu go‘zal shaharning ham munosib o‘rni bor. Hozirgi Kitob shahridan g‘arbda, Zarafshon tizmasidan oqib keluvchi SHo‘robsoy bo‘yida Podayotoqtepa, Uzunqir va Sangirtepa nomli yirik arxeologik yodgorliklar majmuasi mavjud. Bu yodgorliklarda salkam o‘ttiz yildan beri arxeologik qazishma ishlari olib boriladi. Olib borilgan uzoq yillik arxeologik tadqiqotlar natijasida bu yodgorliklar SHo‘robsoy bo‘yida eramizdan avvalgi VIII - VII asrlarda shakllangan qadimiy shaharning bizning kunlargacha yetib kelgan xarobalari ekanligi, qadimiy Keshning shahar sifatidagi tarixi aynan mana shu hududdan boshlanganligi ma’lum bo‘ldi. Shaharning markazi Podayotoqtepa o‘rnida bo‘lgan, bir necha yuz metr ga cho‘zilgan tepalik - Uzunqir esa mahobatli mudofaa devorlarining qoldiqlari, Sangirtepa esa shahar tashqarisida bunyod etilgan yirik ibodatxonaning xarobalari ekanligi aniqlandi.

Xuddi Ko‘ktepadagi kabi bu yerda ham shahar hayoti besh yuz yilcha

davom etib eramizdan avvalgi III - II asrlarda tanazzulga uchraydi va shahar hozirgi Kitob shahri hududidagi Qalandartepa yodgorligi o'rnida qayta qad rostlaydi. Qalandartepada shaharlarga xos bo'lgan, antik davrga oid mahobatli binolarning qoliqlari topilgan. Qashqadaryoning yuqori qismi – Kesh vohasining asosiy markazi bo'lgan bu shahar bu yerda IX-X asrlargacha faoliyat ko'rsatganligi aniq, lekin u hozirgi Shahrisabz o'rniga aynan qaysi asrda ko'chganligi masalasi hozirgacha tamoman aniqlangani yo'q. Ayrim olimlar Shahrisabz o'rnidagi shahar - Kesh XI-XII asrlardan boshlab faoliyat ko'rsatgan degan fikr bildirsalar, boshqa olimlar bu yerda shahar XIV – asrda paydo bo'lgan degan fikrni oldinga suradilar.

O'zR Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti olimlarining 1996 yilda va 2006 yilda Shahrisabz hududida olib borgan arxeologik qazishmalari davrida bir-birlaridan bir necha yuz metr masofada qoraxoniylar davriga oid 50-60 sm qalinlikdagi madaniy qatlamlar topilgan. Bu topilmalar bu yerda shahar hayoti qoraxoniylar davridayoq shakllana boshlagan degan fikrni quvvatlashga xizmat qiladi. Bizning fikrimizcha, bu yerda shahar hayoti Qoraxoniylar davrida shakllana boshlagan bo'lsa kerak, Xorazmshohlar davrida esa uning mudofaa devorlari yo tubdan ta'mirlangan, yoki mana shu sulola davrida qurilish ishlari poyoniga yetkazilgan. Shahrisabzning mudofaa devorlarini tadqiq etgan olimlarning ta'kidlashlaricha, ushbu devorlar lentali paxsadan, ya'ni 10-12 sm qalinlikdagi urilgan paxsadan ko'tarilgan. Hozir ham mudofaa devorlari xarobalarida lentali paxsa juda yaxshi ko'zga tashlanadi. Mana shunday lentali paxsa devor Xorazmshohlar hukmronligi davrida Afrosiyobning mudofaa devorlarini ta'mirlashda keng qo'llanilgan. Shu asosda xulosa chiqaradigan bo'lsak, Keshning hozirgi Shahrisabz o'rniga ko'chishi Xorazmshohlar davrida nihoyasiga yetgan. Amir Temur davriga kelib esa shahar devorlari tubdan ta'mirlangan.

Mana shu tariqa SHo'robsoy bo'yida dastlab paydo bo'lgan qadimiy Kish (Kesh) ikki marta o'z joyini o'zgartirgani holda hozirgi Shahrisabz o'rniga ko'chgan.

Qarshi - Koson avtomobil yo'li ustida joylashgan yirik arxeologik obida -

Yerqo'rg'on Samarqanddagi Afrosiyob, Ko'ktepa, Shahrisabz vohasidagi O'zunqir, Podayotoqtepa, Zarafshonning yuqori oqimidagi Panjakent, Buxorodagi Varaxsha, Surxondaryodagi Sopollitepa, Jarqo'ton, Dalvarzintepa, Xorazmdagi Tuproqqal'a kabi jahon ahamiyatiga molik obidalar qatorida turuvchi yirik va o'ta noyob arxeologik yodgorlik, Janubiy Sug'diyonadagi (Qashqadaryo vohasi) eng yirik markaziy shaharlardan birining xarobalaridir. Bu yodgorlikda olib borilgan o'zoq yillik arxeologik qazishmalar va qo'lga kiritilgan manbalar bu yerda qadimiy shahar eramizdan avvalgi VIII - VII asrlardan boshlab shakllanganligini ko'rsatadi.

Salkam bir yarim ming yillik tarixiy taraqqiyot jarayonida ko'plab voqealarning shohidi bo'lgan shahar eramizning 560 yillarining birinchi yarmida Turk hoqonligi va Sosoniylar davlatining birlashgan ittifoqchi qo'shinlari tomonidan Eftalitlar imperiyasining tugatilish davrida tamomila vayron etilgan. Qariyb bir yuz ellik gektar maydonni egallagan bu ulkan shaharning butunlay vayron etilishi u o'zining butun faoliyati davomida Janubiy Sug'dning eng yirik markaziy shaharlaridan biri bo'lganligin tasdiqlaydi.

Eftalitlar imperiyasi tarix sahnasidan ketgandan keyin qaror topgan Turk hoqonligi davrida Janubiy Sug'dning poytaxti sifatida boshqa bir shahar - Naxshab qad rostlay boshladi. Qashqadaryoning chap sohilida, Yerqo'rg'on xarobalaridan 3,5 - 4 km masofada eramizning III-IV asrlarida paydo bo'lgan kichikroq qal'a eramizning VI - VII asrlariga kelib vohadagi eng yirik qal'a - shaharga aylana bordi. Naxshabning, keyinchalik arablar istilosidan keyin Nasaf³¹ deb atalgan bu yirik shaharning xarobalari bizning kunlarga Shulluktepa nomi bilan ataladigan ulkan arxeologik yodgorlik sifatida yetib kelgan.

Arxeologiya fanida o'rta asrlar manbalarida tilga olingan Naxshab shahrining joylashgan o'rni va uning xarobalari bizning kunlarga qaysi yodgorlik misolida yetib kelgan degan muammoga turlicha munosabatlar mavjud. M.YE.Massonning fikricha qadimiy Naxshab hozirgi Qarshi shahrining janubiy

³¹. Naxshab nomi keyingi asrlarda ham Nasaf nomi bilan parallel ravishda birgalikda ishlatilib kelingan. Xatto XIV asrda bunyod etilgan Qarshi shaxrining darvozalaridan biri ham Naxshab nomi bilan atalgan. Biz bu tadqiqotimizda shaxarning nomini arablar istilosigacha Naxshab, arablardan keyingi nomini esa Nasaf deb ataymiz.

qismida joylashgan ulkan yodgorlik Qal'ayi Zohaki Moron o'rnida bo'lgan (Masson, 1973, s.21). Shulluktepada bir necha yil arxeologik qazishmalar olib borgan B.D.Kochnevning fikriga ko'ra Naxshab hozirgi Shulluktepa o'rnida faoliyat ko'rsatgan (Kochnev, 1974, s.501-502). Qal'ayi Zohaki Moronda M.To'rabekov tomonidan arxeologik tadqiqotlar olib borilgan va yodgorlikning mudofaaa tizimlari tadqiq etilgan (Turebekov, 1990, s.41). Dastlab M.H.Isomiddinov, SH.A.Rahmonov tomonidan boshlangan (Isomiddinov,Rahmonov, 1985) va keyinchalik ushbu satrlar muallifi tomonidan davom ettirilgan qazishmalar natijasida esa yodgorlik arkida VII-VIII asrlarga oid kichikroq qasrning xarobalari ochib o'rganildi (Raimkulov, 1992). Lekin bu qazishmalarning natijalari Naxshab shahri Qal'ayi Zohaki Moron o'rnida mavjud bo'lgan degan xulosa chiqarishga imkon bermaydi, qolaversa o'rta asrlarda Nasafta tashrif buyurgan sayohatchi olimlarning bu shaharga bergan ta'riflari hozirgi Shulluktepaning topografiyasiga, Qashqadaryoga nisbatan joylashishiga tamoman mos keladi va bu yerda olib borilgan arxeologik tadqiqotlarning natijalari ham buni to'la to'kis tasdiqladilar. Shu bois M.YE.Massonning fikri bizning nazarimizda e'tirozli.

Shulluktepaning yodgorlik sifatidagi yuksak mahobati, ark, shahriston va rabod hududida sochilib yotgan yuzlab, minglab qadimiy osori - atiqalarining parchalari, tasodifan topilgan xo'jalik va san'at buyumlari bu yerdan keyingi davrlarda o'tgan sayohatchilarni, olimlarni befarq qoldirmagan.

Shulluktepaga 1883 yilda rus yozuvchisi V.V.Krestovskiy tashrif buyurgan va ma'lum kuzatishlar olib borgan (Masson M.YE. 1973, s.41)

1885 yilda Shulluktepada bo'lgan B.Litvinov shahar xarobalari to'g'risida quyidagilarni yozib qoldirgan: «Qarshi atrofida arxeologiya va tarix uchun eng qimmatli bo'lgan xaroba Shulluktepa qal'asi xarobalaridir. Aholi hozirgacha o'z qurilishlari uchun bu yerdan pishiq gisht olib ketadi, ko'plab uylar, Qarshining mashhur hammomlari mana shu gishtlardan qurilgan. Hozir ham Buxoro bozori Shulluktepadan qazib topilgan ajoyibotlar bilan tula. Ajoyib koshinlar, haykalchalar, mis idishlar, tangalar va qabrtoshlar fanga ko'plab yangiliklar va

qiziqarli narsalarni bera oladigan sergayrat insonni kutmoqda. Mozaik koshinlarga tushirilgan naqshlar, mis idishlarga berilgan tasvirlar bu yerda yashab o'tganlarning yuqori madaniyatidan va nihoyatda nozik dididan dalolat beradi» (Masson, 1973). Keyinchalik B.Litvinov Shulluktepaning qadimgi Naxshab-Nasaf shahrining xarobalari ekanligiga amin bo'lgan.

Shulluktepa xarobalari to'g'risidagi dastlabki ilmiy tadqiqot Zimin L.A. tomonidan nashr etilgan (Zimin, 1927)

Shulluktepa va bu yodgorlikda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar. Shulluktepa To'qmang'it qishlog'i yaqinida, Qarshi shahridan 7-8 km chamasida shimoliy - garbda asosan Qashqadaryoning so'l qirg'og'ida joylashgan. Bu xududda daryoning keng maydonni egallagan yarim doira shaklidagi qayrilishi bo'lib mana shu qayrilish ichida Naxshab-Nasafning arki, shahristoni va rabodi joylashgan. Mana shu qayrilishning yuqori qismida to'g'on boshi bo'lib bu yerdan chiqarilgan sun'iy kanallar juda qadimdanoq Qashqadaryoning o'ng sohilida o'zlashtirilgan katta-katta ekin maydonlarini sug'orishda foydalanilgan.

Naxshabning eng baland joyi uning arki bo'lib u umumiy maydoni 180 x 150 m va balandligi 28 m bo'lgan ikki pog'onali ulkan tepalik ko'rinishida. Arkning shimoliy-garbiy tomonida uning keskin ko'tarilgan qismi bo'lib, u ham o'ziga xos tepalik shaklida va bu tepalik arkning asosiy qismidan 15-17 m baland. Arkni hamma tomondan shahriston o'rab turadi, ular orasida eni 15-20 m bo'lgan chuqur madofaa xandaki (rov) mavjud. Bu chuqurlik arkning janubiy sharq tomonida juda kengayib ketgan va buning oqibatida hozirgi davrda bu yerda kichikroq ko'l hosil bo'lgan. Arkning sharqiy qismida unga deyarli tutashib ketgan tepalik bo'lib mana shu yerda shahristondan arkka o'tiladigan joy bo'lgan. Arkning yon bag'irlari nihoyatda tik bo'lib uning asosiy tepalik bilan tutashib ketgan qismigina nisbatan nishab, shuning uchun arkka olib chiqadigan yul mana shu yerdan o'tganligini tasavvur qilishimiz mumkin.

Bu yerda arxeologik tadqiqotlar olib borgan B.D.Kochnevning hisob kitoblariga qaraganda Naxshab-Nasaf shahristoni to'g'ri to'rtburchak shakliga ega bo'lib maydoni taxminan 450 x 350 metrni tashkil etadi va uning devorlari

qoldiqlarida to'rtta darvozaning o'rnini kuzatish mumkin. Shahristonda olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida uning madaniy katlamlarining qalinligi 8-9 m ekanligi aniqlandi (Kochnev, 1974, s. 501-502). Mana shu ma'lumotlar bu yerda shahar juda uzoq muddat faoliyat yurgizganligi va Naxshab aynan mana shu o'rinda mavjud bo'lganligini arxeologik manbalar asosida isbot qilishga imkon beradi..

Shahristonning shu kunlardagi ustki topografiyasini kuzatib biron-bir fikrga kelish mushkul, chunki bu yerda juda uzoq yillar, balki asrlar davomida shu atrofda yashovchi aholi pishiq g'isht kavlab olib ketish bilan shug'ullangan va bu holat bu yerga tashrif buyurgan rus tadqiqotchilari tomonidan ham ta'kidlangan. Natijada shahristonning ustki topografiyasi tamoman o'zgarib ketgan. Undan tashqari aholi yashamayotgan shahriston xududidan keyingi asrlarda bir necha marta ariqlar o'tkazilgan va nihoyat 1980 yillarning o'rtalarida bu joylar ekin ekishga tayyorlanib tamoman tekislab yuborilgan. Hozirgi kunda uning kichikroq qismlari ark atrofida qisman saqlanib qolgan.

Shulluktepaning arxeologik jihatdan o'rganilishi 1946 yildan boshlangan. Arxeolog S.K.Kabanov Qarshi vohasidagi uzoq yillik arxeologik qazishmalarini mana shu qadimiy shahar xarobalarini o'rganishdan boshlab arkning pastki maydonida va shimoliy qismida dastlabki qazishmalar olib bordi. Shu tariqa qadimiy Naxshab-Nasaf tarixini ilmiy nuqtai-nazardan o'rganishga ilk qadam qo'yildi. S.K.Kabanov o'tgan asrning 50-60 yillarida Qarshi vohasining antik va ilk o'rta asrlarga oid ko'plab qishloqlarini qazishmalar asosida o'rganib bu vohaning qadimiy moddiy madaniyati tarixini tadqiq etishda juda katta ilmiy natijalarga erishdi (Kabanov, 1950, 1977)

1965 yilda Toshkent Davlat Universiteti O'rta Osiyo arxeologiyasi kafedrasining M.YE.Masson boshchiligidagi Kesh arxeologiya topografiya ekspeditsiyasi (KATE) tomonidan Qarshi vohasining bir qator yirik arxeologik yodgorliklari - Qarshi qal'asi, Qal'ayi Zohaki Moron, Shulluktepa, Kasbitepada qidiruv va qisman qazish ishlari olib borilgan va birinchi marta bu yodgorliklarning topografik planlari qogozga tushirilgan, o'rta asrlarga mansub

shaharlar to'g'risida tarixiy manbalar to'plangan. Shu davrda Shulluktepa arkidan 250 m shimoliy-sharq tomonda shurf qazilib va shahar madaniy qatlamlarining stratigrafiyasi qisman o'rganilgan (Masson M.YE., 1973).

1972 yildan boshlab Qarshi vohasining qator arxeologik yodgorliklarida O'zbekiston Fanlar akademiyasi Arxeologiya institutining R.H.Sulaymonov boshliq arxeologiya ekspeditsiyasi olimlari arxeologik qidiruv va qazishma ishlarini boshladilar. Shu tariqa Qarshi vohasining qadimiy va o'rta asrlar shaharlari va shaharsozlik madaniyatini arxeologik tadqiqotlar asosida kompleks ravishda o'rganishga asos solindi (Suleymanov, Isamiddinov, 1984; Suleymanov, 2000). Mana shu davrda, ya'ni 70-yillarda vohaning o'rta asrlar shaharlari xarobalari bo'lgan yodgorliklar - Shulluktepa, Tallisortepa, Kofirtepa, Oltintepada B.D.Kochnev tomonidan bir necha yillar mobaynida keng qamrovli arxeologik qazishma ishlari olib borildi.

B.D.Kochnev tomonidan olib borilgan arxeologik qazishma ishlarining asosiy qismi qadimgi Naxshab-Nasaf xarobalari bo'lgan Shulluktepada amalga oshirildi. Qazishmalar shahar arki, shahristoni va rabodining bir necha joylarida o'tkazildi. Bu qazishmalar davrida Shulluktepa shahristonining Qarshi bosh kanali yuvib ketgan qismlarida ochilib qolgan madaniy qatlamlarni tozalash natijasida ham shahar tarixiga oid juda qimmatli ma'lumotlar to'plandi. Pastki madaniy qatlamlarda III-IV asrlarga mansub ayrim me'moriy inshootlarning xarobalari, sopol idishlarning parchalari tez-tez uchrab turadi va bu manbalar bu hududda yirik qal'a shakllanmasdan ilgari mavjud bo'lgan ayrim kichikroq qishloq xarobalariga tegishli bo'lishi mumkin degan xulosaga asos bo'ladi. Mana shu kichik qishloqlar keyinchalik Naxshab-Nasaf shahrining, aniqrog'i Naxshab-Nasaf qal'asi asosida o'rta asrlar shahristonining shakllanishida boshlangich nuqta bo'lib xizmat qilgan bo'lsalar ham ajab emas.

B.D.Kochnev tomonidan Shulluktepaning shahristonida olib borilgan qazishmalar jarayonida shaharning ko'pgina joylarida V-VI asrlarga oid madaniy qatlamlarning borligi aniqlandi. Bu qatlamlarga xos bo'lgan muhim xususiyatlardan biri - ular barcha qazishmalarda qoramtir rangda uchraydilar va

ularning tarkibida kul, kuygan yogochlar, kuygan qamish parchalarining ko'pligiga ayniqsa alohida e'tibor berildi. Bu qoramtir qatlamlar shaharning keng maydonlarida aynan bir paytda yongin sodir bo'lganligini ko'rsatadi va juda ham muhim bir tarixiy haqiqatni - Shulluktepa o'rnida V-V1 asrlarda faoliyat yurgizgan yirik qal'a eramizning 560 yillarining birinchi yarmida, Turk hoqonligi va Sosoniylar davlatining birlashgan ittifoqchi qo'shinlari tomonidan Yerqo'rg'on shahri bilan bir vaqtda vayron etilganligini isbotlab beradi. Qadimgi dunyoning eng yirik urushlaridan birining oqibatidagi bu vayronagarchilikning isbotini biz Qarshi vohasida olib borilgan arxeologik razvedka ishlarining natijalarini tahlil qilish orqali ham ko'rishimiz mumkin. Vohada olib borilgan arxeologik razvedka ishlar natijasida yuzlab katta-kichik arxeologik yodgorliklar aynan mana shu paytda o'z faoliyatlarini to'xtatganliklari aniqlangan. Buning isboti shundaki, bu yodgorliklardan terib olingan sopollarning parchalari Yerqo'rg'onning eng ustki madaniy qatlamlaridan olingan sopollar bilan aynan bir xil. Mana shu urushda Qarshi vohasidagi yana bir yirik markaz, hozirda xarobalari Qal'ayi Zohaki Moron nomi bilan yuritiladigan ulkan shahar ham vayron etilgan. Ayrim mutaxassislarning fikrlariga ko'ra bu shahar Qarshi vohasining asosiy markazlaridan biri va hatto qaysi bir tarixiy davrda uning poytaxti sifatida ham faoliyat yurgizgan. Arxeologiya fani nuqtai-nazaridan qaraganda Qal'ayi Zohaki Moron Markaziy Osiyoning eng yirik antik davr yodgorligidir. Yerqo'rg'ondan farqli o'laroq, bu shaharning arki ustida keyingi davrlarda qasrlar, mudofaaa devorlari xarobalari ustida ham boshqa inshootlar bunyod etilgan, lekin shahar mudofaaa tizimlari boshqa tiklanmagan va ulardan foydalanilmagan. Xullas, Shulluktepa, Yerqo'rg'on va Qal'ayi Zohaki Moronda olib borilgan ko'p yillik arxeologik tadqiqotlar Turk hoqonligi va Sosoniylar davlatining ittifoqchi qo'shinlari va Eftalitlar o'rtasidagi urush Janubiy Sug'diyona uchun nihoyatda ayanhli tugaganligini ko'plab marta isbotlaydi.

Eftalitlar imperiyasi hududlarini qo'lga kiritgan Turk hoqonligi davrida Yerqo'rg'onning ayrim joylarida kichik-kichik qishloqchalar faoliyat ko'rsatgan bo'lsa (Raimkulov, 1992), Shulluktepa atrofida esa yana asta sekinlik bilan shahar

shakllana boshladi. Arkda hayot qayta jonlandi, uning eng baland qismida kvadrat shakliga ega bo'lgan mahobatli qasr bunyod etildi, qal'a o'rnida paydo bo'lgan shahristonda aholi soni ko'paya boshladi. Yangi shaharning nima uchun Yerqo'rgon o'rnida emas, balki Shulluktepa o'rnida shakllanishining sababi, Turk hoqonligi va Sosoniylar davlatining birlashgan ittifoqchi qo'shinlari tomonidan Yerqo'rgon shahri bilan bir vaqtda bu shaharga suv beruvchi sugorish tarmogi Ro'daksoyning tamomila vayron etilganligi bo'lsa ham ajab emas. Shuning uchun yangi shahar endi to'g'ridan-to'g'ri Qashqadaryo bo'yida qad rostladi.

Shulluktepa shahristonida olib borilgan arxeologik qazishmalar ham bu yerda shahar Turk hoqonligi davrida shakllanganligini tasdiqlaydilar. B.D.Kochnev Shulluktepa shahristonining Qarshi bosh kanali hududini kesib o'tgan qismidan shahriston mudofaaa devorlarining qoldiqlarini topgan. Devor paxsa bloklari va xom gishtlardan bunyod etilgan va bir necha marotaba ta'mirlangan, natijada bir necha yuz yil davomida uning qalinligi quyi qismida 15 metrga yetgan. Fishtlarning o'lchamlari va u yerdan topilgan arxeologik topilmalar bu devorning VI-VII asrlarda qurilganligidan dalolat beradi. Devorning mavjudligi va bu qadar qalinligi Naxshab shahristoni VI-VII asrlarda yirik shaharning yadrosiga aylanganligini isbotlaydi.

B.D.Kochnev tomonidan Naxshab shahristonida arablar istilosiga qadar faoliyat ko'rsatgan hashamatli va nihoyatda mahobatli bir binoning qoldiqlari topilgan. Bu bino ilk o'rta asrlarda ilk marotaba paydo bo'lgan pishiq g'ishtlardan bunyod etilgan. Imorat qoldiqlaridagi pishiq g'ishtlar orasida trapetsiya shaklidagi pishiq g'ishtlar ham ko'plab uchraydi. Bu shaklda maxsus yasalgan pishiq g'ishtlar dastlab Yerqo'rg'onning markaziy ibodatxonasi xarobalarida uchragan, ular yordamida markaziy ibodatxonaning ustunlari terilgan. B.D.Kochnevning taxminiga ko'ra bu bino oldida pishiq g'ishtlardan bunyod etilgan ustunlar qatori, aniqrog'i mahobatli ayvon mavjud bo'lgan. Ustunlarning har birining diametri 1 m bo'lgan. Fishtlarning tashqi tomonlarida kulrang ganchsimon suvoq qoldiqlari ham saqlanib qolgan. Bu imoratning xarobalari uning ulkan bino bo'lganligidan dalolat bergani holda, Naxshabda ham xuddi

Yerqo'rg'on markazidagi kabi shaharning bosh ibodatxonasi qad rostlab turganligini tasavvur qilish imkonini beradi.

Mana shu o'rinda Naxshabning arablar istilosidan avvalgi ilk o'rta asrlardagi diniy dunyoqarashlari to'g'risida ham biroz fikr yuritishni lozim topdik. Yerqo'rg'on va Naxshab markazidagi yuqorida tilga olingan binolar ushbu shaharlarning markaziy ibodatxonalari bo'lganlari holda, shaharlar va ularga qo'shni hududlar aholisi dunyoqarashida dinning o'rnini qay maqomda ekanligini aniqlab beruvchi omillar ham hisoblanadi. Arablargacha bo'lgan davrda Markaziy Osiy hududida otashparastlik, zardo'shtiylik, mazdakiylik, moniylik, xristianlik va boshqa mayda dinlarga e'tiqod ilgan aholi yashagan. Shunisi e'tiborga loyiqki, ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyoda ma'lum ma'noda ko'pdinlilik va diniy e'tiqodlar erkinligi muhiti mavjud bo'lgan. Bu davrda bironta ham dinga davlatning rasmiy dini maqomi berilmagan, birorta din boshqasidan ustun qo'yilmagan. Mana shu holat Naxshab uchun ham xos bo'lganligi bu yerda olib borilgan arxeologik tadqiqotlarda o'z aksini topgan.

So'ngi antik va ilk o'rta asrlarda, xususan islom dini qaror topguniga qadar Naxshabda asosan zardushtiylik dinining katta tarmog'i otashparastlik keng tarqalganligini arxeologik manbalar ham tasdiqlaydilar. Yerqo'rg'on markazida ikkita olov ibodatxonasi qad rostlab turgan va ular arxeologlar shartli ravishda «Markaziy ibodatxona» va «Sharqiy ibodatxona» deb yuritiladilar (Suleymanov, 2000,.....). S.K.Kabanov tomonidan Naxshabning ilk o'rta asrlarga oid qishloqlarida, Yerqo'rg'on kulollar mahallasida va boshqa joylarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlarda ham aholi xonadonlarida olovga sig'inishga mo'ljallangan maxsus sajdagohlar ko'plab topilgan (Isamiddinov.....). Yerqo'rg'ondagi qazishmalarda va Naxshabning ilk o'rta asrlarga oid qishloqlari xarobalarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlarda otashparastlik bilan bog'liq sopol buyumlar - otashdonlarning turli-tuman shakllarda yasalgan namunalari ko'plab marta qo'lga kiritilgan va ularning ayrimlari maxsus tadqiqot ostiga olingan (Raimkulov, 1998, s.55).

Keyingi yillarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar Naxshabda

otashparastlikdan tashqari boshqa dinlarga, shu jumladan dunyoviy dinlardan bir bo'lgan xristianlikka, aniqrog'i uning sharqiy mahzablaridan biri nasroniylikka ham e'tiqod qilinganligini ko'rsatmoqdalar va biz quyida mana shu to'g'rida qisman to'xtalamiz.

Shulluktepa atrofidagi Naxshab qal'asi VI-VII asrlarda yirik shaharning yadrosiga aylangan davrda shahar atrofida va unga yaqin hududlarda shaharning ta'sir doirasida bo'lgan ko'plab aholi manzillari ham mavjud bo'lgan. Mana shunday yirik aholi manzili Naxshabga yaqin joyda, Qashqadaryoning o'ng sohilidan bir chaqirimcha masofada joylashgan va uning xarobalari bizning kunlargaacha maydoni 4,5-5 ga atrofida bo'lgan Qo'shtepa nomi bilan ataluvchi yodgorlik ko'rinishida yetib kelgan. Bu yodgorlikda 90-yillarning boshlarida A.Raimkulov boshchiligida arxeologik qazishmalar olib borilgan (Raimkulov, 1997, 2000, 2003, 2004)

Hozirgi Shayxali qishlog'i hududida joylashgan Qo'shtepa arablar istilosigacha faoliyat ko'rsatgan yirik sug'diylar qishlog'ining xarobalaridir. Ushbu shaharmonand qishloq yirik qo'rg'on ko'rinishida bo'lib mahobatli mudofaaa devorlari bilan o'rab olingan va bu devorlarning tashqari tomonida esa eni 15-20 m chamasi kenglikdagi chuqur mudofaaa xandaklari bo'lgan. Biz tomonimizdan mana shu mudofaaa xandaklari atrofida olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida o'ziga xos me'moriy xususiyatlarga ega bo'lgan yarim yerosti me'moriy inshootining katta bir qismi ochib o'rganildi.

Qo'shtepagi inshoot shu paytgacha Naxshab hududida ochib o'rganilgan binolar qoldiqlaridagi keskin farq qilgan holda uning xarobalari yer sathidan pastda joylashgan. Ushbu bino ikki qismli, o'ndan ortiq xonadan iborat butun boshli me'moriy majmuadir.

Bu kabi o'ziga xos usulda qurilgan me'moriy inshoot O'rta Osiyo hududida shu paytgacha uchramagan. Inshoot sajdagohlarining ichki ko'rinishi ko'proq zardushtiyar sajdagohlarning eslatadi. Lekin zardushtiylik ta'limotiga ko'ra yerni kavlab biron-bir inshoot qurish ma'n etilgan.

Bir necha yillik ilmiy izlanishlar natijasida bu inshoot arablarning Janubiy

Sug'd hududiga kelguniga qadar faoliyat ko'rsatgan nasroniylarning ibodatxona-monastirining xarobalari degan xulosaga keldik.

Monastir VII asrning birinchi yarmida o'z faoliyatini to'xtatgan. Bu yerda umrguzaronlik qilgan nasroniy dindorlar va bu yerda doimiy ravishda o'z ibodatlarini ado etib turgan nasroniylar bu inshootni tark etishlari paytida uning muqaddas hisoblangan xonalarini, sajdagohlarni qum aralash yumshoq tuproq bilan to'ldirganlar. Ular foydalanilgan ko'plab kundalik buyumlar va boshqa ashyolar joy-joylariga qoldirilgan.

Qo'shtepa monastirining me'moriy jihatlari va qurilish usullari O'rta Osiyo uchun xos emas. Bu xildagi usul bilan qurilgan bir necha yarim yer osti cherkovlar va monastirlar qadimgi Vizantiya (Rum) - hozirgi Turkiya hududida, aniqrog'i Turkiyaning Kappadokiya viloyati hududidan topilgan. Bu esa Naxshab-Nasaf hududidan topilgan ushbu monastir Suriya, Eron va Vizantiyada keng tarqalgan umumxristian diniy me'morchiligi an'analari asosida bunyod etilganligini ko'rsatadi.

Qo'shtepa majmuasining nasroniylarga tegishli ekanligini bu yerdan topilgan yana bir topilma ham tasdiqlashi mumkin. Majmuaning 2-xonasidan supa ustidan sopoldan yasalgan urchuqbosh topildi. Urchuqbosh yasalgan paytda hali u xomligidayoq uning uchta joyiga bir xil muhr bosilgan. Muhrda vazasimon idish va uning gardishining ikki tomonida bir-birlariga qarama-qarshi o'tirgan ikkita qush tasviri bor. Qushlarning biri idishga boshini tiqib undan suv ichmoqda, uning qarama-qarshi tomonidagi qush esa boshini baland ko'targan holda og'zidagi suvni yutmoqda.

Xristianlik tarixi bilan shug'ullanuvchi olimlarning fikrlaricha, bu tasvir qadimgi «Bibliya»dan olingan bo'lib «hayot bulog'i» degan ma'noni aks ettiradi. Qo'shtepadagi kabi mazmunga ega bo'lgan topilma - Qadimgi Rim cherkovlaridan birining xarobalaridan topilgan mozaika hozirgi kunda Rimdagi Kapitoliya muzeyida saqlanadi.

Qadimgi Nasaf shahri xarobalari bo'lmish Shulluktepaga yaqin hududdan ushbu nasroniylar monastirining topilishi biz arxeolog olimlar uchun juda ham

kutilmagan hol emas, chunki xristianlar tomonidan barpo etilgan inshootlar O'rta Osiyo hududida bir necha marta ochib o'rganilgan. Ulardan Qadimgi Marv hududidan topilgan xristianlar cherkovi - Xaroba Ko'shk, xristianlar monastiri «CHo'zinroq uy», Qirg'izistondagi Oq-Beshim-Suyab shahar xarobalaridan topilgan ikkita cherkov qoldiqlarini, yuqorida aytib o'tganimiz - janubiy Tojikistondagi Ayvaj kishlog'i atrofidagi xristianlarning g'or-monastiri, Eski Termizdan topilgan xristianlar ibodatxonasini, Samarqand viloyatidagi Urgut atrofidan topilgan Qo'shtepa xristianlar ibodatxonasini, Urgutning So'fiyon qishlog'i yaqinidagi qoyatoshga yozilgan nasroniy-suryoniy yozuvlarni misol tariqasida keltirishimiz mumkin. Undan tashqari O'rta Osiyo hududida olib borilgan arxeologik qazishmalar paytida xristianlik bilan bog'liq juda ko'plab osori-atiqalar ham topilgan. Bular hammasi O'rta Osiyoda o'rta asrlarda xristian dini bizning hozirgi tasavvurimizdagiga qaraganda ancha kengroq yoyilganligini ko'rsatadi.

Ushbu ibodatxona-monastirning topilishi nafaqat Naxshab, balki butun O'rta Osiyodagi dinlar tarixini o'rganishda beqiyos ahamiyatga ega bo'lishi bilan birga, bu shaharda va uning atrofidagi ayrim qishloqlarda ham xristian jamoalari yashaganliklaridan dalolat beradi.

1987 yilda M.H. Isomiddinov va A.A.Raimqulovlar tomonidan Shulluktepa arkining eng yuqori qismida (qubbasida) arxeologik qazishmalar olib borildi va natijada bu yerda faoliyat ko'rsatgan mahobatli bir binoning qoldiqlari ochib o'rganildi (Suleymanov, 2000, s.).

Turk hoqonligi va Sosoniylar davlati qo'shinlari tomonidan vayron etilgan Shulluktepa arkidagi qadimgiroq qal'aning vayronalaridan keyinroq ushbu inshootning sahnini qurishda foydalanilgan.

Ark ustidagi bino qadimgi me'moriy inshootlar xarobalari ustidan qoplangan paxsa blokларidan tashkil topgan zinasimon sahn ustiga VII asrning ikkinchi yarmi - VIII asrning boshlarida bunyod etilgan. Sahn maydonidan 2,5 m pastki sathda, arkning har to'rt tomonida hosil bo'lgan maydonchalarning usti yopilib bu yerda ayvonlar bunyod etilgan. Bu ayvonlarda ark qo'riqchilari tepadagi istehkomni

qo'riqlaganlar.

Ark qubbasida ochilgan bino kvadrat shaklida (taxminan 25x25 m), o'nta xonadan iborat, bu xonalar bir-birlariga anfilada usulida, ya'ni ketma-ket ravishda bog'langan bo'lib, ular katta markaziy xonani hamma tomondan o'rab olgan. Xonalar devorlarining qalinligi 1,10, 1,60 va 1,90 m. Bu xonalar bizning nazarimizda markaziy xonani qo'riqlash nuqtai-nazaridan bunyod etilgan harbiy istehkom vazifasini bajarganlar. Xonalarning ko'pchiligida tashqi devorning tagida keng supalar mavjud bo'lib ular arkning himoyasida foydalanishga mo'ljallanganligi shubhasizdir. Tashqi devorda shiniklar bo'lganmi-yo'qmi, bu hozircha noma'lum, lekin devorlarning saqlangan balandligida shinaklar uchramaydi.

Inshootning o'rtasida katta xona markaziy zal joylashgan bo'lib o'lchamlari 5,80 x 4,80 m. Zalning devorlari keyingi davrlarda deyarli buzilib ketganligi uchun uning ichki me'moriy xususiyatlarini tahlil qilishning deyarli iloji yo'q va undan qay maqsadda foydalanilganligini faqat taxmin qilish mumkin xolos. Bu inshoot bir necha marta tubdan ta'mirlangan. Markaziy xonadan sharq tomonda quduq ham mavjud bo'lib Shulluktepa shahristoni va rabodida topilgan ko'plab quduqlar kabi uning ham atroflariga ichkari tomonidan pishiq g'isht terilgan. Quduqning diametri 1,20 m, chuqurligi noma'lum, harqalay u suvli qatlamgacha yetib borgan bo'lsa kerak, chunki arkdagi ehtimoldagi uzoq davom etishi mumkin bo'lgan qamal paytida mana shunday quduqlarning suvi juda ham asqotishi shubhasizdir.

Shulluktepa arkidagi bu bino tom ma'nodagi harbiy istehkomdir. Bir-birlari bilan anfilada usulida bog'langan tor xonalar doimiy yashash uchun yaroqsiz. Xonalarning ayrimlaridan o'choqlar qoldiqlari topilgan bo'lsada, bu o'choqlardan ushbu istehkom qo'riqchilari foydalanganliklari shubhasizdir.

Binoning qazish jarayonida qo'lga kiritilgan sopollar va boshqa arxeologik osori-atiqalar eramizning VIII asrining ikkinchi yarmiga mansub bo'lib bu topilmalar bino faoliyatining so'nggi davrlariga oiddir.

Naxshab-Nasaf to'g'risidagi o'rta asrlar sayyohlari va jug'rofiy olimlarining

esdaliklarida shahar arki to‘g‘risida ham qisqacha ma’lumotlar uchraydi. Bu yerga tashrif buyurgan arab sayyohlari shahar buzilgan ark-kuhandiz, madina va raboddan iboratligini yozishgan. Bu sayyohlar albatta arkning xaroba holatda ekanliklariga e’tibor berganlar. Yuqorida aytilganidek, arkdagi bu inshoot o‘z faoliyatini ushbu sayyohlar tashrifidan ancha muddat oldin, eramizning VIII asrining oxirlarida to‘xtatgan.

XULOSA

Qadimgi So'g'd tarixi haqidagi bilim va ma'lumotlar, tarixiy dalillar uzoq yillar mobaynida to'plangan. Ularning aksariyati qadimiy Sharq va G'arb manbalariga, XIX-XX asr boshlaridagi sayyohlarining ma'lumotlariga asoslangan. XIX asrning 80-yillaridan boshlab So'g'd hududida olib borilgan keng miqyosli arxeologik tadqiqotlar bu shaharning qadimiy va ilk o'rta asrlar tarixi, madaniyatini butunlay yangicha yoritish, uning shakllanish va rivojlanish tadrijini kuzatish imkonini berdi. Arxeologik tadqiqotlar jarayonida So'g'd haqidagi yozma manbalarda keltirilgan ma'lumotlar bilan arxeologik topilmalar qiyoslanib, quyidagicha xulosaga kelindi.

Birinchidan, So'g'd tamadduni Zarafshon va Qashqadaryo daryolari oralig'ida vujudga kelgan O'rta Osiyodagi madaniyat o'choqlaridan biri bo'lgan hamda ko'p asrlik taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi.

Ikkinchidan, Zarafshon daryosining yuqori oqimidagi dastlabki manzilgohlar tosh davridayoq vujudga kelib, bu yerda qadimdan insonlar yashay boshlaganligini mintaqada olib borilgan arxeologik tadqiqotlar tasdiqlaydi.

Uchinchidan, Mil. avv. IX-VIII asrlardan ilk shaharsozlikka xos bo'lgan xususiyatlarni o'zida jam qilgan va qadimiy tarixiy manbalarda viloyat yoki shahar nomlari bilan kirgan, baland mudofaa devori va keng xandaq bilan o'rab olinadi (bu xil manzilgohlar mil. avv. I ming yillik boshidan O'rta Osiyoning dehqonchilik qilinadigan viloyatlariga xosdir).

To'rtinchidan, umumso'g'd madaniyati deb atalgan madaniyat yaratgan qadimiy so'g'diylar hozirgi uch viloyat hududida – Samarqand (Markaziy So'g'd), Qashqadaryo (Janubiy So'g'd), Buxoro (G'arbiy So'g'd) da o'zaro birlashib va to'xtovsiz taraqqiy etib borib, o'z davrida kattagina tarixiy viloyatga aylangan.

Beshinchidan, So'g'dning Buyuk ipak yo'li chorrahasida joylashganligi ilk davrlardan boshlab hunarmandchilik tarmoqlari (kulolchilik, temirchilik, misgarlik, zargarlik, zardo'zlik, shishasozlik, kandakorlik, badiiy kashtachilik va h.k.) va savdo-sotiq ishlarining rivojlanishiga turtki bo'ldi.

Oltinchidan, bitiruv malakaviy ishining asosiy qismida fikr yuritganimiz

So'g'd hududidagi arxeologik yodgorliklarda olib borilgan izlanishlardan kelib chiqib ulardagi shaharsozlik madaniyatining rivojlanish bosqichi turlicha va yashash davri turlichadir. Samarqandda shahar hayoti birgina Afrosiyob (shuningdek Ko'ktepa) da kechgan bo'lsa, Qashqadaryo hududida ikkita – Nautaka va Naxshabda, Buxoroda Poykent va Varaxsha hududida kechgan

Yettinchidan, tadqiqotlar jarayonida topilgan numizmatik topilmalar Yunon-baqtr hukmdorlari davridan ularning tangalariga taqlid qilib ishlangan, shuningdek Girkod tangalari muomalada bo'lganligini tasdiqladi.

Sakkizinchidan, arablar istilosi natijasida asrlar davomida yaratilgan umumso'g'd madaniyati butunlay yo'q qilindi.

Shunday qilib, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan umumso'g'd madaniyati nafaqat O'zbekiston, balki butun O'rta Osiyoning qadimgi madaniyati xazinasidir durdonasi sifatida tarixda qoldi. Bu madaniy merosini o'rganish va ularni himoyalash masalalari bilan bugungi kunda keng ko'lamli tadbirlar olib borilmoqda.

Tavsiyalar

1. Umumso'g'd madaniyatiga xos bo'lgan moddiy ashyolarni o'zida jam qilgan yodgorliklarni muhofaza qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqish.
2. Qadimgi So'g'd hududidagi yodgorliklarda arxeologik izlanishlarni davom ettirish.
3. Umumso'g'd madaniyatini yaratgan qadimiy so'g'diylar haqida yozma manbalarda keltirilgan ma'lumotlarni yoshlar orasida targ'ib qilish.
4. Qadimgi So'g'd tarixiga oid yozma manbalarni yanada chuqurroq o'rganish va tahlil qilish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

1. Karimov I.A. “Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q “// Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. –T., O'zbekiston, 1999. 7 j. – B. 128-132.
2. Karimov I.A. “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch”. – T., 2008.
3. Karimov I.A. “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning chora va tadbirlari”. – T., 2009.
4. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir // 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. – T., 2010.
5. Karimov I.A. “Mamlakatimizni modernizasiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir” // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. – T., 2010.
6. Karimov I.A. “O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” – T., “O'zbekiston”, 2011.
7. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., “O'zbekiston”, 2012.

Monografiya va risolalar

1. Ханыков Н.В. Описание Бухарского ханства. – СПб., 1843.
2. Бёрнс А. Путешествие в Бухару. – М., 1850.
3. Маев Н.А. Очерки Бухарского ханства. – Т., 1875.
4. Крестовский В.В. В гостях у эмира Бухарского. – СПб., 1887.
5. Фрейман А.А. Описание публикации и исследование документов с горы Муг. – М., 1962
6. Афрасиаб. Вып. 1. – Т., 1969.
7. Афрасиаб. Вып. 2. – Т., 1973.

8. Массон М.Е. Столичные города в области низовьев Кашкадарьи с древнейших времен. – Т., 1973.
9. Афрасиаб. Вып. 3. – Т., 1974.
10. Афрасиаб. Вып. 4. – Т., 1975
11. Кабанов С.К. Нахшаб на рубеже древности и средневековья. – Т., 1977.
12. Мухемаджанов А.Р. История орошения Бухарского оазиса (с древнейших времен до начало XX в.). – Т., 1978.
13. Кабанов С.К. Культура сельских поселений Южного Согда III-VI вв. – Т., 1981.
14. Исамиддинов М.Х., Сулейманов Р.Х. Еркурган (стратиграфия и периодизация). – Т., 1984.
15. Древнейшие государства Кавказа и Средней Азии // Отв. Ред. Г.А. Кошеленко. – М., 1985
16. Массон В.М. Первые цивилизации. – Л., 1989.
17. Исаков А.И. Саразм (к вопросу становления раннеземледельческой культуры Зарафшанской долины. Раскопки 1977-1983 гг.). – Душанбе, 1991
18. Лушпенко О.Н. Узункыр-Сангиртепа – древнеземледельческие поселения Южного Согда // Средняя Азия и мировая цивилизация. Тез. докл. – Т., 1992.
19. Insoniyatning ilmiy va madaniy merosi – uchinchi ming yillikda // Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligiga bag'ishlangan Xalqaro simpozium tezlari. – Т., 1997.
20. Karimov Sh., Shamsutdinov R. Vatan tarixi. – Т., 1997.
21. Muxemadjonov M.R. O'zbekistonning qadimgi gidrotexnika inshootlari. – Т., 1997.
22. Сулейманов Р.Х. Древний Нахшаб. – Ташкент-Самарканд, 2000.
23. Azamat Ziyoy. O'zbek davlatchiligi tarixi. – Т., 2001.
24. Muhammadjonov A. Qadimgi Buxoro. – Т., 2002.
25. Matboboyev B.X. Qadimgi Farg'onada ilk davlatchilik ildizlari // O'zbekiston

tarixi, 1-son. B. 3-11. 2002

26.Исамиддинов М.Х. Истоки городской культуры Самаркандского Согда. – Т., 2002.

27.Eshov B. Qadimgi O'rta Osiyo shaharlari tarixi. – Т., 2006.

28.Qadimgi tarixchilar O'rta Osiyo haqida. – Т., 2007.

29.Самарканд 2750. – Т., 2007

30.Rtveladze E.V. O'zbekistonning tarixiy o'tmishi. – Т., 2009.

Internet saytlari

1. www.google.uz

2. www.ziyonet.uz

3. www.wikipediya.uz

4. www.ziyo.uz

5. www.arxeologiya.uz

6. www.istorya.ru

7. www.history.ru

ILOVALAR



Shulluktepa



Yerqo'g'on



Afrosiyob



Panjikent

